

O‘zbekiston Respublikasi  
Sog‘liqni saqlash vazirligi  
Toshkent farmatsevtika instituti



Ijtimoiy fanlar kafedrası  
**SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH FANIDAN**

Bilim sohasi: 500000 - Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘miot  
Ta‘lim sohasi: 510000 - Sog‘liqni saqlash  
Ta‘lim yunalishi: 5510500 - Farmatsiya (turlari buyicha)  
5111000 – Kasb ta‘limi



## **Toshkent - 2018 y**

Pedagogika. Psixologiya fanining o'quv- uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201\_ yil \_\_\_\_ \_\_\_\_ dagi -son buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chikilgan.

### **Tuzuvchi:**

ismoilovK.K.

Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri Dotsent

F.G.Xoshimova

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

### **Taqrizchi:**

Mamedov X.M. - Ijtimoiy fanlar kafedrası professori

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi soha \_\_\_\_\_ uslubiy kengashining  
2018 yil \_\_\_\_\_ dagi -son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya  
etilgan.

Soha uslubiy kengash raisi

K.K.Ismailov

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi institut Markaziy uslubiy kengashning 2018yil  
\_\_\_\_ \_\_\_\_ dagi -son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya  
etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi

T.A.Nabiev

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi institut Kengashining 2018 yil \_\_\_\_\_ dagi  
-son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Kengash ilmiy kotibi

F.X.To'xtaev

## Mundarija

### I. O'quv materiallari:

<b>1-mavzu:</b> «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining predmeti mazmuni va o'rganish usullari .....	4
<b>2-mavzu:</b> O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning shakillanishining nazariy asoslari. Soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.....	21
<b>3-mavzu:</b> O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi va undagi ma'murchilik masalalari.....	37
<b>4-mavzu:</b> Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar	
<b>5-mavzu:</b> Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar .....	62
<b>6-mavzu:</b> Davlat maqsadli ijtimoiy jamg'armalariga olinadigan majburiy tulovlar. Davlat boji.....	111

### II.Amaliy mashg'ulotlar:

1-mavzu:«Soliqlar va soliqqa tortish» fanining predmeti mazmuni va o'rganish usullari .....	154
2-mavzu: O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning shakillanishining nazariy asoslari. Soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.....	162
3-mavzu: O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi va undagi ma'murchilik masalalari.....	170
4-mavzu:Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar.....	172
5. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar .....	186
6.Davlat maqsadli ijtimoiy jamg'armalariga olinadigan majburiy tulovlar. Davlat boji.....	191

### III.Mustaqil ta'lim mavzulari yuzasidan ko'rsatmalar.....

201

### IV.Glossariy.....

207

### V.Ilovalar:

-Ishchi fan dasturi.....	208
-Tarqatma materiallar.....	215
-Testlar.....	220
-“Soliq va soliqqa tortish” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonini.....	236

### VII.Adabiyotlar ro'yhati.....

247

## I.NAZARIY MATERIALLAR

---



## **1-MAVZU: “SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA UNI O‘RGANISH USULLARI**

Reja:

- 1.1. «Soliqlar va soliqqa tortish» fani alohida iqtisodiy fan sifatida o‘rganishdagi mavjud usullar.
- 1.2. Soliqlarning ob’ektiv zarurligi, funksiyalari va vazifalari.
- 1.3. Soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o‘zaro munosabati.
- 1.4. Soliqlarning mavjud va amaldagi tamoyillari.

**Tayanch so‘zlar va iboralar:** soliq, soliq taktikasi, yuridik shaxs, jismoniy shaxs.

Asosiy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.”Adolat” nashriyoti, 2010 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.:// Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.
3. Karimov I.A. YAngilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. // Xalq so‘zi, 2007 yil 13 fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 30 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1675–son Qarori. Xalq so‘zi gazetasi, yanvar 2016y.
5. Alimardonov M.I., To‘xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. – T.: O‘zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005.
6. Kochergov D.S., Ustinova E.E. Упроцѣнная система налогообложения. -M.: Omega, 2006. - 317 s.
7. Toshmuradova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish: O‘quv qo‘llanma. - T.: TMI, 2005. –158 b.
8. YAhyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik (qayta ishlangan) - T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 bet.
9. YUtkinaG.F. Nalogi i nalogooblojeniya: Uchebnik–M.: INFRA-M, 2001.-429 s.

10. Soliq info” ijtimoiy-iqtisodiy gazeta, 2013, 2014, 2015 y.y.
11. Ekspres informatsiya. 1- son, Tosh.DSB, 2015 y.
12. <http://www.nalog.ru> (Rossiya Federatsiyasi Davlat soliq xizmati sayti).
13. <http://www.soliq.uz> (O‘zR Davlat Soliq Qo‘mitasi sayti).

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani soliqning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, funksiyalari, soliqni hisoblash va byudjetga undirish mexanizmini o‘rganishdagi asosiy fan hisoblanadi. Fanning predmetiga to‘xtalishdan oldin «Soliq» kategoriyasiga qisqacha to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak,

«Soliq» kategoriyasi — bu muhim iqtisodiy jarayon bo‘lib, uning paydo bo‘lishi va amal qilishi kishilik jamiyatining mavjudligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Soliqlar har bir davlat faoliyatining moddiy jihatlarini ta‘minlaydi. Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotida soliq iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi.

Amaliyotda va umuman iqtisodiy fanda soliqning mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. SHu sababli ushbu kategoriyadan har bir davlat tomonidan o‘ziga xos tarzda foydalaniladi.

Davlat asta sekin rivojlanib borishi bilan, uning funksiyalari ham muvofiq ravishda kengayib boradi. Bu esa soliqning nisbatan qo‘yiladigan talabning kuchayishiga olib keladi. SHu sababli soliq tizimi tobora murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib boradi. Kishilik jamiyati rivojlanishi tarixi shuni ko‘rsatadiki, davlat ma‘muriy boshqaruv bilan shug‘ullangan hollarda uning ehtiyojlari ma‘lum darajada saqlanib qoladi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish majburiyati paydo bo‘lsa, uning xarajatlari va aholidan olinadigan tushumlari ko‘payadi. Bunday holatda soliqning shakllari pang-baranglashib boradi.

Hozirgi kunda har bir fanni o‘rganishda uni talabalarga to‘liq etkazish, talabalarni fikrlashga undash va jalb etish, shu orqali etuk mutaxassislarni tayyorlash maqsadi yotadi. Fanni o‘rganishda hozirgi davrning ilg‘or uslublaridan va o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fanining predmeti – bu soliq to‘lovchilarning soliq va ularga tenglashtirilgan to‘lovlarning iqtisodiy mohiyati, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati, soliq tizimi va siyosati, soliq turlari bo‘yicha belgilangan imiyozlar tizimi, soliqni hisoblash mexanizmining amaldagi holatini o‘rganishdan iborat. Jumladan, soliq to‘lovchilar va uni o‘zlashtiruvchi, davlat byudjeti, majburiy to‘lovlar, moliyaviy munosabatlar kabi elementlarning

o‘zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarining uslubiy jihatlari, qirralari keng ko‘lamda o‘rganiladi.

Har bir fanning shakllanishi fan predmeti shakllanishi bilan birgalikda, uning ilmiy bilish usullari qaror topishi bilan ham bog‘liq. Har qanday fanni o‘rganishdagi usullar umumiy tavsifga ega, lekin har bir fan o‘z predmetidan kelib chiqib, o‘zining ilmiy bilish usullariga ega. SHuning uchun fanni o‘rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo‘linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o‘rganishning birdan-bir to‘g‘ri ilmiy usuli dialektik usuldir. SHuning uchun ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan soliq nazariyasi fanining ham nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko‘rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo‘ladi. Bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. SHuning uchun ushbu usul tadqiqotning induksiya va deduksiya usullarini o‘z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo‘lsa – induksiya hisoblanadi. Avval boshdanoq barcha xususiy hollarni o‘z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa – deduksiya hisoblanadi.

SHu bilan birga barcha iqtisodiy fanlar kabi «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining ham o‘ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy abstraksiya usulidir. Ilmiy abstraksiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida ob‘ektning faqat bir tomoniga, o‘rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e‘tibor qaratiladi va halal berishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta’siri e‘tiborga olinmaydi.

“Soliqlar va soliqqa tortish” fani shuningdek, o‘z predmetini o‘rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil - o‘rganilayotgan butun ob‘ektning qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish bo‘lsa, sintez esa o‘rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliq turlarini hisoblash va byudjetga undirish tartiblarining amaliy masalalari mazkur yo‘l bilan o‘rganiladi.

Fanni o‘rganishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holda tahlilni qo‘shib olib borish muhim o‘rin tutadi. Soliqlarni hisoblash va byudjetga to‘lashning amaldagi masalalarini mikroiqtisodiy jihatdan o‘rganishda iqtisodiyotning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar nuqtai nazaridan, ular bilan davlat byudjeti o‘rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda

esa, davlat miqyosida, ya'ni soliqlar va soliq munosabatlariga doir masalalar makroiqtisodiy darajada o'rganiladi.

SHuningdek, fanni o'rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullardan ham foydalaniladi. Jumladan soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, ulardan tushumlarni jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulda tasvirlash va shu kabilardir. Masalan, soliqlar o'zgarishini yalpi talab va yalpi taklifga ta'sirini mana shu usul bilan ifodalash mumkin.

Fanni o'rganishda taqqoslash, statistik va grafik usullardan keng foydalanilgan holda ularning har biri o'ziga xos yo'nalishlarni aks ettirib, biri soliq tushumlarini jadval orqali, biri davrlar bo'yicha taqqoslash, biri esa o'zgarishlarni grafik usulda o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Biz bu fanni o'rganishda bu usullardan keng ko'lamda foydalanishimiz uchun eng ahamiyatlisini tanlab olishimiz lozim bo'ladi.

Soliqlar va soliq munosabatlariga doir bilimlarni o'rganishda bir qator iqtisodiy fanlarni ham o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Barcha iqtisodiy fanlar bir-birini to'ldirib boradi va o'rganish uslublarini osonlashtiradi. Biz "Soliqlar va soliqqa tortish" fanini o'rganishda "Soliq nazariyasi", «Iqtisodiyot nazariyasi», «Moliya» va «Pul kredit va banklar» kabi iqtisodiy fanlar bilan birgalikda o'rganamiz.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani «Iqtisodiyot nazariyasi» fani bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning maxsus kengaytirilgan bo'limidir. CHunki soliqlar va soliq munosabatlarining qonuniyatlari umumiy iqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqmasdan, ularga asoslanadi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani «Soliq nazariyasi» fani bilan ham o'zaro aloqadorlikda o'rganiladi. «Soliq nazariyasi» fani soliqlar va soliq munosabatlarining nazariy asoslarini o'rgansa, «Soliqlar va soliqqa tortish» fanida esa soliqlarni hisoblash va byudjetga to'lash mexanizmidagi amaliy va uslubiy asoslar o'rganiladi.

## 1.2. Soliqlarning ob'ektiv zarurligi, funksiyalari va vazifalari.

Soliqlarning amal qilishi bu ob'ektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi individlarning hammasi ham real sektorda (ishlab chiqarish sohasida) faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug'ullanish iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob'ektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurati soliqlarni ob'ektiv amal qilishini zarur qilib

qo'yadi, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning ob'ektiv zarurligini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari bilan ifodalash mumkin.

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qola borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning yangi vazifalari paydo bo'ladi. Bularga respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo'jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. SHu erda davlat kuchli ijtimoiy - siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, nafaqaxo'rlar, talabalar, ko'p bolali onalar va boshqalarni ko'proq mablag' bilan ta'minlash zarurligini anglab cheklangan tovarlar bahosidagi farqni byudjet hisobidan qoplaydi va ularga boshqa xarajatlarni davlat hisobidan amalga oshiradi, mahallalarda kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etadi. SHu bilan birga, O'zbekiston davlati jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o'q-dorilarga ham mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o'rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ham ob'ektiv zarur qilib qo'yadi.

Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat. Ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishli, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxonalar va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo'li



bilan davlat byudjetiga majburiy tartibda to'lanishi yoki undirilishi lozim. Davlat uchun byudjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar, yig'imglar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiytdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. SHunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbaidir.

Soliqlar qadimgi davrlardan e'tiboran olingan, ammo u vaqtlarda soliqlar ozod va erkin bo'lmagan kishining belgisi bo'lib xizmat qilgan. Adam Smit (shotland faylasufi va iqtisodchisi, 1723-1790) o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab berdi, soliqlarning ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to'lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.

N.I. Turgenev o'zining «Soliq nazariyasi tajribasi» nomli kitobida (1818 yil) shuni ta'kidlaydiki, «Bilimli bo'lishning muvaffaqiyatlari ularning xalqlar urf odatlariga foydali ta'siri darajasiga qarab soliqlar tizimining takomillashuviga ham ta'sir etgan», «...soliqlar bilimga ega bo'lish bilan birga paydo bo'lib, uning belgisi bo'lib qoldi. ...Soliqlarning tayinlanishi, taqsimlanishi va yig'ilish usuliga qarab xalq orasida tarqalgan ma'lumotlar to'g'risida; yig'iladigan soliqlar miqdoriga qarab uning boyligi haqida fikr yuritish mumkin, bu bilimlilik va ma'rifatni anglatadigan ikki eng asosiy xususiyatdir» bu so'zlardan yana bir bor amin bo'lish mumkinki, soliqlar qadimiy moliyaviy institutlar hisoblanib, davlatning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Soliqlar davlat organlarini ta'minlash va ular oldidagi vazifalarning bajarilishini moddiy ta'minlash manbai sifatida xizmat qilgan. Davlatning rivojlanishi bilan uning vazifa va funksiyalari yangicha xususiyatlarga ega bo'ldi. Lekin soliqlarning davlatni va uning organlarini moliyalashtirishda manba sifatidagi roli o'zgarmay qoldi.

SHu o'rinda soliqlarga turli iqtisodchilar tomonidan berilgan ta'riflarni keltirib o'tish o'rinlidir. «Soliqlar, - deb yozadi D. Rikardo, - hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan er resursi va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir

oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi».<sup>1</sup> SHuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, D. Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o'z navbatida A. Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma'lum darajada rivojlanishiga o'zining hissasini qo'shgan.

Soliqlar bo'yicha yana bir ta'rif S.G. Pepelyaev tomonidan berilgan: «Soliq - ommaviy hokimiyat sub'ektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda holisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir».<sup>2</sup>

Hozirgi paytda iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarning iqtisodiy mohiyatini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar chop etilgan. Masalan, «Siyosiy iqtisod» izohli lug'atida soliqlar «... korxonalar, tashkilot va aholini, mamlakat moliyaviy resurslarini tashkil etishdagi ishtirokini xarakterlovchi majburiy to'lovlar tizimi» deb izohlanadi.

Professor D.G. Chernikning fikricha «Soliqlar - davlat tomonidan xo'jalik sub'ektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'implarni o'zida aks ettiradi».<sup>3</sup>

Professor B.G. Boldyrev boshchiligida yozilgan «Kapitalizm moliyasi» o'quv qo'llanmasida soliqlarga quyidagicha ta'rif berilgan: «Soliqlar — davlat tomonidan undirib olinadigan, jismoniy va huquqiy shaxslarning majburiy to'lovlari»<sup>4</sup> haqiqatan ham yuqorida keltirilgan ta'riflar eng sodda va keng omma uchun qulay va tushunarli bo'lishi mumkin. Lekin bu ta'riflar o'zida soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini to'laligicha aks ettira olmaydi. Bundan tashqari, ushbu to'lovlar nima maqsadda undirib olinishi hamda qachon undirib olinishi to'g'risida etarli ma'lumotlar bera olmaydi.

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi. Biroq bu ta'rif soliqlarning mohiyatini to'laligicha yoritmaydi hamda soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini o'zida aks ettira olmaydi. Bundan tashqari iqtisodiy munosabat sifatida, bu munosabatlar ob'ekti bo'lib nima hisoblanadi? degan savollarga javob bera olmaydi.

<sup>1</sup>Риккардо Д. Начало политической экономики и налогового обложения. Сочинения. / т. 1./Пер. с англ.- М.: Госполитиздат, с.380.

<sup>2</sup>Пепеляев С.Г. Основы налогового права.-М., 1995.с.24.

<sup>3</sup>Черник Д.Г. Налоги в рыночной экономике. -М.: Финансы, 1992. №3 с.19.

<sup>4</sup>Болдырев Б.Г. Финансы капитализма. - М.: Финансы, 1987. 21.

SHuni ta'kidlash kerakki, prof. O. Olimjonovning fikriga ko'ra, soliqlar quyidagicha ta'riflansa, soliqlarning mohiyati kengroq yoritiladi va maqsadga muvofiq bo'ladi: «Soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir».<sup>5</sup>

Bizningcha soliqlarga berilgan mana shu ta'rif eng maqbul ta'rif bo'lib, soliqlarning mohiyati, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini va rolini, soliqlarning xarakat jarayonini nazariy jihatdan chuqurroq yoritib, soliqlar haqida aniqroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Soliqlarga olimlar tomonidan berilgan bir qancha ta'riflarni o'rganib chiqdik. SHu o'rinda bu ta'riflar ma'lum ma'noda bir-birini takrorlab, to'ldirib va boyitib kelmoqda. YUqoridagi ta'riflar soliqlarni to'liq va aniq yoritish, ularning barcha jihatlarini batafsil qamrab olmaydi. SHuning uchun soliq toifasini har tomonlama, kengroq va batafsilroq, uning mohiyati va ahamiyatini, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o'rnini, soliqlarni nazariy jihatlarini aniqroq yoritishga oladigan ta'rifni keltirish muammosi mavjuddir.

Soliq kodeksida soliqlarga quyidagicha tushincha berilgan:

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar, davlat faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiati xuddi shu erdan kelib chiqadi.

Biz soliqlarning iqtisodiy mohiyatini to'liq tushunishimiz uchun, dastavval soliq so'zining tarixan mavjud bo'lgan iqtisodiy ma'nosini to'g'ri tushunib tahlil qilib olishimiz lozim.

YUqoridagi tariflardan kelib chikib, solik tushunchasini quyidagicha ifodalashimiz mumkin. Soliq tushunchasi - iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Uning xarakterli tomoni shundaki - u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va munitsipal tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq - davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchining bundan

---

<sup>5</sup> Olimжонов О. Бозор иқтисодиётига ўтиш даврида солиқ сиёсати. Ҳаёт ва иқтисод. 1992.

biron bir muayyan manfaat ko‘rishi bilan bevosita bog‘lanmagan tarzda undiriladigan pul yig‘imi.

Hozirgi vaqtda soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi.

YUqoridagi ta‘riflarni tahlil qilgan holda quyidagilarni ifodalash mumkin:

a) soliqlarni belgilash huquqi faqat davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi - parlamentga beriladi;

b) soliqni fuqaro emas, mulkdor to‘laydi;

v) soliq davlat byudjetiga daromad olish uchun belgilanadi;

g) soliq to‘lash majburiy xususiyatga ega.

Demak, soliqlar - byudjetga tushadigan pul va qonunda belgilangan majburiy munosabatlardir. Soliqlarning majburiyligi Oliy majlis bilan tasdiqlangan huquqiy va me‘yoriy qonunlar bilan ta‘minlanadi. SHunday ekan, soliqlarni to‘lamaslikka, soliq ob‘ektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko‘rsatishga na huquqiy va na jismoniy shaxslarning haqqi yo‘q.

Soliq to‘lash xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar va fuqarolar bilan davlat o‘rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. CHunki soliqlar byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo‘libgina qolmay:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;
- ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda investitsiyalarni ko‘paytirishga;
- raqobatbardosh mahsulot hissasini ko‘paytirishga;
- kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga;
- xususiy korxonalar ochish bilan bog‘liq bo‘lgan bozor infratuzilmasini barpo qilishga;
- umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi tarixida hali birorta davlat soliqlarsiz mavjud bo‘lgan emas. Bozor iqtisodiyotida ham davlat o‘zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning asosiy qismini soliqlar orqali to‘playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to‘lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo‘lgan intilishini

ragʻbatlantiradi, narx belgilashga taʼsir koʻrsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi. Imtiyozlar yordamida aholining kam taʼminlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi va hokazo. SHuning uchun soliqlar orqali shakllangan mablagʻlarning eng kam miqdori davlat vazifasi bajarilishiga taalluqli eng kam xarajat hajmi bilan bogʻliq boʻladi va shu hajm bilan chegaralanadi.

Soliqlar rivojlangan tovar ishlab chiqarishning muhim kategoriyasi boʻlib, albatta yanada kengroq kategoriya - davlat byudjeti bilan chambarchas bogʻlangan. CHunki soliqlar byudjetning shakllanishida ishtirok etadi.<sup>6</sup>

Soliqlar moliyaviy resurslarni davlat ixtiyorida toʻplanib borishini taʼminlaydi, bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, mintaqaviy vazifalarni hal qilish, ishning samaradorligi va sifatini ragʻbatlantirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib daromadlarni tartibga solish uchun foydalaniladi.

Davlat soliqlarni davlat byudjetini shakllantirish uchun amalga kiritadi, soliqlar birorta aniq xarajatlarni qoplash maqsadiga ega emas, bu ayrim turdagi daromadlardan tushadigan tushumlardan amalga oshiriladigan xarajatlar ularga bogʻliq boʻlib qolishining oldini olish zarurati bilan asoslangan. Biroq bir qancha hollarda umumiy soliqlar bilan birga maqsadli soliqlar ham belgilanadi, ularning amalga kiritilishi iqtisodiy faoliyatda ijobiy rol oʻynashi mumkin.

Soliqlarning funksiyalari va vazifalari:

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar oʻrtasida vujudga keluvchi obʻektiv majburiy toʻlovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega boʻlib, milliy daromadning bir qismi boʻlgan pul mablagʻlarini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Har bir iqtisodiy kategoriyaning oʻz funksiyasi mavjud. Soliq ham mustaqil kategoriya sifatida oʻzi bajaradigan funksiyalarga ega boʻlib, bu funksiyalar soliq kategoriyasining amaldagi harakatini ifodalaydi. Funksiya deganda, odatda kategoriyaning hayotda koʻp qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy xarakterlarini tushunish lozim.

Soliqlarning funksiyalari toʻgʻrisida turli xil qarashlar mavjud. Sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodchilari oʻrtasida soliqlar ikki funksiyani bajaradi, degan qarash

<sup>6</sup> Вахобов А., Срожиддинова З. Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети. –Т.: ТМИ, 2002. 36 – бет.

keng tarqalgan edi. Bu ikki funksiya sifatida fiskal va nazorat funksiyalari tan olinardi. Ularning fikriga ko'ra eng asosiy funksiya bu soliqlarning fiskal funksiyasidir, chunki busiz nazorat funksiyasining mavjud bo'lishi mumkin emas.

G'arb iqtisodchilari ko'pchiligining nazariyalari angliyalik iqtisodchi J.M. Keynsning konsepsiyasiga asoslanadi. By konsepsiyaga ko'ra, soliqlar fiskal funksiyasidan tashqari iqtisodiyotni tartibga solish, rag'batlantirish va daromadlarni boshqarish vositasi funksiyalariga ega, soliqning bu funksiyalari uni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanish zarurligidan kelib chiqadi.

Neokeynschilik yo'nalishi vakillari bo'lgan L. Xarrot, N. Kaldor, A. Xansen va P. Samuelsonlarning fikriga ko'ra, soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasiga ega. Ular soliq stavkalarini o'zgartirish va turli imtiyozlar berish yo'li bilan bu funksiyani bajarish mumkin deb hisoblaydilar.

Soliqlarning daromadlarni boshqarish funksiyasi yuzaga kelishiga fransuz iqtisodchisi E. De Jirardenning nazariyasi asos bo'lgan. Bu nazariyaga ko'ra, soliqlar yordamida soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash yo'li bilan jamiyat a'zolari o'rtasidagi mulkiy tengsizlikka barham berish mumkin. Hozirgi kunda bu nazariyaning davomchilari bo'lib, amerikalik iqtisodchilar A. Ilersik, G. Koul, fransuz iqtisodchilari M. Klyudo, J. Furaste hisoblanishadi. Ularning fikriga ko'ra, davlat soliqlardan va transfert to'lovlaridan foydalanish yo'li bilan jamiyat milliy daromadini kambag'allar foydasiga qayta taqsimlaydi. Bu nazariyalar soliqlarning daromadlarni tartibga solish funksiyasi mavjud degan xulosa kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

I. Malmiginning fikriga ko'ra, soliqlar uch funksiyani bajaradi, ya'ni fiskal, taqsimlash va rag'batlantirish. Uning fikriga ko'ra birinchi funksiya davlat daromadlari manbalarining tashkil topishi bilan bog'liq, ikkinchisi huquqiy va jismoniy shaxslarning daromadlarini taqsimlashni nazarda tutadi. Rag'batlantirish funksiyasi turli imtiyozlar va engilliklar berish yo'li bilan amalga oshiriladi.<sup>7</sup>

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, g'arb iqtisodiy adabiyotlaridagi daromadlarni boshqarish funksiyasi I. Malmiginda taqsimlash funksiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. SHunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo'lib ertaga yo'q bo'lib ketadigan holatlar soliq

---

<sup>7</sup> Мальмигин И. Налоги как элементы финанса. Пер. с англ. - М.:, 1997 . стр. 69

funksiyasi bo'la olmaydi. Demak, funksiya kategoriyasi doimiy, qat'iy takrorlanib turadigan voqelikni ifodalaydi. SHunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funksiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funksiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, nazorat funksiyalari xos deb ta'rif berishadi.

Fikrimizcha, soliqlarning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. Soliqning fiskal funksiyasi.
2. Tartibga solish funksiyasi.
3. Rag'batlantirish funksiyasi
4. Soliqning nazorat funksiyasi.
5. Soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi.

1. Soliqlarning asosiy funksiyasi - fiskal funksiya hisoblanib (lotincha fiscus so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni anglatadi), bu funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan fiskal funksiyaning ahamiyati oshib boradi. Soliqlarning ushbu funksiyasi orqali hosil bo'ladigan pul resurslari davlat fondi (davlat byudjeti) orqali qayta taksimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, ustuvor tarmoqlarni investitsiyalashga yo'naltiriladi.

Jahon amaliyotida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qo'llanadi, ya'ni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarning bir qismi qayta taqsimlanadi. Bunday yondashuvlar soliqqa tortiladigan daromad aniqlanayotganida soliqqa tortilmaydigan minimum miqdoridagi daromad qo'shilmaydi, ayni paytda ortiqcha daromadlar soliqqa yuqori progressiv stavkalar bo'yicha tortiladi.

2. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funksiyasi ularning iqtisodiyotdagi tartibga soluvchilik roli hisoblanadi, ya'ni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan xalq xo'jaligi tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayyan «soliq muhiti»ni

yaratadi. Ushbu funksiya orqali soliq tizimiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur'atlarini rag'batlantiradi yoki jilovlab turadi, sarmoyaning bir tarmoqdan soliq muhiti eng ma'qul bo'lgan boshqa tarmoqqa qo'yilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek aholining to'lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

3. Rag'batlantirish funksiyasi soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom-ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag'batlantiradi

4. Soliqlarning nazorat funksiyasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish ob'ekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

5. Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funksiya orqali xarajatlar hajmi va konkret soliqlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib turilishi juda zarur. SHunday qilinsa, soliqlarning byudjetga tushishi to'liq, o'z vaqtida va oson kechadi.

Biz soliq funksiyalarini qisqacha ko'rib chiqishimiz soliqlar moliya resurslarini tiklash, xo'jalik faoliyatini tartibga solish va daromadlarni ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlar uchun qayta taqsimlash bo'yicha muhim vazifalarni bajaradi deb xulosa chiqarishimiz uchun imkon beradi.

Soliqlarning iqtisodiyotdagi yuqorida ta'kidlangan muhim o'rnini belgilovchi bir qancha funksiyalari mavjud. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida soliqlarning o'rnini belgilovchi quyidagi asosiy omillarni ko'rsatib o'tish mumkin.

1) Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish zarurati.

2) Agrar sektordagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur omili.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida eng asosiy tarmoq agrar sektor hisoblanadi. Masalan, ikkinchi jahon urushidan keyin tiklanayotgan YAponiya iqtisodiyoti uchun mashinasozlik etakchi tarmoq sifatida rivojlantirilgan edi. Bu



tarmoq YAponiya iqtisodiyotini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. Bu eng avvalo, uning mamlakatga chet el valyuta tushumlarini olib kelishda namoyon bo'ldi. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ana shunday asosiy tarmoq vazifasini o'tamoqda.

3) O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida soliqlarning o'rnini belgilovchi asosiy omillardan yana biri - hozirgi kunda ko'payib borayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy va huquqiy shaxslarning daromadlarini jalb qiluvchi mukammal soliq to'lovini yuzaga keltirish.

Soliqlar iqtisodiyotning tarixiy rivojlanishi bosqichlarida ushbu rivojlanish jarayonlarini ta'minlash maqsadiga bo'ysunuvchi vazifalarni bajaradi. Soliqlarning funksiyalari esa ana shu vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Soliqlar bajaradigan vazifalar ko'pchilik mamlakatlarning soliq qonunchiligida umumiy o'xshashliklarga ega. Ana shunday an'anaviy soliq vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatga zaruriy moliyaviy resurslar ta'minlab berish

2. Mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga ko'maklashish.

3. Aholining mehnat faolligini rag'batlantirish. Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vazifani bajaradi. Chunki ular aholi daromadlarini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi.

4. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat prinsiplari o'rtasidagi muvofiqlikka erishish. Amaldagi soliqlarga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi.

1.3. Soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o'zaro munosabati.

U yoki bu iqtisodiy kategoriyaning mohiyatini chuqurroq anglash uchun unga xos umumiy belgilarni aniqlash lozim bo'ladi. Masalan, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida muddatlilik, qaytarishlik, muayyan miqdorda ustama haq (foiz) to'lash kabi umumiy belgilarga egaki, ushbu belgilar kredit kategoriyasi mohiyatini kengroq yoritish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu kabi soliq kategoriyasi ham bir qator o'ziga xos belgilarga egaki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa to'lovlardan farqlash uchun xizmat qiladi.

Rus iqtisodchisi A. Medvedev o'zining «Soliqlarni qanday rejalashtirmoq kerak?» nomli kitobida soliqlarga xos bo'lgan ikki belgini, ya'ni majburiylik va ekvivalentsizlik kabi belgilarni qayd etadi.

YUqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha soliqlarning umumiy belgilarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Soliq to'lovchi pulning u yoki bu summasini davlatga to'lap ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olmaydi. Davlatga to'lanadigan soliqlar bilan uning evaziga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlar o'rtasida bevosita, har bir kishining ko'zi ilg'aydigan bog'liqlikning yo'qligi soliq to'lovchilar soliqqa tortishni yuk sifatida baholashlari uchun sabab bo'ladi, ular soliqlar hisobidan qilinadigan davlat xarajatlarning yo'nalishini ma'qullashlari ham mumkin.

2. Soliqlar majburiy to'lovlar hisoblanadi. Soliqlarning to'liq miqdorda va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik soliq to'lovchilar zimmasiga yuklangan bo'lsa-da, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to'laydilar, davlat soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarni qattiq jazolaydi.

3. Davlat foydasiga soliq to'lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo'yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko'zda tutilgan qismi undirib olinadi. Ko'pgina davlatlarning, shu jumladan, O'zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar haqlidirlar, deb mustahkamlab qo'yilgan.

4. Soliqlarning yana bir belgisi ularning davlat yoki mahalliy byudjetga kelib tushishidir, ya'ni soliqlar byudjetdan tashqari fondlar yoki turli xil boshqa fondlarga kelib tushmaydi.

5. Soliqlarga xos bo'lgan umumiy belgilardan biri sifatida davlat hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mulkchilikni qayta taqsimlash jarayonining yuzaga kelishidir. Soddaroq qilib aytganda korxonalar va aholidan olinadigan soliqlar, aslida ular mulkning ma'lum bir qismini davlat hisobiga o'tkazilishini bildiradi. Bu bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga tegishli bo'lgan mulk daromad shaklida majburiy to'lov bo'lib, davlat mulkiga aylanadi.

Soliq kategoriyasi boshqa iqtisodiy kategoriyalar: moliya, kredit, sug'urta, investitsiya kabilar bilan umumiy o'xshashlikka ega, ya'ni ularning barchasi pulli munosabatlarni ifodalaydi. Lekin soliqlarning o'ziga xos yuqorida qayd etilgan belgilari mavjudki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqlash uchun xizmat qiladi.

#### 1.4. Soliqlarning mavjud va amaldagi tamoyillari.

Soliqlarning funksiyasini o'rganish ularning iqtisodiyotdagi rolini ko'rsatib bersa, soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi.

.Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliqqa tortish samarali tizimning quyidagi tamoyillarini ta'riflab o'tish mumkin:

1. Etarlilik tamoyili. Mazkur tamoyilga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo'lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalaridagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlasin.

2. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish. Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni, jumladan, chet el sub'ektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunarlar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirishni, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim.

Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilmasligi hamda xo'jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo'ymasligi lozim.

Ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirishga turlicha yondashuvlar bo'lishi mumkin. Agar soliqlarni to'plangan soliqlar hisobidan ro'yobga chiqariladigan davlat dasturlaridan keyinchalik foyda ko'radigan shaxslar to'lasa, u holda adolatli deb hisoblanadi. Aytaylik, transport vositalariga soliqlardan tushadigan mablag'ni davlat katta yo'llarni ta'mirlashga yoki qurishga sarflasa, bundan soliq to'lovchilarning o'zlari - avtomobil egalari naf ko'radi. Biroq bunday yondashuvni keng miqyosda amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Huquq-tartibotni mustahkamlash, maorifni rivojlantirish, atrof-muhitni qo'riqlashdan aniq ravishda kim ko'proq foyda ko'rishini qanday qilib hisoblab chiqish mumkin? Hatto bepul sog'liqni saqlash dasturlaridan asosan ko'p bolali oilalar, keksa va nochor fuqarolar foydalanishlari aniqlab chiqilgan taqdirda ham ana shu maqsadlar uchun maxsus soliqlarni aynan ularning o'zidan undirishni talab qilish adolatdan bo'ladimi?

Amaliyotda boshqacha yondashuv birmuncha kengroq qo'llaniladi, unga ko'ra to'lov qobiliyati tamoyili asos qilib olinadi: soliq to'lovchining daromadi qanchalik yuqori bo'lsa, undan shuncha ko'p miqdorda soliq undiriladi. Bu gapning ma'nosi shuki, badavlat odamlar bepul maktab maorifi, milliy mudofaa, sog'liqni saqlash va boshqa sohalar uchun bir qadar yuksak iqtisodiy mas'uliyatni his etishlari lozim, chunki ular kambag'allarga nisbatan ko'proq to'lashga qodirdirlar. Boy odamlar bepul davlat dasturlaridan foydalanadilarmi? Agar foydalansalar, bu qay darajada ahamiyatsiz? Aslini olganda, o'ziga to'q kishilar ta'lim berish va xizmat ko'rsatish

yaxshiroq yo'lga qo'yilgan maktab va shifoxonalarni tanlaydilar. Bunday to'lov qobiliyati konsepsiyasi AQSH soliq siyosatida keng tarqalgan.

Biroq amaliyotda soliqqa tortishning mazkur konsepsiyasi tez-tez jiddiy qiyinchiliklarga duch kelib turadi. Yiliga 100 ming dollar daromad oladigan kishi yiliga 10 ming dollar daromad oladigan kishiga nisbatan ko'proq soliq to'lashga qodir, degan fikrga qo'shilish mumkin. Biroq bunda birinchi kishi ikkinchisiga qaraganda aynan necha barobar ko'p soliq to'lash imkoniyatiga ega, degan masala noaniqdir. Badavlat odam o'zining daromadidan o'sha hissani va mutlaq katta summani to'laydimi yoki soliq sifatida umuman ko'proq hissani to'laydimi? Afsuski, aniq bir kishining soliq to'lash imkoniyatlarini o'lchash uchun ilmiy asoslangan qandaydir usullar yo'q. Amaliyotda bunga javob, takliflar va taxminlar empirik yo'l bilan yoki hukumatning daromadlarga bo'lgan joriy ehtiyojlari, siyosiy qarashi asosida paydo bo'ladi.

Soliqqa tortishdagi adolat tamoyili ba'zi hollarda taqsimotdagi ijtimoiy adolat tamoyili ko'rinishida namoyon bo'ladi. SHuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, bu tamoyilni daromadlarni teng ravishda taqsimlash, baravarlantirish deb tushunmaslik kerak. Qonun oldida tenglikka rioya etilishi, ijtimoiy mumtozlikka, irq va dinga munosiblikka asoslangan imtiyozlarning bekor qilinishi, inson asosiy huquqlarga birday ega bo'lishi kabi tenglik tamoyillari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan va bu tamoyillarga qadriyatlarining ijtimoiy tizimiga qat'iy amal qilmoq lozim. Moddiy tenglik, ya'ni daromadlar, mulk, iste'mol sohasidagi tenglik haqida gap ketadigan bo'lsa, aytish kerakki, bunday tenglikka erishib bo'lmaydi. Davlat va jamiyat barcha fuqarolar yaxshi hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari kerak, albatta, soliqqa tortish tizimi esa istiqbolga mo'ljallangan rejada aholining farovonligini umumiy tarzda amalga oshirish orqali jamiyat quyi qatlamlarining ahvoli izchil ravishda yaxshilanib borishiga ko'maklashmog'i zarur.

4. Oddiylik va xolislik. Bu tamoyil soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek soliqlarning eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi..

5. Boshqarishga qulaylik. Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

6. Soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish. Mazkur tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to'g'riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo'llash orqali soliq to'lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliqqa tortish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

7. Soliq stavkalarini qiyoslash. Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya'ni mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo'lgan xo'jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo'yilgudek bo'lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, engil sharoit yaratilsa, mamlakat byudjetiga salbiy ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida esa soliqqa tortish tamoyillari soliq qonunchiligi tamoyillari deb atalib, uning oltita tamoyili (5-modda) belgilab berilgan.

1. Soliq solishning majburiyligi prinsipi;
2. Soliq solishning aniqligi prinsipi;
3. Soliq solishning adolatliligi prinsipi;
4. Soliq tizimining yagonaligi prinsipi;
5. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi prinsipi;
6. Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o'xshashlikka ega va ularni to'liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

## **2-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA UNING SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI. SOLIQ SIYOSATI VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI**

### **REJA**

1. Soliq siyosati tushunchasi va uning huquqiy nazariy asoslari .

2. Soliq tizimini guruhlanishi xamda iqtisodiy mohiyatiga va byudjet yo‘nilishiga ko‘ra bo‘linishi.
3. Soliq tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati .

**Tayanch so‘zlar va iboralar:** soliq strategiyasi, soliq konsepsiyasi, soliq taktikasi, soliq siyosati.

### **Asosiy adabiyotlar berilgan:**

1. SHavkat Mirziyoev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz”- T: “O‘zbekiston” 2016.
2. SHavkat Mirziyoev “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta‘minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” 2016 yil 7 dekabr: T, “O‘zbekiston” 2017.
3. SHavkat Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz”. T., “O‘zbekiston” 2017 .
4. O‘zbekiston Respublikasining Kostitutsiyasi. T. O‘zbekiston, 1992 y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.”Adolat” nashriyoti, 2010 yil.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T:// Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.
7. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. // Xalq so‘zi, 2007 yil 13 fevral.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 30 dekabrdaagi “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1675–son Qarori. Xalq so‘zi gazetasi, yanvar 2016 y.
9. Alimardonov M.I., To‘xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. – T.: O‘zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005.
10. Kochergov D.S., Ustinova E.E. Упроцennaya sistema nalogooblojeniya. - M.: Omega, 2006. - 317 s.
11. Toshmuradova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish: O‘quv qo‘llanma. -T.: TMI, 2005. –158 b.
12. YAhyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik (qayta ishlangan) - T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 bet.
13. Yutkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya: Uchebnik–M.: INFRA-M, 2001.-429 s.
14. Soliq info” ijtimoiy-iqtisodiy gazeta, 2013, 2014, 2015y.y.

15. Ekspress informatsiya. 1- son, Tosh.DSB, 2015y.

16.<http://www.nalog.ru> (Rossiya Federatsiyasi Davlat soliq xizmati sayti).

17.<http://www.soliq.uz> (O‘zR Davlat Soliq Qo‘mitasi sayti).

## 2.1. Soliq siyosati tushunchasi va uning huquqiy nazariy asoslari .

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o‘ynaydi. Ijtimoiy siyosat o‘z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma’rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo‘linadi. Iqtisodiy siyosat ham o‘z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. SHu o‘rinda soliq siyosatining mazmuniga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak (4-slaydga e‘tibor karating): soliq siyosati iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo‘nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o‘rtasidagi nisbatni ta‘minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Prezidentimiz I.A. Karimov soliq siyosati to‘g‘risida quyidagi fikrni bildirgan: «Soliq siyosatining vazifasi - bir tomondan, davlat byudjeti daromadining barqaror safarbarligini ta‘minlashdan, ikkinchidan, korxonalarni respublika uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishga rag‘batlantirishdan iborat»<sup>8</sup>.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 31 avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi Qonuni, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1991 yil 15 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmaganlarning daromad solig‘i to‘g‘risida»gi, 1993 yil 7 maydagi «Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida»gi Qonunlari, 2007 yilda qabul qilingan

<sup>8</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1998. 52-б

va 2008 yilning 01 yanvaridan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida» gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi me‘yoriy hujjatlardan iborat.

Demak, Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni, Prezident Farmonlari, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, va boshqa me‘yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

«O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq, shu kundan e‘tiboran O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi. ko‘rinib turibdi: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to‘lash majburiyati ham kiritilgan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar»<sup>9</sup>.SHuningdek respublikamiz hududida, 8-slaydga qarang:yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolati haqidagi jumlar keltirilgan: «O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqlidir».<sup>10</sup>

Hozirgi paytda respublikamiz soliq siyosatining asosi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda o‘z aksini topayotgan iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyilidir. Soliq siyosati ana shu tamoyillar asosida tashkil etilgan bo‘lib, soliq sohasidagi samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Soliq konsepsiyasi - soliqlarning yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish goyalarining yaxlitligidir. Soliq konsepsiyasi esa soliqlar sohasidagi chuqur ilmiy tadqiqot ishlari hamda soliq amaliyotida orttirilgan boy tajribalarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan g‘oyalar samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi.

SHuningdek, soliq siyosati barqarorligini ta‘minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim.Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e‘tiborga olib soliq siyosati: soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasiga bo‘linadi.

Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi.Bu esa o‘z navbatidailmiy asoslangan soliq konsepsiyasi bilan bevosita

<sup>9</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 1992. 51-модда.

<sup>10</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 1992. 132-модда.



bog‘liqdir. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib erkin, ochiq bozor iqtisodiyotiga, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat byudjeti va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida muayyan uyg‘unlikni ta‘minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir yoki boshqacha qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasi - soliq siyosatining uzoq muddatli yo‘nalishi bo‘lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan ko‘lamli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta‘minlash ko‘zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig‘indisidir

Soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta‘minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi say‘i-harakatlarni bildiradi, ya‘ni qisqa muddatli va kichik ko‘lamli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo‘nalishlar majmuasi - soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.

Soliq siyosati konsepsiyasi soliq siyosati strategiyasiga nisbatan, soliq siyosati strategiyasi esa soliq siyosati taktikasiga nisbatan barqaror, ya‘ni kam o‘zgaruvchan bo‘lib, ularning barchasi bir-biriga bog‘liq holda, bir-birini to‘ldirib turadi hamda yaxlit holda soliq siyosatining mohiyatini tashkil qiladi.

YUqorida qayd qilinganidek, soliq siyosati davlat, ya‘ni uning vakolatli organlari tomonidan olib boriladi. Agar ushbu vakolatli organlar hokimiyat turi nuqtai-nazaridan olib qaraladigan bo‘lsa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linadi. Ayrim hollarda davlatning soliq siyosati Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan olib boriladi, degan fikrlar uchraydi.

Amalda esasoliq siyosati davlat hokimiyatining barcha bo‘g‘inlari: Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining ajralmas qismi sifatida kompleks tarzda amalga oshiriladi.

Bu hokimiyatlar tomonidan soliq siyosati quyidagi tartibda ishlab chiqiladi va uning ijrosi ta‘minlanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan Oliy Majlis tomonidan soliqqa oid va unga bevosita tegishli bo‘lgan qonunlar qabul qilinadi, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi yoki ayrimlari bekor qilinadi. Demak, soliq siyosatining huquqiy negizlari mazkur hokimiyat faoliyati bilan bog‘liqdir.

Ijro hokimiyati bo‘lgan Vazirlar Mahkamasi va uning bo‘linmalari, Davlat Soliq Qo‘mitasi, Moliya Vazirligi, Adliya Vazirligi, Iqtisodiyot Vazirligi, mahalliy hokimiyatlar va boshqa tegishli organlar tomonidan Oliy Majlis tomonidan qonun yo‘li bilan joriy etilgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to‘lovlarning

ishlash mexanizmini ta'minlashga xizmat qiluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar orqali ularning ijrosi ta'minlanadi.

Ijro hokimiyatining bir bo'g'ini hisoblangan Davlat soliq qo'mitasining soliq siyosati ijrosini ta'minlashdagi alohida o'ringa ega. Bundan tashqari, har yilning oxirida kelgusi yil uchun amal qiladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar bo'yicha soliq stavkalarini tasdiqlash, o'zgartirishlar kiritish Prezidentimiz qarori bilan amalga oshiriladi. Bunga misol tarikasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1675-son Qarorini qo'rishimiz mumkin. Xalq so'zi gazetasi, yanvar 2012 yil sonida chop etilgan.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bo'g'inlari bilan birga sud hokimiyatining bo'g'inlari ham alohida ahamiyatga ega. Sud hokimiyati tomonidan qonuniy amal qilayotgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning o'z vaqtida byudjetga kelib tushishi ustidan nazorat o'rnatilib, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda nafaqat alohida olingan muassasalar bevosita qatnashadi, shuningdek uni ishlab chiqishda soliq to'lovchilar qatnashishi mumkin, ya'ni bunda soliq to'lovchilarning o'zlarida soliqlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar, soliqlarni hisoblashni oson va samarali ishlash kabilar taklif sifatida berilishi mumkin.

Qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis) Konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandi va «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga asosan hukumatning taqdimiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilaydi. Vazirlar Mahkamasi Davlat Soliq Qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha rahbar organ hisoblanadi.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi, o'zining mustaqil soliq tizimini shakllantirishni ham taqozo etadi. SHundan kelib chiqib, mustaqillikning dastlabki yillaridan e'tiboran mustaqil soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirila boshlandi va ushbu islohotlarning samarasi o'laroq hozirgi paytga kelib respublikamizda o'ziga xos bo'lgan soliq tizimi shakllantirildi. O'ziga xos bo'lgan soliq tizimining shakllantirilishini soliq siyosatining samarasi sifatida e'tirof etish mumkin.

Mamlakatimizda respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan umumdavlat soliqlari va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishga qaratilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Solik kodeksining 23-moddasiga bilan respublikada 10 ta solik va 5 ta boshqa majburiy to'lovlar joriy etilgan.

Soliklar umubelgilangan tartibda va soddalashtirilgan tartibda to'lanadi.

Soliq kodeksining 23-moddasida Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari kursatilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi.

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) er solig'i;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:  
yagona ijtimoiy to'lov;  
fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;  
byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

2) Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar:

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;

Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar;

3) davlat boji;

4) bojxona to‘lovlari;

5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im.

yagona soliq to‘lovi; yagona er solig‘i; tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq.

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining muhim yo‘nalishlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish, bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta‘minlash, resurs soliqlariga ko‘proq e‘tibor qaratish, soliq tizimining soddaligiga erishish, davlat xarajatlarini optimallashtirish kabilarni qayd etish mumkin.

## 2. Soliq tizimini guruhlanishi xamda iqtisodiy mohiyatiga va byudjet yo‘nilishiga ko‘ra bo‘linishi.

Soliq tizimining asosi bo‘lgan soliqlar o‘ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko‘ra guruhlanadi. Soliqlarning guruhlanishi ularning ob‘ektiga, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar moliyaviy faoliyatiga ta‘sir etishiga, undirilish usullari, paydo bo‘lishiga (sub‘ektiga), byudjetga yo‘naltirilishiga va boshqa belgilariga ko‘ra ularning tasniflanishidir.

Soliqlarni bunday tartibda guruhlarga ajratishdan maqsad ularni taqsimlash tamoyillarini belgilashda, ularning soliq funktsiya va vazifalarini qay darajada bajarayotganligini baholashda, umuman olganda davlat byudjetini doimiy ravishda va muntazam daromadlar bilan ta‘minlashda, shuningdek xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo‘ymasdan faoliyat ko‘rsatishi uchun soliqlarning har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, tahlil qilishdan iborat.

Tarixan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab yoki boshqacha qilib aytganda undirib olish manbasiga qarab ikki guruhga to‘g‘ri va egri soliqlar

guruhlariga bo‘linadi. Soliqlarni belgilaydigan va ulardan tushgan mablag‘ni tasarruf etishiga, ya’ni byudjetga o‘tkazish nuqtai-nazaridan soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqdarga bo‘linadi. SHuningdek, soliqlar paydo bo‘lish manbaiga ko‘ra yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqdarga bo‘linadi. Soliqlarning qayd etilgan guruhlariga ajartib o‘rganishni alohida savol sifatida kengroq yoritishga harakat qilamiz.

Soliqlar soliqqa tortish ob‘ektiga qarab uch guruhga bo‘linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari, yig‘imlari va boshqalar kiradi.

2. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to‘lovchi sub‘ektlar tasarrufida mavjud bo‘lgan mol-mulkdan, erdan va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliqdardan iborat.

3. Daromaddan olinadigan soliqlar. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig‘i, infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, jismoniy shaxslarning daromad solig‘i va boshqalar kiradi.

Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga, to‘lovchi bilan davlatning o‘zaro munosabatlariga bevosita yoki bilvosita bog‘liqligiga ko‘ra to‘g‘ri va egri soliqdarga bo‘linadi. To‘g‘ri soliqlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromadga va mol-mulka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli). Tovarining bahosida to‘lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar egri soliqdarga kiradi. Tovar va xizmatlarning egasi ularni sotishda soliq summalarini olib, ularni davlatga o‘tkazadi.

Egri soliqlar bahoga yoki tarifga ustama sifatida belgilanadigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqdardir. Egri soliqdarga tortishda davlat tovar yoki xizmatlarning sotilishi paytida ushbu qiymatning bir qismiga o‘z huquqlarini da’vo qilish bilan aslida yangi qiymatning taqsimlanishining ishtirokchisi bo‘lib qoladi. Egri soliqlar to‘g‘ri soliqdardan farqli ravishda to‘lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bevosita bog‘liq bo‘lmaydi.

YUqoridagilardan kelib chiqib, xulosa kilganimizda, to‘g‘ri soliqdarni to‘g‘ridan - to‘g‘ri soliq to‘lovchilarning o‘zi to‘laydi, ya’ni soliqning huquqiy va haqiqiy to‘lovchisi xam bitta shaxs hisoblanadi.

Egri soliqlarning huquqiy to'lovchisi mahsulot ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar, haqiqiy to'lovchisi esa iste'molchilar hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan to'g'ri va egri soliqlar tarkibiga quyidagi soliqlar kiradi (1-jadval):

**1- jadval**

<b>To'g'ri soliqlar</b>	<b>Egri soliqlar</b>
<p>1. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'i</p> <p>2. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq</p> <p>3. Er solig'i</p> <p>4. Mol-mulk solig'i</p> <p>5. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq</p> <p>6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.</p> <p>7. Infratuzilmani rivojlantirish solig'i.</p>	<p>1. Qo'shilgan qiymat solig'i</p> <p>2. Aksiz solig'i</p> <p>3. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq</p> <p>4. Bojxona to'lovlari.</p>

YA gona davlat byudjeti daromadlari tarkibida ularning salmog'i yuqori.

YUqoridagi ma'lumotlar tahlil qilinganda yuridik shaxslar soliqlari va boshqa to'lovlari byudjet daromadlarining asosiy qismini tashkil etishi ko'rinadi. Bu soliqlar davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtirishda mustahkamlikni, uzviylikni ta'minlaydi. Bu soliqlarsiz byudjetni rejali moliyalashtirishning iloji yo'qdir. SHuning uchun ularning ahamiyati byudjet daromadlarini shakllantirishda beqiyosdir.

Soliqlarning byudjetga tushishiga ko'ra bo'linishi :

Respublikamizda asosan soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantiradi.

Demak, Davlat byudjeti tizimi mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy hayotini moliyaviy mablag' bilan ta'minlaydi va bu O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimida umumrespublika byudjetining etakchi bo'g'inidir. U umumdavlat resurslarining bir qismi bevosita davlat hokimiyatining ijro etuvchi va farmoyish beruvchi oliy organi - O'zbekiston Respublikasi hukumatida markazlashuvni ta'minlaydi. Markazlashgan resurslar umumdavlat ahamiyatiga

molik bo'lgan, umuman olganda jamiyat manfaatlarini ifodalaydigan tadbirlarni mablag' bilan ta'minlashga ishlatiladi.

Umumrespublika byudjeti orqali milliy daromadni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahriga taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni izga solib turiladi. Davlat umumrespublika byudjetidan davlat byudjetining bu bo'g'ini ijrosi yuzasidan respublikadagi hamma ishlarni muvofiqlashtirish uchun foydalanadi.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlar bilan to'g'ri olib borish imkonini beradi, mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjet daromadlarining ko'payishi va resurslarning tejamkorlik bilan sarflanishi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qiladi, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning yuksalish sur'atlari to'g'ridan-to'g'ri mahalliy xo'jalik zaxiralarini safarbar qilish, mablag'larni tejab ishlatish borasidagi ishlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'ladi, bu esa o'z navbatida umuman O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam beradi. Mahalliy byudjetlardan uy-joy-kommunal xo'jaligi va obodonlashtirish, maorif va sog'liqni saqlash muassasalari (maktablar, kasalxonalar, maktabgacha tarbiya muassasalari va boshqalar), ijtimoiy ta'minot sohasidagi tadbirlar mablag' bilan ta'minlanadi.

Respublikamizda soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantirishiga qarab asosan ikki guruhga bo'linadi:

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23-moddasiga muvofiq umumdavlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Umumdavlat soliqlari har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23 moddasiga muvofiq mahalliy soliqlar va yig'implarga quyidagilar kiradi:

1. mol-mulk solig'i;
2. er solig'i;
3. infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
4. jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
5. ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'implari;
6. yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im.

**Umumdavlat soliqlari asosan respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, mahalliy soliqlar va yig'implar mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi.**

Soliq munosabatlari mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri davlatning mavjudligi bo'lsa, ikkinchi sharti bo'lib soliqlarni to'lashga qobil bo'lgan soliq to'lovchilarning mavjudligidir. O'zbekiston soliqlar tizimi manbaiga qarab soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga ajratiladi.

Soliq kodeksining 16-moddasida yuridik va jismoniy shaxslarga quyidagicha tarif berilgan

Yuridik shaxs deb quyidagilar e'tirof etiladi:

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot;

chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan hamda O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'lgan xorijiy va (yoki) xalqaro tashkilot.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy shaxslar deb e'tirof etiladi.



Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarga daromadga soliq, er, mol-mulk soliqlari kiradi. Huquqiy shaxslardan olinadigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarining hal qiluvchi qismini tashkil etadi. Bu soliqlarning muhim xususiyati naqd pulsiz shaklda korxonalar hisob (joriy) schyotlaridan byudjet schyotlariga ko'chirib qo'yiladi. Uni undirish oson va arzonga tushadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan ba'zi soliqlar naqd pulga undirilganligi uchun uni to'lash qiyin kechadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: 28-slayd-soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni byudjet darajalari o'rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to'lovchilarning huquqlari, majburiyatlari, ular manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari quyidagilardir:

- soliq solish ob'ekti;
- soliq solinadigan baza;
- stavka;
- hisoblab chiqarish tartibi;
- soliq davri;
- soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- to'lash tartibi.

Umuman olganda soliq tizimini tarkiban soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi kabilarga ajratish mumkin. Ushbu elementlar bevosita mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning tarkibini belgilab beradi.

Yuridik shaxslar o'zlariga yuklatilgan soliqlarni hisoblash va byudjetga o'z vaqtida, to'liq to'lash javobgarligini olganlar. Ularning to'laydigan soliqlari asosan naqd pulsiz, ya'ni korxonalar, tashkilot, birlashmaning bankdagi hisob schyotlaridan mablag'ni ko'chirib, respublika yoki mahalliy byudjet schyotlariga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi. Qoida bo'yicha har qanday yuridik shaxs o'z soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan vaqtda byudjetga to'liq o'tkazishga majburdir. Buning uchun ular soliq va boshqa to'lovlarning muddati kelgan kungacha pullarni

o'tkazish hujjatlari bo'lmish to'lov topshirig'i, cheklarni yozib banklarga topshirgan bo'lishlari kerak.

Agar to'lov topshiriqlari o'z muddatida yozilib banklarga topshirilmagan bo'lsa soliq idoralari o'zlarining inkasso-to'lov talabnomalari orqali undirib oladilar. Har bir o'z vaqtida byudjetga o'tkazilmagan kun uchun o'tkazilishi kerak bo'lgan soliq summasi hisobidan penya hisoblanib soliqqa qo'shimcha ravishda byudjetga majburiy undiriladi. Albatta penya summasining ko'payishi korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

SHuning uchun har qanday xo'jalik sub'ektlari hisobchilari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularda belgilangan to'lov muddatigacha o'z vaqtida to'lab borishlari shart

Umuman olganda mamlakatimiz soliq qonunchiligidan kelib chiqib soliqqa tortish nuqtai-nazaridan yuridik shaxslarni shartli ravishda quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

1. umumiy tartibda soliq to'lovchi yuridik shaxslar;
2. mikrofirmalar va kichik korxonalar;
3. qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari;
4. savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
5. tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar.
6. er, mol-mulk solig'ini to'lovchi jismoniy shaxslar.

Umumiy tartibda soliq to'lovchi yuridik shaxslar quyidagi soliqlarni to'laydi:

- Daromad (foyda) solig'i;
- Qo'shilgan qiymat solig'i;
- Aksiz solig'i;
- Mol-mulk solig'i;
- Er solig'i;
- Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

YAgona soliq tizimiga o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar quyidagi soliqlarni to'laydi:

- YAgona soliq to'lovi;
- Aksiz osti tovarlarini ishlab chiqargan holda aksiz solig'i.

YUqorida qayd etilganlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchilar ikki katta guruhga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhiga bo'linadi va ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatidan

kelib tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar katta ahamiyatga egaligini yuqoridagi ma'lumotlardan bevosita ko'rishimiz mumkin.

### **3. Soliq tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati .**

Prezident I.A. Karimov tomonidan, «avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani-fiskal, qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak»,<sup>11</sup> - degan fikr bildirilgan edi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishi bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan qator ilmiy asoslangan soliqlarni joriy etish va shu orqali mavjud soliq tizimini tubdan qayta tashkil etishdan iborat bo'ldi. Soliq siyosatining keyingi yo'nalishi esa joriy etilgan soliqlarning samarali amal qilishini ta'minlash maqsadida soliq munosabatlarini amalga oshiruvchi tegishli muassasalarni tashkil etishga qaratildi. Xususan, dastlab 1992 yilda Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq bosh boshqarmasi tashkil etilgan bo'lsa, 1994 yilga kelib bu boshqarma Davlat Soliq Qo'mitasiga aylantirildi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. DSK, DSBlar, DSIlar.....

Bundan ko'rinadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida soliq siyosatida asosan tashkiliy jihatlariga e'tibor qaratildi, ya'ni soliqlarni joriy etish va soliq siyosatini bevosita amalga oshiruvchi tegishli muassasalar shakllantirildi.

Mustaqillik yillarida soliq tizimi islohoti rivojlanishini yaqqol ko'rsatish uchun shu davrni to'rt bosqichga bo'lib ko'rsatish mumkin. 30-slaydga qarang:

Birinchi bosqich 1991-1994 yillar - O'zbekistonning o'z soliq tizimini tashkil etish va soliqlarning xazinaviy ahamiyatini oshirish bosqichidir.

Soliq islohotlarining ikkinchi bosqichi soliqlarni bozor iqtisodi talablariga moslashtirish va korxonalarining ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratish davridir. Bu davrga 1995 —1997 yillar to'g'ri keladi.

Bu davrda soliqlar ishlab-chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sirini kuchaytirishga bag'ishlandi. Ularga soliqlardan xilma-xil imtiyozlar berildi. Ayniqsa yuridik shaxslarning foydaga (daromad) solig'idan imtiyozlar ko'p edi, 1995 yildan boshlab korxonalar har bir foiz mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirgani uchun 0,3 %dan foydaga soliq stavkasi kamaytirildi.

Soliq islohotining uchinchi bosqichi 1998 yildan 2007 yilning oxirigacha davom etdi. Bu bosqichni soliq tizimida soliqlarni ixchamlashtirish konsepsiyasining boshlanish davri deb atash mumkin.

Bu bosqichda soliq to'lovchi yuridik shaxslarga imkoni boricha soddalashgan, ixchamlashgan soliq tizimi joriy etilib, ularning soliq hisoblari, hisobotlarini, soliq to'lash muddatlari ixchamlashtirildi.

<sup>11</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1998. 358-б.

Ixchamlashtirilgan soliq to'lashga o'tishning huquqiy asoslari qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona er solig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona er solig'ini joriy etish to'g'risida"gi 1998 yil 10 oktyabrdagi PF-2086-son Farmoni bilan 1999 yildan boshlab, kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida"gi qarorga asosan (1998 yil 15 aprel 159—son) 1998 yildan boshlab va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Savdo va ijtimoiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni (1153 — son 10 aprel 1998 yil) bilan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini 1998 yildan boshlab yalpi daromaddan soliq va mulk solig'ini to'laydigan bo'ldi.

Soliq tizimini ixchamlashtirish soliq hisoblovchi xodimlar, davlat soliq idoralari va bank xodimlarining minglab soat vaqtlarini iqtisod qilishga, ularni korxonalar faoliyati tahliliga bag'ishlashga imkoniyat yaratmoqda.

Mustaqillik yillarida soliq tizimini rivojlantirish asta-sekin o'z natijasini berib bormoqda. Kichik korxonalarining mamlakat ichki mahsuloti ishlab chiqarishdagi salmogi ortib bormoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston o'zining mustaqil soliq tizimiga ega bo'ldi va uni takomillashtirish borasida yangi izlanishlar davom etmoqda.

SHuni ta'kidlab o'tish joizki, respublika iqtisodiyotida soliqlarning tutgan muhim o'zni borligini nazarga olgan holda Respublikada olib borilayotgan soliq islohotlariga katta e'tibor berish lozim. Toki bu islohotlar respublikamiz iqtisodiyoti ravnaq topishiga, aholi turmush darajasini ko'tarishga doimo xizmat qilsin.

1997 yil 24 aprelida O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining tasdiqlanishi soliq tizimini isloh qilishning uchinchi bosqichining boshlanishi deb ifodalash mumkin..

Soliq kodeksi amalga kiritilishi bilan soliqqa tortishning barcha asos bo'luvchi me'yorlarini yagona hujjatga jamlash; soliq imtiyozlarini tizimlashtirish; foyda, mol-mulk, qo'shilgan qiymatni hisobga olish va soliqqa tortishning xalqaro tizimini joriy etishga imkon yaratildi.

Uchinchi bosqichda yuridik shaxslarga, birinchi navbatda kichik va o'rta korxonalar uchun soliqqa tortish, hisobga olish va hisobotning soddalashtirilgan tizimi barpo etildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari ixtiyoriy asosda umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig'imlar jamlanmasi o'rniga yagona soliq to'lay boshladilar. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son qarori bilan kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash tartibi tasdiqlandi.

To'rtinchi bosqich 2008 yil 01 yanvardan yani O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini amalda kuchga kiritilishi bilan boshlandi va hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.

Bu bosqichda soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarga imkoni boricha soddalashgan, ixchamlashgan soliq tizimi joriy etilib, ularning soliq hisoblari, hisobotlarini, soliq to'lash muddatlari ixchamlashtirilmokda va soliq yuki muntazam ravishda yildan yilga kamaytirilmokda.

### **3-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ KODEKSI VA UNDAGI MA‘MURCHILIK MASALALARI.**

#### **REJA**

1. Soliq majburiyatlari.
2. Solq nazorati.
3. Soliqqa oid huqqbuzarlik uchun javobgarlik.

**Tayanch so‘zlar va iboralar:** rezidentlar, nerezidentlar, aksiz solig‘i, kameral nazorat, qo‘shilgan qiymat solig‘i, soliq obekti, soliq elementi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. SHavkat Mirziyoev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz”- T: “O‘zbekiston” 2016.
2. SHavkat Mirziyoev “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta’minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” 2016 yil 7 dekabr: T, “O‘zbekiston” 2017.
3. SHavkat Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz”. T., “O‘zbekiston” 2017 .
4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.”Adolat” nashriyoti, 2010 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015yil 30 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1675–son Qarori. Xalq so‘zi gazetasi, yanvar 2016 y.
6. “Soliq info” ijtimoiy-iqtisodiy gazeta, 2013, 2014, 2015y.y.
7. Ekspres informatsiya. 1- son, Tosh.DSB, 2015y.

1. Soliq majburiyatlari.

Soliq majburiyatini bajarishning umumiy qoidalarini ko'rib chikamiz.

Soliq majburiyati. Soliқ to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e'tirof etiladi.

Soliq majburiyatini bajarish Soliқ majburiyatini bajarish uchun soliq to'lovchi:

Soliq Kodeksda belgilangan hollarda davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi;

soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi;

moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lashi shart.

Soliq majburiyatini bajarish bevosita soliq to'lovchi tomonidan amalga oshiriladi, yoki ushbu soliq majburiyatini bajarish boshqa shaxsga notarial ishonchnoma orkali yuklatilishi mumkin.

Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari bo'yicha soliq majburiyati mazkur alohida bo'linmalar tomonidan, agar ularga alohida mol-mulk ajratilgan bo'lsa va ular mustaqil balansga ega bo'lsa, mustaqil ravishda bajariladi.

Soliq solinadigan mol-mulk ishonchli boshqaruvga topshirilganda boshqaruv muassisi bo'lgan soliq to'lovchining soliq majburiyati, agar bu majburiyat unga boshqaruv muassisi tomonidan yuklatilgan bo'lsa, ishonchli boshqaruvchi tomonidan bajarilishi mumkin.

Soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, soliq to'lovchiga nisbatan soliq Kodeksda nazarda tutilgan tartibda uning bajarilishini ta'minlash choralari qo'llaniladi.

**Soliq majburiyatini bajarish muddatlari.** Soliқ majburiyati soliq Kodeksda belgilangan muddatlarda soliq to'lovchi tomonidan bajarilishi kerak.

Soliq to'lovchi soliq majburiyatini muddatidan ilgari bajarishga haqli.

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, yil choragi, oy, o'n kunlik va kun) o'tishi bilan belgilanadi.

Muddatning o'tishi kalendar sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo'yilgan voqea yuz berganidan keyingi kundan boshlanadi. Soliq majburiyati bu majburiyatni bajarish muddatining so'nggi kuni soat yigirma to'rtga qadar bajarilishi kerak.

Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so'nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelib qolsa, shundan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi.

**Soliq majburiyatining tugatilishi.** Jismoniy shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

uning vafot etishi bilan;

uni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirishi bilan.

Yuridik shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

u tugatilganidan keyin;

u qo'shib olish (qo'shib olingan yuridik shaxsga nisbatan), qo'shib yuborish, bo'lish va o'zgartirish orqali qayta tashkil etilganidan keyin.

**Soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati.** Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.

Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli.

Hisob hujjatlari qog'ozda va (yoki) elektron shaklda tuziladi hamda soliq davri tugaganidan keyin besh yil saqlanadi, yani belgilangan soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati tugaguniga qadar saqlanadi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning hisob hujjatlarini saqlash majburiyatlari uning huquqiy vorisi zimmasiga yuklatiladi.

Yuridik shaxs tugatilganda hisob hujjatlari tegishli davlat arxiviga qonun hujjatlaridabelgilangan tartibda topshiriladi.

**Soliq hisoboti tushunchasi.** Soliq hisoboti – bu soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha

hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan hujjat.

**Soliq hisobotini tuzish.** Soliq hisoboti qog‘ozda va (yoki) elektron hujjatga doir talablarga rioya etilgan holda elektron hujjat tarzida tuziladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan imzolanishi kerak, shuningdek agar u yuridik shaxs bo‘lsa, uning muhri bilan tasdiqlanadi. Elektron hujjat tarzida taqdim etilgan soliq hisoboti soliq to‘lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Tadbirkorlik sub’ekti — yuridik shaxs ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, unga soliq davri boshlanganidan to yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tugatish tartib-taomili boshlanganligi haqida xabardor qilingan sanagacha bo‘lgan muddat uchun alohida soliq hisoboti tuziladi.

Soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgarlik soliq to‘lovchining zimmasiga yuklatiladi.

**Soliq hisobotini taqdim etish tartibi.** Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etiladi. Ayrim turdagi soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti ob’ektlar bo‘yicha hisobga qo‘yilgan joy bo‘yicha soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslar soliq deklaratsiyasini yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etadilar.

**Soliq to‘lovchilar soliq hisobotini o‘z xohishlariga ko‘ra quyidagicha taqdim etiladi:**

**shaxsan olib borib berish tartibida;**

**pochta orqali buyurtma xat bilan;**

**telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida.**

Soliq hisobotini davlat soliq xizmati organiga taqdim etish sanasi quyidagilardir:

soliq hisoboti shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etilganda — soliq hisoboti davlat soliq xizmati organi tomonidan qabul qilib olingan sana;

soliq hisoboti pochta orqali buyurtma xat bilan taqdim etilganda — aloqa tashkilotining tamg‘asida ko‘rsatilgan, pochta jo‘natmasi jo‘natilgan sana;



soliq hisoboti elektron hujjat tarzida taqdim etilganda — elektron hujjat davlat soliq xizmati organi tomonidan olingan sana.

Davlat soliq xizmati organi shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etiladigan soliq hisobotini qabul qilib olishni rad etishga haqli emas hamda soliq to'lovchining talabiga binoan soliq hisobotining nusxasiga hisobot qabul qilib olingan sana to'g'risida belgi qo'yishi shart.

Soliq hisoboti telekommunikatsiya aloqa kanallari orqali elektron hujjat tarzida qabul qilib olinganda davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchiga elektron tarzidagi hisobot qabul qilib olinganligi to'g'risida tasdiqnoma yuborishi shart.

Soliq hisoboti dastlabki tarzda kameral nazorat qilinmasdan va uning mazmuni muhokama etilmasdan qabul qilinadi.

Soliq hisoboti quyidagi hollarda davlat soliq xizmati organiga taqdim etilmagan deb hisoblanadi, agar unda:

soliq to'lovchining identifikatsiya raqami ko'rsatilmagan yoki noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa;

soliq davri va (yoki) soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi ko'rsatilmagan bo'lsa;

soliq hisobotini tuzishga doir belgilangan talablar buzilgan bo'lsa.

Belgilanmagan shakldagi soliq hisoboti taqdim etilganda davlat soliq xizmati organi hisobot olingan kundan e'tiboran **uch kun ichida** bu haqda soliq to'lovchiga yozma bildirish yuboradi va aniq fikr-mulohazalarni ko'rsatgan holda uni maromiga etkazish uchun qaytaradi.

Kamchiliklari tuzatilgan soliq hisoboti uni taqdim etishning belgilangan muddati tugaguniga qadar taqdim etilgan taqdirda, soliq to'lovchiga nisbatan javobgarlik choralari qo'llanilmaydi.

**Aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish.** *soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati ichida o'sha davr yuzasidan aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish huquqiga ega.*

Aniqlashtirilgan soliq hisobotida ilgari taqdim etilgan soliq hisobotidagi ma'lumotlar, aniqlashtirilgan ma'lumotlar va ulardagi tafovutlar ko'rsatilishi kerak.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi ilgari taqdim etilgan soliq hisoboti bo'yicha

hisoblab chiqarilgan va to‘langan soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasidan ortiq bo‘lsa, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to‘lovni to‘lash bo‘yicha soliq majburiyatlariga penya hisoblangan holda mazkur tafovut qo‘shiladi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi ilgari taqdim etilgan soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan va to‘langan soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasidan kam bo‘lsa, soliq hisoboti taqdim etilgan kundan e‘tiboran shaxsiy varaqada soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi tafovut miqdoriga kamaytirilganligi aks ettiriladi. Soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar, penyalarning ortiqcha to‘langan summasi hisobga olinadi yoki qaytariladi.

**Soliq hisobotini saqlash muddati.** Soliq hisoboti davlat soliq xizmati organlarida va soliq to‘lovchida soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati mobaynida saqlanadi (5 yil).

### **Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati.**

*Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati deb-soliq to‘lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovni to‘lash, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati hisoblanadi.*

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida etarlicha pul mablag‘lari bo‘lgan taqdirda, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to‘lovni to‘lash uchun bankka to‘lov topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e‘tiboran, soliq yoki boshqa majburiy to‘lov naqd pul mablag‘lari bilan to‘langanda esa pul summasi bankka yoki vakolatli organ kassasiga topshirilgan paytdan e‘tiboran bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasini o‘tkazish uchun to‘lov topshiriqnomasi soliq to‘lovchi tomonidan chaqirib olingan yoki bank tomonidan soliq to‘lovchiga qaytarilgan taqdirda, shuningdek agar soliq to‘lovchi bankka to‘lov topshiriqnomasini taqdim etgan paytda bu soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga qo‘yilgan, qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda bajarilishi lozim bo‘lgan, bajarilmagan talablar mavjud bo‘lsa hamda soliq to‘lovchi barcha talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqda etarlicha pul mablag‘lariga ega bo‘lmasa, soliq yoki boshqa majburiy to‘lov to‘langan deb hisoblanmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash milliy valyutada, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida amalga oshiriladi.

Soliq majburiyatining soliq to'lovchi tomonidan bajarilmaganligi unga nisbatan soliq majburiyatining bajarilishini ta'minlash choralarini qo'llash uchun asos bo'ladi.

Soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshirilgan hollarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati davlat soliq organining yozma talabnomasi olingan sanadan e'tiboran yuzaga keladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek moliyaviy sanksiyalar byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi tartibda o'tkaziladi:

asosiy summa;

hisoblangan penya;

jarimalar.

**Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash hisobi.** Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash hisobi soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuritiladi.

Soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organi bilan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatlari bajarilishiga doir solishtirma dalolatnoma tuzishni talab qilishga haqli. Davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchiga solishtirma dalolatnoma tuzishni rad etishga haqli emas.

**YUridik shaxs tugatilganda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash.** YUridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ixtiyoriy tugatish hollari bundan mustasno, tugatuvchi besh kunlik muddat ichida bu haqda davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda ma'lum qiladi. YUridik shaxsni ixtiyoriy tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bu haqda davlat soliq xizmati organini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor etadi.

YUridik shaxs davlat soliq xizmati organiga tugatish balansini taqdim etish bilan bir vaqtda hisobotlarni hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishi shart.

YUridik shaxs tugatilgan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati ushbu yuridik shaxsning pul mablag'lari, shu jumladan uning mol-mulkini realizatsiya qilishdan olingan pul mablag'lari hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida tugatuvchi tomonidan bajariladi.

Yuridik shaxsni tugatish davrida yuzaga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek penya va jarimalarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati yuzaga kelishiga qarab, belgilangan muddatlarda hamda tartibda bajariladi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning soliq qarzi umidsiz deb e'tirof etiladi.

Agar tugatilayotgan yuridik shaxsda ortiqcha to'langan soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlar summasi bo'lsa, mazkur summalar hisobga olinishi yoki qaytarilishi lozim.

**Soliq to'lovchi vafot etgan, bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan hollarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash.** Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati uning meros qilingan mol-mulkini qabul qilgan merosxo'ri (merosxo'rlari) tomonidan, meros qilingan mol-mulkning qiymati doirasida va merosdagi ulushga mutanosib ravishda, meros qabul qilib olingan kundan e'tiboran bir yildan kechiktirmasdan bajariladi. Vafot etgan jismoniy shaxs to'lashi lozim bo'lgan penya va (yoki) jarimalarni to'lash majburiyati merosxo'rga (merosxo'rlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati summasi meros qilingan mol-mulk qiymatidan ortiq bo'lgan taqdirda, vafot etgan jismoniy shaxsning soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash bo'yicha qarzining qolgan summasi umidsiz qarz deb e'tirof etiladi.

Merosxo'r bo'lmagan taqdirda, vafot etgan jismoniy shaxsning soliq qarzi umidsiz qarz hisoblanadi.

Soliq qarziga ega bo'lgan jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, jismoniy shaxs hisobga qo'yilgan va (yoki) uning mol-mulki turgan joydagi davlat soliq xizmati organi vafot etgan shaxsning merosxo'ri (merosxo'rlari) to'g'risida axborot olingan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida unga (ularga) soliq qarzi borligini ma'lum qilishi shart.

Sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan jismoniy shaxsning soliq qarzi qonun hujjatlariga muvofiq bedarak yo'qolgan shaxsning mol-mulkini boshqarish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan bedarak yo'qolgan shaxsning mol-mulki hisobidan bajariladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati uning vasiysi tomonidan muomalaga layoqatsiz shaxsning mol-mulki hisobidan bajariladi.

Belgilangan tartibda bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning mol-mulki etarli bo‘lmagan (yo‘q bo‘lgan) taqdirda, uning soliq qarzining ko‘rsatilgan mol-mulk qiymatidan ortiq qismi umidsiz qarz deb e‘tirof etiladi.

Jismoniy shaxsning bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligini bekor qilish to‘g‘risida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan yoki jismoniy shaxsni muomalaga layoqatli deb topish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, ilgari hisobdan chiqarilgan soliq qarzining amal qilishi, da’vo qilish muddatidan qat’i nazar, qayta tiklanadi.

Vafot etgan jismoniy shaxsning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash bo‘yicha qarzi umidsiz qarz deb e‘tirof etiladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomalarining, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish to‘g‘risidagi inkasso topshiriqnomalarining banklar tomonidan bajarilishi. Banklar soliq to‘lovchining soliqni va (yoki) boshqa majburiy to‘lovni o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomalarini, shuningdek tegishli vakolatli organning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida undirish to‘g‘risidagi inkasso topshiriqnomalarini belgilangan tartibda bajarishi shart.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summalarini tegishli byudjet yoki davlat maqsadli jamg‘armasining hisobvarag‘iga kiritish soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summalarini o‘tkazish deb e‘tirof etiladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summalarini o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomasi yoki ularni tegishli byudjet yoxud davlat maqsadli jamg‘armasiga undirish to‘g‘risidagi tegishli vakolatli organning inkasso topshiriqnomasi, to‘lov topshiriqnomasi yoki inkasso topshiriqnomasi olinganidan keyingi operatsiya kunidan kechiktirmay bank tomonidan inobatga olingan holda bajariladi. Inkasso topshiriqnomasiga doir bunday operatsiyalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatganlik uchun haq olinmaydi.

Soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bo‘lgan taqdirda, banklar soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summalarini o‘tkazish to‘lov topshiriqnomalarini yoki tegishli vakolatli organning ularni tegishli byudjetga yoki davlat maqsadli jamg‘armalariga undirish to‘g‘risidagi inkasso topshiriqnomalarini bajarishni kechiktirishga haqli emas.

Soliq to‘lovchining hisobvaraqlarida pul mablag‘lari bo‘lmagan yoki ular soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summasini o‘tkazish to‘lov topshiriqnomasini

yoki tegishli vakolatli organning ularni tegishli byudjetga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga undirish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasini bajarish uchun etarli bo'lmagan taqdirda, bunday topshiriqnomalar mazkur hisobvaraqlarga pul mablag'lari kelib tushishiga qarab, har bir shunday kelib tushishdan keyingi operatsiya kundan kechiktirmay qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida bajariladi.

Bankning aybi bilan soliq to'lovchining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini o'tkazish topshiriqnomasi, tegishli vakolatli organning ularni undirish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasi bajarilmagan (bajarilishi kechiktirilgan) taqdirda, bankdan har bir kechiktirilgan kun uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'tkazilmagan summasini 0,5 foizi miqdorida belgilangan tartibda penya undiriladi.

**Soliq qarzini to'lashni kechiktirishning va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lashning umumiy shartlari.** Soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka ega bo'lgan korxonalariga davlat tomonidan yordam ko'rsatish maqsadida to'lash muddatini soliq to'lovchi qarz summasini bir yo'la yoki bosqichma-bosqich to'lagan holda keyinroq muddatga ko'chirishdan iboratdir.

Soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan bir oydan yigirma to'rt oygacha muddatga beriladi.

Oxirgi hisobot sanasidagi holatga ko'ra joriy aktivlar summasining jami 20 foizidan ortiq miqdordagi qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda moliyaviy sanksiyalarni undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran olti oy ichida soliq qarzi oyma-oy bo'lib to'langan holda amalga oshiriladi.

To'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash soliq qarzining hammasiga yoki uning bir qismiga nisbatan amalga oshirilishi mumkin.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha penya hisoblash tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lashning amal qilish davri boshlanishidan e'tiboran to'xtatib turiladi.

Soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**Soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lashning amal qilishini tugatish.** Soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lashning amal qilishi u (ular) berilgan muddat o'tganidan keyin tugaydi.

Soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lashning amal qilishi soliq to'lovchi kechiktirilgan va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lanadigan soliq qarzining jami summasini kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash muddati o'tguniga qadar to'lagan yoki soliq to'lovchi kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash shartlarini buzgan hollarda muddatidan ilgari tugatiladi.

**Soliqning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olish.** *Soliqning byudjetga to'langan hamda to'lash uchun hisoblangan summasi o'rtasidagi, taqdim etilgan soliq hisoboti asosida aniqlanadigan ijobiy farq soliqning ortiqcha to'langan summasi deb e'tirof etiladi.*

Ortiqcha to'langan soliq summasini mazkur soliq turi bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga hisobga olish davlat soliq xizmati organi tomonidan mustaqil ravishda soliq to'lovchining arizasisiz amalga oshiriladi, soliq to'lovchi bu haqda hisobga olish amalga oshirilgan kundan e'tiboran uch kunlik muddatda yozma ravishda xabardor etiladi.

Ortiqcha to'langan soliqni hisobga olish hisobga olishni amalga oshirish to'g'risida davlat soliq xizmati organi tomonidan xulosa taqdim etilgan taqdirda, soliq to'lovchining yozma arizasi asosida tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchi yozma ariza bergan sanadan e'tiboran uch kunlik muddatda hisobga olishni amalga oshirish to'g'risidagi xulosani moliya organlariga taqdim etishi shart.

Soliq to'lovchi soliq hisoboti taqdim etilgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida yozma ariza bermagan taqdirda, davlat soliq xizmati organi tegishli moliya organlariga hisobga olishni amalga oshirish to'g'risida mustaqil ravishda xulosa taqdim etishi mumkin.

Ortiqcha to'langan soliq summasini hisobga olish bu xususda xulosa berilgan sanadan e'tiboran o'n ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Ortiqcha to'langan soliq summasi boshqa soliq to'lovchining soliq qarzini uzish hisobiga hisobga olinishi mumkin emas.

**Ortiqcha to‘langan soliqlar summalarini qaytarish.** Hisobga olish amalga oshirilganidan keyin ortiqcha to‘langan soliqlarning qolgan summasi soliq to‘lovchining bankdagi hisobvarag‘iga pul mablag‘larini o‘tkazish orqali qaytarilishi kerak.

Ortiqcha to‘langan soliq summalarini qaytarish davlat soliq xizmati organi qaytarish uchun soliq to‘lovchining yozma arizasi asosida xulosa taqdim etgan taqdirda, qaytarish to‘g‘risidagi ariza topshirilgan sanadan e‘tiboran o‘ttiz ish kuni ichida tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**Boshqa majburiy to‘lovlarning ortiqcha to‘langan summalarini hisobga olish va qaytarish.** *Boshqa majburiy to‘lovlarning to‘langan va to‘lash uchun hisoblangan summasi o‘rtasidagi ijobiy farq boshqa majburiy to‘lovlarning ortiqcha to‘langan summasi deb e‘tirof etiladi.*

Boshqa majburiy to‘lovlarni hisobga olish hamda qaytarish tegishli vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona to‘lovlarining ortiqcha to‘langan summalarini hisobga olish va qaytarish bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ortiqcha to‘langan boshqa majburiy to‘lovlar summalarini qaytarish ortiqcha to‘langan summa qaysi byudjet yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga o‘tkazilgan bo‘lsa, o‘sha byudjet yoki davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘laridan ularni undirib olish majburiyati zimmasiga yuklatilgan organlar tomonidan amalga oshiriladi.

**Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyatlari bajarilishini ta‘minlash.** *Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha bajarilmagan majburiyatlari bo‘lgan soliq to‘lovchi o‘zining bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari mavjud bo‘lishidan qat‘i nazar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash muddatidan kechiktirmay ularni xizmat ko‘rsatayotgan bankka to‘lash uchun to‘lov topshiriqnomasini taqdim etishi shart.*

*Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyatlari bajarilishini ta‘minlash choralari jumlasiga soliq to‘lovchiga davlat soliq xizmati organi tomonidan uning majburiyatini bajarish zarurligi hamda soliq qarzini majburiy undirish yuzasidan ko‘riladigan choralar to‘g‘risida yuborilgan talabnomasi kiradi.*

**Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma.** *Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yozma shaklda rasmiylashtiriladi.*



*Soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma soliq to'lovchiga yoki uning vakiliga bu talabnomani soliq to'lovchi olganligini va talabnoma olingan sanani tasdiqlovchi usulda topshirilishi lozim.*

*Soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilgan taqdirda, u buyurtma xat topshirilganligi to'g'risidagi kvitansiyada ko'rsatilgan sanada olingan deb hisoblanadi.*

### **Soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnomani bajarish muddatlari.**

*Soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma soliq to'lovchi tomonidan olingan kundan e'tiboran besh kun ichida soliq qarzi uzilmagan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari uni soliq to'lovchining bank hisobvaraqlaridan so'zsiz undirish choralari qo'llaydi.*

*Soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma yuridik shaxs tomonidan olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida yuridik shaxs soliq qarzini uzmagani taqdirda soliq qarzi uzilmay qolaversa, davlat soliq xizmati organlari undiruvni uning debitorlari o'tkazishi lozim bo'lgan summalarga qaratadi.*

*Soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma yuridik shaxs tomonidan olingan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida yuridik shaxs soliq qarzini uzmagani taqdirda soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratadi.*

*Soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma olingan kundan boshlab o'n kun ichida jismoniy shaxs tomonidan bajarilmagan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari soliq qarzini jismoniy shaxsdan undirish to'g'risidagi ariza bilan belgilangan tartibda Fuqorolik sudiga murojaat qiladi.*

**Soliq qarzini majburiy undirish choralari.** *Soliq qarzini majburiy undirish choralari quyidagilar kiradi:*

*soliq qarzini soliq to'lovchining bankdagi hisobvaraqlaridan so'zsiz undirish;*

*undiruvni soliq to'lovchiga uning debitorlari o'tkazishi lozim bo'lgan summalarga qaratish;*

*undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish.*

*Soliq to'lovchi soliq qarzini barcha choralar ko'rilganidan keyin uzmagani taqdirda, davlat soliq xizmati organi uni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etadi.*

Soliq qarzini majburiy undirish choralari jismoniy shaxslarga nisbatan faqat sud tartibida qoʻllaniladi.

Soliq tekshiruvi natijalari boʻyicha qoʻshimcha hisoblangan soliq qarzi summalarini majburiy undirish choralari soliq toʻlovchi tomonidan uning natijalari boʻyicha berilgan shikoyat davriga muvofiq toʻxtatib turiladi.

**Soliq toʻlovchining bankdagi hisobvaraqlaridan soliq qarzini soʻzsiz undirish.** Soliq toʻlovchining bankdagi hisobvaraqlaridan soliq qarzini soʻzsiz undirish, soliq toʻlovchining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaragʻiga xizmat koʻrsatayotgan bankka davlat soliq xizmati organining soliq qarzi summasini tegishli byudjetga yoki davlat maqsadli jamgʻarmasiga oʻtkazish toʻgʻrisidagi *inkasso topshiriqnomasini taqdim etish orqali amalga oshiriladi.*

Xizmat koʻrsatuvchi bank belgisi qoʻyilgan toʻlov topshiriqnomasining nusxasi soliq toʻlovchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, soliq qarzi summasini oʻtkazish toʻgʻrisidagi inkasso topshiriqnomalari soliq qarzi summasini uzish toʻgʻrisidagi talabnomani bajarishning belgilangan muddati oʻtgan kundan eʼtiboran uch ish kuni ichida davlat soliq xizmati organlari tomonidan taqdim etiladi.

Soliq toʻlovchining hisobvaragʻida pul mablagʻlari boʻlmaganligi yoki etarli boʻlmaganligi tufayli davlat soliq xizmati organining inkasso topshiriqnomasi toʻliq yoki qisman bajarilmagan taqdirda, inkasso topshiriqnomasi olingan kundan eʼtiboran uch kunlik muddatda uning nusxasi bankning belgisi qoʻyilib, davlat soliq xizmati organiga va soliq toʻlovchiga yuboriladi. Agar inkasso topshiriqnomasini taqdim etish paytida soliq toʻlovchi soliq qarzining summasini oʻtkazish uchun toʻlov topshiriqnomasini bankka topshirgan boʻlsa, bank taqdim etilgan inkasso topshiriqnomasini soliq toʻlovchining toʻlov topshiriqnomasi nusxasini ilova qilgan holda davlat soliq xizmati organiga qaytaradi.

Soliq qarzi summasini undirish soliq toʻlovchining barcha bank hisobvaraqlarida turgan pul mablagʻlaridan amalga oshiriladi.

**Undiruvni soliq toʻlovchiga uning debitorlaridan oʻtkazilishi lozim boʻlgan summalariga qaratish.** Soliq toʻlovchi debitor bilan oʻzaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasini taqdim etgan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari undiruvni soliq toʻlovchiga *uning debitorlaridan oʻtkazilishi lozim boʻlgan summaga qaratadi.*

Debitorlar oʻzaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomalariga imzo qoʻyishni asossiz rad etgan taqdirda, soliq toʻlovchi bir tomonlama imzolangan

solishtirma dalolatnomalarni debitorlik qarzi mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish huquqiga ega.

Soliq to'lovchi bir tomonlama imzolangan o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasini taqdim etgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining debitoriga uning kreditorlik qarzi borligi haqida imzolash uchun soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan solishtirma dalolatnomani va kreditorlik qarzi mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarning ko'chirma nusxalarini ilova qilgan holda yozma bildirish yuboradi.

Soliq to'lovchining debitori yozma bildirish olingan kundan e'tiboran uch kunlik muddatda o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasini imzolash yoki solishtirma dalolatnomada ko'rsatilgan qarzning mavjud emasligini asoslagan holda rad javobini taqdim etishi shart. Agar soliq to'lovchining debitori tomonidan tan olingan qarz summasi solishtirma dalolatnomada ko'rsatilganidan farq qilsa, debitor xuddi shu muddatda davlat soliq xizmati organiga o'zi tan olgan summani ko'rsatgan holda solishtirma dalolatnomani taqdim etishi shart.

Soliq to'lovchining debitori tomonidan imzolangan o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi kreditorning imzosi mavjud bo'lishidan qat'i nazar, uning kreditori soliq qarzini undiruvni unga qaratishi uchun asos bo'ladi.

Soliq to'lovchi va uning debitori o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma davlat soliq xizmati organi tomonidan yuborilgan sanadan keyin keladigan sanada tuzilgan bo'lishi lozim.

Davlat soliq xizmati organi o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi asosida debitorlarning bank hisobvaraqlariga soliq to'lovchining soliq qarzi summasini soliq to'lovchi oldidagi qarzidan oshmaydigan miqdorda undirish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasini taqdim etadi.

Davlat soliq xizmati organining ushbu moddaga muvofiq taqdim etilgan inkasso topshiriqnomasini bajarish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish.** *Undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish davlat soliq xizmati organining da'vo arizasi asosida sud tartibida amalga oshiriladi.*

Undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish to'g'risidagi da'vo arizasi soliq to'lovchi soliq hisobiga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organining

rahbari yoki rahbar o‘rinbosari tomonidan imzolanadi. Da’vo arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

soliq qarzi borligi to‘g‘risida soliq to‘lovchining mavjud shaxsiy kartochkalaridan ko‘chirma;

soliq to‘lovchining bank hisobvaraqlarida pul mablag‘lari yo‘qligi to‘g‘risidagi bank ma’lumotnomasi;

soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha (bunday tekshiruv o‘tkazilgan taqdirda) soliq qarzi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma;

soliq to‘lovchining oxirgi hisobot davriga doir buxgalteriya balansining ko‘chirma nusxasi, bundan moliyaviy hisobotni taqdim etish muddati hali kelmagan, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar mustasno.

Undiruvni sud qarori asosida soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratish **qonun hujjatlarida** belgilangan tartibda sud ijrochilari tomonidan amalga oshiriladi.

**Umidsiz soliq qarzini hisobdan chiqarish.** Umidsiz soliq qarzini hisobdan chiqarish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **2. Soliq nazorati.**

### **Soliq nazoratining shakllari.**

*Soliq nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:*

*soliq to‘lovchilarni hisobga olish;*

*soliq solish ob‘ektlarini va soliq solish bilan bog‘liq ob‘ektlarni hisobga olish;*

*byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish;*

*kameral nazorat;*

*naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji;*

*soliq tekshiruvlari;*

*fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash;*

*aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish;*

*davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish;*

*boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish.*

**1-Soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni hisobga olish davlat soliq xizmati organi tomonidan har bir soliq to'lovchi bo'yicha hamda u to'layotgan barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha, soliq solish ob'ektlari hamda soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish, shu jumladan elektron shaklda shakllantirish va yuritish orqali amalga oshiriladi.**

Soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi quyidagi tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida shakllantiriladi:

-soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotlar;

-litsenziya va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar beradigan idoralar;

-Ichki ishlar;

-ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ;

-suv resurslarini hisobga oluvchi organ;

-Davlat notarial idoralari;

-er resurslarini hisobga oluvchi va baholovchi idora;

-foydalanishga berilgan er qa'ri uchastkalarining davlat hisobi yuritilishini amalga oshiruvchi va er qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi tashkilot;

-bank idoralari;

-davlat soliq xizmati organlari boshqa manbalardan to'plagan, shu jumladan soliq tekshiruvlari vaqtida to'plagan axborotlar.

**2-Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari hamda zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasi yuklatilgan boshqa davlat organlari**

hamda tashkilotlari byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini yuritishi kerak.

Davlat soliq xizmati organlari byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning, shuningdek penya va jarimalarning hisoblangan hamda to'langan summalarini aks ettirish orqali yuritadi.

Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning har bir turi bo'yicha ochiladi.

**3- Kameral nazorat** soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazoratdir.

*Kameral nazorat soliq to'lovchining huzuriga bormasdan davlat soliq xizmati organi joylashgan erda amalga oshiriladi.*

Agar davlat soliq xizmati organi tomonidan kameral nazorat jarayonida soliq hisobotini to'ldirishda xatoliklarga yo'l qo'yilganligi yoki taqdim etilgan soliq hisobotidagi va davlat soliq xizmati organlaridagi ma'lumotlar o'rtasida ziddiyatlar borligi aniqlansa, bu haqda soliq to'lovchiga tegishli tuzatishlar kiritish talab qilingan holda yozma shaklda xabar qilinadi.

Soliq to'lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish uchun nazarda tutilgan tartibda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tuzatilgan soliq hisobotini yoxud aniqlangan tafovutlarning asosini talabnoma olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda taqdim etishi shart.

**4-** Soliq to'lovchining naqd pul tushumi kelib tushishining **xronometraji** xronometraj o'tkazilgan davrda haqiqatda kelib tushgan naqd pul tushumini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji naqd hisob-kitob asosida tovarlar realizatsiya qiladigan yoki xizmatlar ko'rsatadigan soliq to'lovchi huzurida bevosita tovarlar realizatsiya qilinadigan, xizmatlar ko'rsatiladigan joyda davlat soliq xizmati organi tomonidan o'tkaziladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini amalga oshirish jarayonida tekshiruv o'tkazishga, soliq to'lovchidan biron bir axborot yoki tushuntirishlar talab qilishga, soliq to'lovchiga nisbatan talablar taqdim etishga yoki uning faoliyatiga boshqacha tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Xronometraj natijasi soliq to'lovchini javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi.

5- O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga ruxsat etilgan **Nazorat-kassa mashinalarining** davlat reestri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan tartibda shakllantiriladi.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llashda quyidagilar majburiy hisoblanadi:

1) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasini faoliyat amalga oshirilayotgan joydagi davlat soliq xizmati organlarida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi berilgan holda ro'yxatdan o'tkazish;

2) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalariga texnik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;

3) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining chekini iste'molchiga berish;

4) davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasini tekshirishiga ruxsat etish.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi texnik jihatdan vaqtincha nosoz bo'lgan yoki elektr energiyasi bo'lmagan taqdirda naqd pul bilan hisob-kitob qilishni xaridorlarga kvitansiyalar, chiptalar, talonlar yoki chekka tenglashtirilgan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadigan shakldagi qat'iy hisobdagi boshqa hujjatlarni berish orqali amalga oshirishga yo'l qo'yiladi.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilish tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda davlat soliq xizmati organlari fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarida saqlanayotgan ma'lumotlardan foydalanishga haqli.

6- Tamaki va alkogolli mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda hamda shartlarda aksiz markasi bilan tamg'alanishi kerak, pivo bundan mustasno.

Aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni tamg'alash qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni davlat soliq xizmati organlari va davlat bojxona xizmati organlari amalga oshiradi.

7- Davlat soliq xizmati organlari davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'larining davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

8- Davlat soliq xizmati organlari boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlari ustidan boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq undirib olinishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'z vaqtida o'tkazilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi.

Soliq nazorati amalga oshirilayotganda soliq to'lovchi to'g'risida axborot to'plash, saqlash, undan foydalanish va uni tarqatishga, shuningdek soliq sirini oshkor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

**Soliq nazorati soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish** yo'li bilan amalga oshiriladi.(77-modda)

Davlat soliq xizmati organlari soliq to'lovchilarning hisobini yuritadi. Soliq to'lovchilarning hisobini yuritish ularni hisobga qo'yish va ular to'g'risidagi hisob ma'lumotlarini yuritish orqali amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi hisobga qo'yilayotganda unga soliq to'lovchining identifikatsiya raqami beriladi hamda soliq to'lovchi to'g'risidagi hisobga qo'yish ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestriga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan yuritiladi.

Davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to'lovchiga berilgan identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risidagi guvohnoma yoki soliq to'lovchi bir vaqtning o'zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo'yilgan holda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan taqdirda, davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnoma soliq to'lovchining hisobga qo'yilganligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Soliq to'lovchining **identifikatsiya** raqami (78-modda) muayyan soliq to'lovchi hisobga qo'yilganda unga beriladigan raqamdir.

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami muayyan soliq to'lovchiga bir marta beriladi. Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami o'zgarmaydi va bekor qilinganidan keyin boshqa soliq to'lovchiga berilmaydi.



### **(79-modda) Soliq to'lovchi sifatida quyidagilar hisobga qo'yiladi:**

yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari o'zlari joylashgan erdagi (pochta manzilidagi) davlat soliq xizmati organida;

yuridik shaxsning soliq majburiyatini mustaqil ravishda bajaradigan alohida bo'linmalari — alohida bo'linmaning joylashgan eridagi yoki faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida;

jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organida;

yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari — doimiy muassasaning joylashgan eridagi va (yoki) faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida;

mol-mulk solig'i va er solig'i to'lovchilar bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasining norezidentlari — soliq solish ob'ekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organida.

Soliq to'lovchida u hisobga qo'yilganidan keyin er solig'i yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (jismoniy shaxslar uchun esa mol-mulk solig'i ham) to'lash bo'yicha soliq majburiyati hisobga qo'yilgan joydan tashqarida vujudga kelgan taqdirda, soliq to'lovchi soliq solish ob'ekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organida ob'ekt bo'yicha hisobga turishi lozim.

Soliq tekshiruvi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirishdir.

Soliq tekshiruvi soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) va qisqa muddatli tekshiruv shaklida amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslashdan iboratdir.

Qisqa muddatli tekshiruv soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvidir.

Soliq tekshiruvlari quyidagi turlarga bo‘linadi:

rejali soliq tekshiruvi;

rejadan tashqari soliq tekshiruvi;

muqobil tekshiruv.

Soliq to‘lovchi moliya-xo‘jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvi (taftishi) — tekshiruvlarni amalga oshirishning nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan muvofiqlashtirish rejasi asosida o‘tkaziladigan tekshiruvdir.

Soliq to‘lovchi moliya-xo‘jalik faoliyatining rejadan tashqari soliq tekshiruvi (taftishi) quyidagi hollarda o‘tkaziladigan tekshiruvdir:

yuridik shaxs tugatilayotganda;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlaridan kelib chiquvchi tekshiruvlarni o‘tkazish zarur bo‘lganda;

davlat soliq xizmati organiga soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari soliq to‘lovchi tomonidan buzilganligi hollari haqida qo‘shimcha ma’lumotlar tushganda.

Muqobil tekshiruv — operatsiyalar birligi tufayli o‘zaro bog‘langan va turli soliq to‘lovchilarda bo‘lgan hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruvdir.

Muqobil tekshiruv uchinchi shaxslarga nisbatan, agar soliq tekshiruvlari o‘tkazilayotganda davlat soliq xizmati organida mazkur shaxslar bilan bog‘liq bo‘lgan, soliq to‘lovchi o‘tkazgan operatsiyalar soliq bo‘yicha hisobga olishda to‘g‘ri aks ettirilganligi haqida qo‘shimcha ma’lumot olish zaruriyati kelib chiqsa, o‘tkaziladi.

Qisqa muddatli tekshiruvlar rejadan tashqari soliq tekshiruvi tarzida o‘tkaziladi.

### **Soliq tekshiruvlarining ishtirokchilari:**

1- Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari va soliq to‘lovchi soliq tekshiruvlarining ishtirokchilaridir. Soliq tekshiruvlarida soliq to‘lovchining vakili ishtirok etishi mumkin.

2- soliq tekshiruviga soliq tekshiruvi natijasidan manfaatdor bo‘lmagan ekspert, tarjimon va xolislar jalb etilishi mumkin.

3- O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining a‘zosi bo‘lgan soliq to‘lovchilarning soliq tekshiruvida uning vakillari ishtirok etishga haqli.

**Rejali soliq tekshiruvini o‘tkazish uchun quyidagilar asos bo‘ladi :**

-tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasidan olingan, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bo‘linmasi tomonidan berilgan ko‘chirma. Bunda ko‘chirma uning asliga to‘g‘ri ekanligi ko‘rsatilgan holda tegishli imzo va muhr bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim;

-tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasi asosida davlat soliq xizmati organining tekshiruvni maqsadlari, tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi, tekshiriladigan davr va tekshiruv o‘tkazish muddatlari ko‘rsatilgan buyrug‘i.

### **3. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik.**

**Soliq kodeksni 106-moddasida berilgan:**

Soliq to‘lovchining javobgarlik belgilangan g‘ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e‘tirof etiladi.

Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi o‘n olti yoshdan boshlab vujudga keladi.

**Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortishning umumiy shartlari quyidagilardan iborat.**

Hech kim soliqqa oid huquqbuzarlik uchun Soliq Kodeksda nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo‘yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Hech kim soliqqa oid sodir etilgan aynan bitta huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Agar jismoniy shaxs sodir etgan soliqqa oid huquqbuzarlikda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari bo‘lmasa, bu huquqbuzarlik uchun Soliq Kodeksda nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqadi.

YUridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, uning mansabdor shaxslarini ma‘muriy, jinoiy va boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi.

Soliq to‘lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyatidan ozod etmaydi.

SHaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor hisoblanmaydi (aybdor emaslik prezumtsiyasi). Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o'zining soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikda aybsiz ekanligini isbotlashi shart emas.

Soliq to'lovchi soliqqa oid bir necha huquqbuzarliklar sodir etgan taqdirda, moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbuzarlikka nisbatan alohida-alohida qo'llaniladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan shaxs moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xuddi shunday huquqbuzarlikni takroran sodir etmagan bo'lsa, u moliyaviy sanksiyalarga tortilmagan hisoblanadi.

**Soliq kodeksni 109-moddasida soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikdan ozod qilish holatlari ko'rsatilgan.**

SHaxs soliqqa oid huquqbuzarlik uchun quyidagi holatlardan loaqal bittasi mavjud bo'lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emas:

-soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganligi faktining yo'qligi;

-soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilishida shaxsning aybi yo'qligi.

-soliq to'lovchi soliq tekshiruvi o'tkazilguniga qadar xatoni o'zi tuzatgan taqdirda javobgarlikdan ozod etiladi, penya to'lash bundan mustasno.

**SHaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar va uni javobgarlikka tortish shartlari:**

SHaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

-soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo'lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi;

-soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlari bo'lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda jismoniy shaxs kasallik oqibatida o'z harakatlarini o'zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo'lgan;

-vakolatli organlar yoki ular mansabdor shaxslarining soliqqa oid qonun hujjatlarining qo'llanilishi masalalari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida bergan yozma tushuntirishlari soliq to'lovchi tomonidan bajarilganda.

SHaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

huquqbuzarlik sodir etish vaqtida o'n olti yoshga to'lmagan jismoniy shaxs tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganda;

soliq majburiyatlari bo'yicha da'vo muddatlari tugaganda.

**Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni engillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar mavjud.**

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni engillashtiruvchi holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

-og'ir shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar kechishi oqibatida huquqbuzarlik sodir etish;

-tahdid yoki majburlash ta'sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli huquqbuzarlik sodir etish;

-sud tomonidan javobgarlikni engillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar faqat sud tartibida qo'llaniladi.

Soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar sudga berilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda tadbirkorlik sub'ekti — soliq to'lovchi o'ziga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaganligi uchun jarimalar qo'llanilishidan ozod qilinadi.

Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari:

1. Davlat soliq xizmati organida hisobga turishdan bo'yin tovlash;
2. Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash yoxud tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish);
3. Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish;
4. Buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzish;

5. Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish;

6. Hisobvaraqa-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish;

7. Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilish tartibini buzish;

8. Er uchastkalaridan ularga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarsiz foydalanish.

#### **4-MAVZU: Yuridik shaxslardan olinadigan soliklar.**

##### **REJA**

1. YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, mol-mulk solig'i.

2. YUridik shaxslardan olinadigan resurs soliqlar: er ka'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar, suv solig'i, er solig'i.

3. YUridik shaxslardan olinadigan obodonlashtirish va ijtimoiy infra tuzilmani rivojlantirish solig'i.

4. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi.

Tayanch so'zlar va iboralar: *rezidentlar, yuridik shaxs, norezidentlar, deklaratsiya, fiskal siyosat, bonus, soliq qonunchiligi.*

##### **Asosiy adabiyotlar:**

1. SHavkat Mirziyoev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz"- T: "O'zbekiston" 2016.

2. SHavkat Mirziyoev "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" 2016 yil 7 dekabr: T, "O'zbekiston" 2017.

3. SHavkat Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz". T., "O'zbekiston" 2017 .

4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi."Adolat" nashriyoti, 2010 yil.

2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni. -T.:// Xalq so'zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.

5. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. // Xalq so‘zi, 2007 yil 13 fevral.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 30 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1675–son Qarori. Xalq so‘zi gazetasi, yanvar 2016 y.

7. Alimardonov M.I., To‘xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. – T.: O‘zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005.

8. Kochergov D.S., Ustinova E.E. Uproщennaya sistema nalogooblojeniya. - M.: Omega, 2006. - 317 s.

9. Toshmuradova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish: O‘quv qo‘llanma. -T.: TMI, 2005. –158 b.

10. YAhyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik (qayta ishlangan) - T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 bet.

11. Soliq info” ijtimoiy-iqtisodiy gazeta, 2013, 2014, 2015 y.y.

1. YUridik shaxs tushunchasi va yuridik shaxslarning turlari YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i:

O‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. YUridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.

YUridik shaxslar uyushmalar (ittifoqlar)ga va boshqa birlashmalarga qonunga muvofiq birlashishlari mumkin. YUridik shaxs qonun hujjatlari shuningdek ustav va boshqa ta’sis hujjatlari asosida ish olib boradi. YUridik shaxs o‘zining ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo‘ladi. YUridik shaxsning huquq layoqati u tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uni tugatish yakunlangan paytdan e’tiboran tugatiladi. YUridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanadi. YUridik shaxs qonunda ro‘yxati belgilab qo‘yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug‘ullanishi mumkin. YUridik shaxsning huquqlari qonunda nazar tutilgan hollarda va tartibdagina cheklanishi mumkin. YUridik shaxsning huquqlarini cheklash haqidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

YUridik shaxs ustav asosida yoki ta'sis shartnomasi va ustav asosida yoxud faqat ta'sis shartnomasi asosida ish olib boradi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs shu turdagi tashkilotlar haqidagi nizom asosida ish olib borishi mumkin. YUridik shaxsning ta'sis shartnomasi uning muassislari tomonidan tuziladi, ustavi esa- tasdiqlanadi.

YUridik shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi ma'lumotlar barchaning tanishib chiqishi uchun yuridik shaxslarning ochiq yagona davlat reestriga kiritiladi.

YUridik shaxsni tashkil etishning qonunda belgilab qo'yilgan tartibini buzish yoki uning ta'sis hujjatlari qonunga mos kelmasligi yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazishning rad etilishiga sabab bo'ladi. YUridik shaxsni tashkil etish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan uni ro'yxatdan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish, shuningdek ro'yxatdan o'tkazish muddatini buzish ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

YUridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi.

YUridik shaxs o'zining tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradigan nomiga ega bo'ladi.

YUridik shaxsning joylashgan eri, agar qonunga muvofiq yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy bilan belgilanadi. YUridik shaxs o'zi bilan bo'ladigan aloqa amalga oshiriladigan pochta manziliga ega bo'lishi lozim hamda o'zining pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida vakolatli davlat organlarini xabardor etishi shart. YUridik shaxsning nomi va joylashgan eri (pochta manzili) uning ta'sis hujjatlarida ko'rsatiladi. Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs o'z firma nomiga ega bo'lishi lozim. YUridik shaxs o'z firmasining nomidan mutlaq foydalanish huquqiga egadir.

YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini to'lovchilar:

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;



O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo‘lish manbai O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘lovchilar bo‘lmaydi:

notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganda notijorat tashkilotlar o‘zi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydadan soliq to‘lovchi bo‘ladi;

soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

**Soliq solish ob’ekti.** Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining ob’ekti quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi;

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining ushbu bo‘limga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to‘lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.

**Soliq solinadigan baza.** Soliq solinadigan baza jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

O‘tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davriga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan zararlar mavjud bo‘lsa, soliq solinadigan baza taqsimlab o‘tkaziladigan zararlar summasiga kamaytiriladi.

Moliya yilida soliq solinadigan daromadga (foyda) ega bo‘lgan yuridik shaxslar daromad (foyda) solig‘i to‘lovchilar hisoblanadi.

Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim tarmoqlar yuridik shaxslarining birlashmalari byudjet bilan hisob-kitoblarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin.

Jami daromad bilan soliq qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan daromad (foyda) soliq solish ob'ektidir.

Ustav fondiga qo'shilgan, umumiy vazifalarni hal etish uchun birlashtirilgan badallar, paylar va aniq maqsadga qaratilgan boshqa moliyaviy mablag'lar (kapital) ana shu vazifalarni hal etish uchun maxsus tuzilgan yuridik shaxsning daromadlari hisoblanmaydi va soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

**Jami daromadga quyidagilar kiradi:**

1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan keladigan tushum;

2) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qogozlar, intellektual mulk ob'ektlari, materiallar va boshqa aktivlarni realizatsiya qilishdan keladigan daromad;

3) foizlar ko'rinishidagi daromadlar;

4) dividendlar;

5) boshqa shaxslardan bepul olingan mol-mulk;

Olingan grantlar daromad sifatida qaralmaydi. Grant deganda korxonaga davlat (hukumat), shuningdek nohukumat, xorijiy, xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar tomonidan ijtimoiy ahamiyatdagi maqsadlarda, iqtisodiyotni rivojlantirishni rag'batlantirish, ilmiy-texnik va innovatsiya dasturlarini bajarish uchun bepul, gumanitar pul ko'rinishidagi yoki moddiy-texnik yordam tushuniladi. Grant mablag'laridan qat'iyan maqsadga muvofiq foydalaniladi.

6) mol-mulkni ijaraga (lizingga) berishdan keladigan daromad;

7) royalti;

8) tekin moliyaviy yordam (davlat byudjetidan berilgan subsidiyalar bundan mustasno);

9) da'vo muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik va deponent qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

10) ilgari chegirib tashlangan xarajatlar, zararlar yoki shubxali qarzlarning o'rnini qoplash tariqasida olingan daromadlar;

11) valyuta hisobvaraqlaridagi kurs bo'yicha musbat farq;

12) favqulodda daromadlar;

13) boshqa daromadlar.

14) Soliq to'lovchining qiymati chet el valyutasida ifodalangan daromatlari milliy valyutada olingan daromadlar bilan jamlangan holda, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

### **Yuridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar:**

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod qilinadi:

1) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minlash-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqini belgilayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda turgan xodimlar kiritiladi;

2) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;

3) jazoni ijro etish muassasalari;

4) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:

1) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;

2) shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi;

3) tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

4) investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yoʻnaltiriladigan foydasi;

5) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamgʻarib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablagʻlardan foydalanishdan olingan foydasi.

Ishlovchilari umumiy sonining 3 foizidan koʻprogʻini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi summasi ushbu qismda belgilangan normadan ortiq ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻining summasi bir foiz kamaytiriladigan hisob-kitob asosida kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

1) ekologiya, sogʻlomlashtirish va xayriya jamgʻarmalari, madaniyat, xalq taʼlimi, sogʻliqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning bir foizidan koʻp boʻlmagan miqdorda;

2) Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlari, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya taʼlim muassasalari qurilishiga yoʻnaltirilgan mablagʻlar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan koʻp boʻlmagan miqdorda;

3) asosiy ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga yoʻnaltiriladigan mablagʻlar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan koʻp boʻlmagan miqdorda;

4) ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihozlar xarid qilishga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga, lizing obʼekti qiymatining oʻrnini qoplashga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirgan holda yoʻnaltiriladigan mablagʻlar summasiga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida koʻrsatib oʻtilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan eʼtiboran, texnologik jihozlar boʻyicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan eʼtiboran uch yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologiya jihozlari ular olingan (import qilingan) paytdan eʼtiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki

tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi foydadan olinadigan soliqni to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda, imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi;

5) yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

6) diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya jamg'armalarining mulkida bo'lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg'armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan ajratmalari summasiga.

Banklarning soliq solinadigan foydasi jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari, plastik kartochkalar bo'yicha omonatlar hamda joylashtirilgan jamg'arma sertifikatlari hajmlarining ko'paygan summasiga bo'shagan mablag'larni yuqorida ko'rsatilgan omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan kamaytiriladi.

### **YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini to'lash tartibi**

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar ortib boruvchi yakun bilan chiqarilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni, agar qonun hujjatlarida boshqa tartib belgilanmagan bo'lsa, soliq ro'yxatidan o'tgan joydagi soliq organlariga yil choraklariga oid va yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlarida topshiradilar.

**Soliq davri. Hisobot davri.** Kalendar yil soliq davridir.

Yilning choragi hisobot davridir.

**Soliqni hisoblab chiqarish va hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi.**

YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarish hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobi, agar ushbu moddada boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan

keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi hisobotni (erkin shaklda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobini chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun yillik moliyaviy hisobotni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Bunda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobida byudjetga to'lanadigan sof foydadan olinadigan soliq summasi alohida satrda ko'rsatiladi. Faoliyat kalendar yil tugashidan avval tugatilgan taqdirda, bu hujjatlar faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmasdan taqdim etilishi shart.

**Soliq to'lash tartibi.** Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi haqida ma'lumotnoma taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 15-kuniga qadar hisoblab chiqarilgan yil choragi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarni to'lamaydi.

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi hisobot davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini, shuningdek sof foydadan olinadigan soliqni joriy to'lovlarni to'lamasdan yiliga bir marta, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan keyin bir oy ichida to'laydi.

### **Qo'shilgan qiymat solig'i.**

Davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'i bilan to'ldirish g'oyasi XX asr boshlarida vujudga kelgan. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor Germaniyada 1919 yilda *Vilhelm fon Siemens* tomonidan «Veredelte Umsatzsteuer» nemischa mukammallashgan aylanma soliq nomi bilan joriy etilgan. Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954 yilda taklif qilingan va 1960 yilda Kot-d-Ivuar Respublikasi joriy etilib, ushbu mamlakat soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan<sup>12</sup>.

Dunyo mamlakatlarida qo'shilgan qiymat solig'i undirish tartibi dastlab 1954 yilda fransuz iqtisodchisi M.Lore tomonidan tavsiya etilgan, bu soliq turi bilan bog'liq fikrlar XX asrning boshlarida vujudga kelgan va jahonning 48 dan ortiq mamlakatlarida joriy etilgan.

Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi davlatlarida 1992 yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i 1992 yilda joriy etilgan bo'lib, bu soliqni huquqiy tartibga soluvchi soliq qonunchiligi hujjati bo'lib 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi qonun va unga muvofiq ishlab chiqilgan

Qo'shilgan qiymat solig'i egri (bilvosita) soliq bo'lib, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish, sotish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga ajratilishidir.

### **Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar quyidagilardir:**

1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa;

<sup>12</sup>Тошматов Ш.А., Комилов А.А. Қўшилган қиймат солиғи. Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси.-Т.:2004. 16-бет.

2) O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

3) tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o‘z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno;

4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yuridik shaxs;

Quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar hisoblanmaydi:

notijorat tashkilotlar, bundan tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlarimustasno;

soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

#### **QKS solish ob‘ekti quyidagilardir:**

soliq solinadigan oborot;

soliq solinadigan import.

#### **Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish**

**Imtiyozlar. Qo‘shilgan qiymat solig‘idan quyidagi realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:**

1) davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan, davlat boji va yig‘imlar undiriladigan xizmatlar (harakatlar);

2) maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;

3) bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

4) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o‘tkazishga doir xizmatlari;

5) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo‘ljallangan inventarlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya



qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek nogironlarga ko'rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlarni ta'mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo'yicha xizmatlar;

6) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

7) pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;

8) aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari;

9) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining byudjetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi asosdir;

10) shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari. SHahar yo'lovchilar transportining xizmatlari jumlasiga yo'lovchilar tashish bo'yicha avtomobil va elektr transporti bilan shahar doirasida muayyan yo'nalishlar bo'yicha qatnov jadvaliga binoan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi. Ushbu bandning qoidalari umumiy foydalanishdagi shahar yo'lovchilar tashish transporti yoki temir yo'l va avtomobil transportida xodimlarni ishdan va (yoki) ishga tashish bo'yicha xizmatlarga, yuridik va jismoniy shaxslar buyurtmalari asosida shahar atrofida tadbirlar o'tkazish uchun tashish bo'yicha xizmatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi;

11) oliy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida, shuningdek kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ta'lim berishning haq evaziga o'qitishga doir qismi bo'yicha xizmatlar;

12) qimmatbaho metallarni vakolatli davlat organiga saqlab turish uchun topshirish va ularning eksporti»;

13) tibbiy (veterinariya) xizmatlari (kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno), dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya

qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar. Ushbu bandning qoidalarini qo'llash maqsadlarida:

tibbiy xizmatlar jumlasiga tibbiy yordam xizmatlari va sanitariya xizmati ko'rsatish, diagnostika, profilaktika va davolash xizmatlari, gomeopatik, stomatologik xizmatlar, tish protezlari tayyorlash bo'limlari va kabinetlari, narkologiya ambulatoriyalari, haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish komissiyalari, dezinfeksiya stansiyalari, sanitariya va epidemiyaga qarshi kurash yo'nalishidagi laboratoriyalar hamda bo'linmalar, boshqa tibbiy hamda tibbiy-sanitariya yo'nalishidagi muassasalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi;

veterinariya xizmatlari jumlasiga hayvonlarni (chorva mollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar, asalarilarni, hayvonot bog'laridagi, tajribaxonalardagi va boshqa shu kabilardagi jonivorlarni) kasalliklardan muhofaza qilish va ularni davolash, ishlab chiqarish va aholining yaxshi sifatli chorvachilik mahsulotiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, odamlarning hayvonlarga va insonga xos kasalliklarga chalinishining oldini olish, shuningdek atrof muhitni muhofaza qilishning veterinariya-sanitariya muammolarini hal etish tadbirlari kiradi;

14) chet el havo kemalariga xizmat ko'rsatish yuzasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati;

15) sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari va bolalar dam olish oromgohlarining xizmatlari, shuningdek jismoniy tarbiya va sport muassasalarining tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlari;

16) davlat mulkini xususiylashtirish tartibida realizatsiya qilinayotgan mol-mulk;

17) gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

18) geologiya va topografiya ishlari;

19) bosma mahsulotlar, shuningdek bosma mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish bilan bog'liq tahririy, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari);

20) O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O‘zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

21) O‘zbekiston Respublikasi hududidan eksport qilinayotgan tovarlarni tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ekspeditsiya qilishga doir xizmatlar, ishlar;

22) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo‘lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), bundan vositachilik, savdo, tayyorlov, ta‘minot-sotish faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha realizatsiya qilish oborotlari mustasno;

23) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

24) uy-joy fondini saqlash va ta‘mirlash yuzasidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta‘mirlash yuzasidan ko‘rsatiladigan xizmatlar jumlasiga sanitariya tozalash, lift xo‘jaliklari, umumiy foydalanishdagi antennalarni o‘rnatish hamda ularni tasarruf etish bo‘yicha xo‘jaliklar, er resurslari va davlat kadastr, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta‘mirlash boshqarmalari hamda bo‘limlarining bevosita aholi tomonidan haq to‘lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari orqali haq to‘lash kiradi;

25) aholini elektr energiyasi bilan ta‘minlash;

26) vakolatli davlat organining ixtisoslashgan ekspertiza bo‘linmalari o‘tkazadigan ekologik ekspertiza xizmatlari;

27) davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o‘rgatish xizmatlari;

28) o‘zi etishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti;

29) ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlov bo‘linmalari xizmatlari;

30) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali sifatida beriladigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish ob’ektlari;

31) byudjet mablagʻlari hisobidan bajariladigan er-kadastr, er tuzish, tuproq va geobotanika ishlari;

32) davlat rezervining tovar-moddiy zaxiralari, ular yangilanayotganda;

33) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnika vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat koʻrsatishga doir xizmatlar;

34) investor va davlat mulkini boshqarish boʻyicha vakolatli davlat organi oʻrtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida topshirilayotgan mol-mulk;

35) kitob mahsulotlari, maktab oʻquv qurollari va koʻrgazmali qoʻllanmalarining, dori vositalari va tibbiyot buyumlarining ulgurji savdosi.

***Kalendar yil QKSni soliq davridir.***

***Hisobot davri quyidagilardir:***

qoʻshilgan qiymat soligʻi toʻlaydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq toʻlovchilar uchun — bir oy.

**Soliqni hisoblab chiqarish tartibi:**

Soliq solinadigan oborotlar boʻyicha qoʻshilgan qiymat soligʻi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalaridan (20%) kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetga toʻlanishi lozim boʻlgan qoʻshilgan qiymat soligʻi soliq solinadigan oborot boʻyicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinadigan soliq summasi oʻrtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Tovarlarni import qilish boʻyicha qoʻshilgan qiymat soligʻining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

**Soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi.** Qoʻshilgan qiymat soligʻining hisob-kitobi soliq boʻyicha hisobda turgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

qoʻshilgan qiymat soligʻi toʻlovchisi boʻlgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot davridan keyingi oying

25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitoblari bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraƒ-fakturalar reestri taqdim etiladi. Hisobvaraƒ-fakturalar reestrining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

**Soliq to'lash tartibi.** Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash hisob-kitoblarini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aksiz solig'i.

Aksiz solig'ini to'lovchilar. Aksizlanadigan tovarlar ishlab chiqaradigan, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, yuridik va jismoniy shaxslar aksiz solig'i to'lovchilari hisoblanadi.

Aksiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;

oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, odiy shirkat shartnomasining odiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

Aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan aksiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

Aksiz solig'i bilvosita soliq ko'rinishida byudjetga kiritiladigan (olinadigan), narxda va qo'shilgan qiymat solig'i solish bazasida hisobga olinadigan sof daromadning bir qismidir. Aksiz solig'i stavkalari va aksizlanadigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi hamda belgilangan tartibda soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan etkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aksiz to'lanadigan tovarlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga ko'ra ro'yxatlar va stavkalar bo'yicha aksiz solig'i solinadi.

**Quyidagi operatsiyalar aksiz solig'i solinadigan ob'ektdir:**

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:

tovarni sotish (jo'natish);

garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish;

aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish;

aksiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish;

aksiz to'lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun topshirish;

2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;

3) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-

mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek ulush qo'shish asosida xom ashyo va materiallarni, shu jumladan aksiz to'lanadigan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;

6) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

#### **Imtiyoz. Quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi:**

a) aksizlanadigan tovarlarni eksportga etkazib berish, bundan ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim tovarlar mustasno;

b) salomas va "O'zbekiston" yog'ini ishlab chiqarishda foydalaniladigan paxta yog'ini etkazib berish;

v) xalq ta'limi va sog'liqni saqlash tizimining ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan maxsus mebel.

Imtiyozlar taqdim etish uchun maxsus mebel deganda: davlat va nodavlat ta'lim va tibbiyot muassasalarini jihozlash uchun; bo'ysunishdagi ta'minot-sotish tashkilotlariga ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini jihozlash uchun sotiladigan mebel tushuniladi.

Mazkur imtiyoz ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini jihozlash uchun maxsus mebelni xarid qilishga tuzilgan kontraktlar (shartnomalar) mavjud bo'lganida taqdim etiladi.

Mazkur mebel boshqa iste'molchilarga sotilganda unga umumbelgilangan tartibda soliq solinadi.

**Hisob-kitobni taqdim etish tartibi.** Aksiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

aksiz solig'i to'lovchilar bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

### **Soliq to'lash tartibi**

Hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i summasi byudjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay — joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;

joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay — joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;

kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay — hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

### **Aksiz to'lanadigan tovarlarni aksiz markalari bilan tamg'alash.**

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lovchilari:

Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilardir.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulk bo'lgan va o'z majburiyatlari



bo'yicha mol-mulki bilan javob beradigan, shu jumladan mustaqil balans va hisob-kitob varag'iga ega alohida bo'linmalar tushuniladi.

Soliq solishning alohida tartibi o'rnatilgan ayrim toifadagi to'lovchilarga, agarda ularda qonun hujjatlariga muvofiq mol-mulk solig'ini to'lash bo'yicha majburiyatlar vujudga kelmasa, tatbiq etilmaydi.

Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar faoliyatning asosiy turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va qonun hujjatlariga muvofiq mol-mulk solig'ini to'lashlari zarur.

**Imtiyozlar.** Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi:

1) uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlarining. Uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlariga quyidagilar kiradi: uy-joy fondi, vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan asbob-uskunalar);

2) madaniyat va san'at, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlarining;

3) yuridik shaxslarning madaniyat muassasalari, maktabgacha va umumta'lim o'quv muassasalari ehtiyojlari uchun foydalaniladigan mol-mulkining;

4) qishloq xo'jaligi (o'simlikshunoslik, chorvachilik, baliqchilik) mahsulotlarini etishtirish va saqlash uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalarida balansida bo'lgan mol-mulkning;

5) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari ob'ektlarining;

6) aloqa yo'ldoshlarining;

7) kredit hisobidan olingan asbob-uskunaning, uni foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yilga, lekin kreditni uzish uchun belgilanganidan ko'p bo'lmagan muddatga;

8) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlarning. Ob'ektlarni tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari uchun foydalaniladigan ob'ektlarga kiritish tabiatni muhofaza qilish organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

9) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ushbu ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;

10) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

11) lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga;

12) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlarning;

13) shahar va shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan shahar yo'lovchilar transporti tashkilotlari transport vositalarining (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poezdlari);

14) tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskunalarining (foydalanish davriga);

15) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining;

16) ishlab chiqarishga yangi joriy etilgan yangi texnologik jihozlarning, besh yillik muddatga. Yangi texnologik jihozlar olingan (import qilingan) paytdan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki bepul berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi mol-mulk solig'ini to'lash majburiyatlari imtiyoz qo'llaniladigan butun davr uchun tiklangan holda, bekor qilinadi.

**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:**

1) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, madaniyat va san'at tashkilotlari;

2) uy-joy-kommunal xo‘jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo‘jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo‘jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash hamda undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya tozalash va yig‘ishtirish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, shaharlar hamda shaharchalarni tashqi yoritish, vodoprovod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoqlardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va suvni taqsimlash, kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari bilan), gaz taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish hamda gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunal-maishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo‘jalik boshqarmalari, o‘t o‘chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo‘jaligining xo‘jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo‘jaligi va shahar xo‘jaligining umumfuqaroviy ahamiyatga molik boshqa korxonalari kiradi;

3) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo‘lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta‘minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo‘lgan xodimlar kiritiladi;

4) yangi tashkil etilgan korxonalar — davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e‘tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz tugatilgan (qayta tashkil etilgan) korxonalarining ularga qarashli alohida va tarkibiy bo‘linmalarining ishlab chiqarish quvvatlari hamda asosiy fondlari negizida tashkil etilgan korxonalariga, shuningdek korxonalar huzurida tashkil etilgan yuridik shaxslarga nisbatan, agar mazkur yuridik shaxslar ushbu korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalarda ishlayotgan bo‘lsa, qo‘llanilmaydi;

5) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub‘ektlarini — yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e‘tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo‘llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun to‘liq miqdorda undiriladi.

## **YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davri. Hisobot davri.**

Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

**Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi.** YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchi — O‘zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan 3.5% stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar har oyda joriy to‘lovlarni to‘laydilar, mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno. Joriy to‘lovlar summasi tegishli yil uchun mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o‘rtacha yillik qiymatdan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida belgilanadi. Joriy to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga belgilangan shakldagi ma‘lumotnomani joriy yilning 20 yanvarigacha taqdim etadi.

YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Byudjetga joriy to‘lovlarni to‘lash har oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

To‘lanishi lozim bo‘lgan, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitoblarni topshirish uchun belgilangan kundan kechiktirmay byudjetga o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti yuridik shaxslarning

mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchi sifatida O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organida hisobda turishi shart. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish uchun O'zbekiston Respublikasining norezidenti hisobot yilidan keyingi yilning 25 yanvarigacha doimiy muassasaning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga mavjud soliq solinadigan mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi. Taqdim etilgan ma'lumotnoma asosida davlat soliq xizmati organi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitobini o'n kun ichida amalga oshiradi va to'lov xabarnomasini yozadi;

O'zbekiston Respublikasi hududida ko'chmas mulkka ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari ko'chmas mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin o'ttiz kun ichida mustaqil ravishda yoxud o'zining vakolatli vakili orqali O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchi sifatida hisobga turishlari shart. O'zbekiston Respublikasining ko'chmas mulk joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organi O'zbekiston Respublikasining norezidentiga yoki uning vakiliga soliq to'lovchidan yoki ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organdan olingan ma'lumotlar asosida to'lov xabarnomasi yozadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmasdan to'lanishi kerak.

## **2. Yuridik shaxslardan olinadigan resurs soliqlar: er**

*qa'ridan foydalanuvchilar to'laydigan soliqlar va maxsus to'lovlar, suv solig'i, er solig'i.*

*Er qa'ridan foydalanuvchilar to'laydigan soliqlar va maxsus to'lovlar:*

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni amalga oshirayotgan va (yoki) foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida er qa'ridan foydalanuvchilardir.

**Er qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:**

er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

qo'shimcha foyda solig'i;

bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

**Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar quyidagilardir:**

er qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olayotgan er qa'ridan foydalanuvchilar;

foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan er qa'ridan foydalanuvchilar.

**Soliq solish ob'ekti.** Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ektidir. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul berish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

Soliq solish ob'ekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Uglevodorodlar uchun soliq solish ob'ekti quyidagilardir:

sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan qo'shib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kavlab olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar.

Qatlamdagi bosimni saqlab turish va gaz kondensatini tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va

qimmatbaho toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish ob'ektidir.

Quyidagilar ham qattiq foydali qazilmalar bo'yicha soliq solish ob'ektidir:

kavlab olingan va (yoki) ajratib olingan, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qattiq foydali qazilmalar;

qayta ishlovchi korxonalar tomonidan qayta ishlash jarayonida ajratib olingan foydali qazilmalar.

Soliq to'lovchilarga berilgan er uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**Soliq solinadigan baza.** Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun, kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Hisobot davrida tayyor mahsulot realizatsiya qilinmagan bo'lsa, soliq solinadigan baza realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida tayyor mahsulotni realizatsiya qilishning o'rtacha olingan bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni kavlab olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o'rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Tayyor mahsulot tannarxidan past bahoda realizatsiya qilingan yoki topshirilgan taqdirda o'rtacha olingan bahoni hisob-kitob qilish uchun tannarx qabul qilinadi, lekin u deklaratsiya qilinayotgan baholardan yuqori bo'lmasligi kerak.

Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lgan yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

### **Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq davri. Hisobot davri.**

Kalendar yil soliq davridir.

Hisobot davri quyidagilardir:

mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun — bir oy;

jismoniy shaxslar uchun — kalendar yil.

**Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi.** Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

jismoniy shaxslar tomonidan — yilda bir marta, keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.



Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq.

Suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari:

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardir:

yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;

faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;

tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;

yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv etkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchidir.

Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar bo'lmaydi:

notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, ushbu bo'limda nazarda tutilgan tartibda tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan suv hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchi bo'ladi;

soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

**Suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti.**

Er usti va er osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish ob'ektidir.

Suv resurslarining er usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, er ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Suv resurslarining er osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

**Soliq solinadigan baza.** Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan bazadir.

**Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi.** Suv resurslarining er usti va er osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lhagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lhagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suvdan foydalanish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar er usti va er osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadilar. Suv resurslarining er usti va er osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmoqlaridagi suvdan foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv etkazib beruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining er usti va er osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 fevraliga qadar taqdim etishlari kerak. Davlat soliq xizmati organlari bu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga etkazishi lozim.

Soliq to'lovchi issiq suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq solinadigan bazani ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraga topshirilganda soliq solinadigan baza suv etkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida joylarni ijaraga olgan va suv etkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq solinadigan bazani mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv etkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmi farqini solishtiruv amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

Yagona er solig'i to'lovchilari bo'lmagan qishloq xo'jaligi korxonalarini soliq solinadigan bazani soliq davrida bir gektar sug'oriladigan erlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun soliq solinadigan baza davlat soliq xizmati organlari tomonidan aniqlanadi.

### **Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:**

1) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

2) suv uchun byudjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

3) birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar — tadbirkorlik sub'ektlari — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

Ixtiyoriy ravishda tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:

1) sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan er osti mineral suvlari hajmiga, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

2) dori vositalarini tayyorlash uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

3) atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan er osti suvlari hajmiga, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi bundan mustasno;

4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun er qa'riga qaytarib quyiladigan er osti suvlari hajmiga, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

5) gidroelektr stansiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

6) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan erlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning davri:** Kalendar yil.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisobot davri quyidagilardir:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan solig'ining umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar (mikrofirmalar va kichik korxonalar) tashqari) uchun — bir oy;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan solig'ining umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar va kichik korxonalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun — yil choragi;

qishloq xo‘jaligi korxonalari va yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari uchun — kalendar yil.

**Soliqni hisoblab chiqarish tartibi.** Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan ko‘pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo‘jaligi korxonalari, mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno) — har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunigacha;

2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

3) yagona er solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan — yilda bir marta hisobot davrining 15 dekabrigacha;

4) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — yilning har choragida yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisobot davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

**Soliq to‘lash tartibi quyidagicha:**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashni to'lovchilar tomonidan suvdan foydalanish joyida hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari bundan mustasno.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar joriy yilning 15 yanvarigacha suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi yozma bildirishni belgilangan limitdan kelib chiqqan holda yoki suv etkazib berish shartnomasiga muvofiq har oyda yoki yilning har choragida erkin shaklda taqdim etadilar, qishloq xo'jaligi korxonalari bundan mustasno.

### **Er solig'i.**

Er uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to'lovlar er solig'i yoki er uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan er uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi er solig'iga tenglashtiriladi. Er uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan er solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida foydalaniladigan er uchastkalari uchun er solig'i to'laydilar.

### **Er solig'ining to'lovchilari:**

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida er uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari er solig'ini to'lovchilaridir.

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi er solig'ini to'lovchi bo'ladi.

Er uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs er uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun er solig'ini to'lovchidir.

**Quyidagilar er solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi:**

notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan taqdirda, notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan er uchastkalari bo'yicha ushbu bo'limda nazarda tutilgan tartibda er solig'i to'lovchilar bo'ladi;

soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan er uchastkalari soliq solish ob'ektidir.

Quyidagilarga soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi:

aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi erlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi erlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi erlari va boshqa shu kabi erlar;

aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan erlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgozlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan erlar);

kommunal-maishiy erlar (qabristonlar, chiqindilarni zararsizlantirish va ularni utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);

zaxira erlar.

Er uchastkasining soliq solinmaydigan er uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.

Qaysi er uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, o'sha er uchastkalari uchun soliq solinadigan baza er uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Er uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza er uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda er solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran

kamaytiriladi. Er solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi).

**Imtiyozlar. Er solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:**

1) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari — o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan er uchastkalari uchun;

2) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

3) yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran ikki yilga;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlari — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Soliq solinmaydigan er uchastkalari jumlasiga quyidagi erlar kiradi:

1) bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa erlar), jamoa garajlarining erlari;

2) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning erlari, bundan xo'jalik faoliyati yuritilayotgan erlar mustasno. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning erlari jumlasiga davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalarini bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning er uchastkalari kiradi;



3) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik erlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan erlar bundan mustasno) — tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan er uchastkalari;

4) rekreatsiya ahamiyatiga molik erlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan erlar bundan mustasno) — aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan erlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik erlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan erlar bundan mustasno) — tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, xotira bog'lari, sag'analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan erlar;

6) suv fondi erlari. Suv fondi erlari jumlasiga suv havzalari (daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan erlar, shuningdek suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun yuridik shaxslarga belgilangan tartibda berilgan suv havzalari hamda boshqa suv ob'ektlari sohillari bo'ylab ajratilgan mintaqa erlari kiradi;

7) elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan erlar;

8) umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirkakli liniyalar va radiofikatsiyalar, er osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, er ustidagi va er ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, erga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan erlar;

9) madaniyat, xalq ta'limi va sog'liqni saqlash ob'ektlari egallagan erlar;

10) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan erlar;

11) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'llar stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalarini, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan erlar;

12) shahar elektr transporti yo‘llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan erlar;

13) sport va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog‘lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o‘quv-mashq bazalari egallagan erlar;

14) aholi punktlarining suv ta‘minoti va kanalizatsiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o‘xshash inshootlar egallagan erlar;

15) magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yong‘inga qarshi va avariya qarshi stansiyalar, truboprovodlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, truboprovodlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o‘xshash inshootlar egallagan erlar;

16) magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko‘paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta‘minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyasiya nasoslari hamda shunga o‘xshash inshootlar egallagan erlar;

17) samolyotlarning uchish-qo‘nish maydonlari, erda boshqarish yo‘lkalari va to‘xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari egallagan erlar;

18) O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan ob‘ektlar qurilishi uchun ajratilgan erlar, normativ qurilish muddati davrida;

19) konservatsiyaga qo‘yilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan ob‘ektlar egallagan erlar, ularning konservatsiyasi davrida;

20) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan erlar;

21) yuridik shaxs balansida bo‘lgan va xo‘jalik faoliyatida foydalanilmaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan ob‘ektlar egallagan erlar;

22) ihota o‘rmon daraxtzorlari egallagan erlar. Ihota o‘rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o‘rmonlarning daryolar, ko‘llar, suv omborlarining va ovlanadigan qimmatbaho baliqlarning uvildiriq sohadigan joylarini muhofaza qiladigan boshqa suv ob‘ektlarining sohillaridagi, temir yo‘llar va avtomobil yo‘llari yoqasidagi taqiqlangan mintaqalar; eroziyaga qarshi o‘rmonlar; cho‘l va yarim cho‘l mintaqalaridagi o‘rmonlar; shahar daraxtzorlari va o‘rmonzor bog‘lari; aholi punktlari hamda sanoat markazlari atrofidagi yashil mintaqalar daraxtzorlari; suv ta‘minoti manbalari sanitariya muhofazasi mintaqalarining o‘rmonlari; kurortlarning sanitariya muhofazasi tegrasidagi o‘rmonlar; alohida qimmatga ega bo‘lgan o‘rmon massivlari; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga molik o‘rmonlar;

23) qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun yangi o‘zlashtirilayotgan erlar, ularni o‘zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o‘zlashtirilgan vaqtdan e‘tiboran besh yil mobaynida;

24) melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug‘oriladigan erlar, ishlar boshlanganidan e‘tiboran besh yil muddatga;

25) yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan erlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat‘i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o‘tkazilgan yangi ko‘chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e‘tiboran boshlanadi, bahorda o‘tkazilgan ko‘chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e‘tiboran boshlanadi;

26) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga molik va o‘rmon fondidagi erlari, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o‘quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o‘quv-tajriba xo‘jaliklarining bevosita ilmiy hamda o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan erlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o‘tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan er uchastkalari soliq to‘lashdan ozod qilinadi.

Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan er uchastkalariga ushbu moddada belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

**Soliq stavkasini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari.** Er uchastkasi mulkdorining, er egasi, erdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo‘jaligi erlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, er

solig'i erning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi.

SHaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik erlar uchun er solig'i qishloq xo'jaligi erlari uchun belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida to'lanadi.

### **YUridik shaxslarda er solig'ining soliq davri. Hisobot davri.**

Er solig'ini davriligi Kalendar yil hisoblanadi.

### **Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi.**

Er solig'i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va er solig'ining hisob-kitobi er uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilning 15 fevraliga qadar taqdim etiladi.

Er solig'ini hisoblab chiqarish-hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yil mobaynida yuridik shaxslarda er uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, ulardan foydalanish huquqi yoki ijara huquqi vujudga kelganida (bekor qilinganda), shuningdek ular foydalanayotgan er maydoni ko'paygan (kamaygan) yoki er solig'i bo'yicha imtiyozlar huquqlari bekor qilingan (vujudga kelgan) taqdirda, yuridik shaxslar davlat soliq xizmati organiga er solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini er uchastkasi ajratilgan (olib qo'yilgan) yoki imtiyoz huquqlari bekor qilingan (vujudga kelgan) kundan e'tiboran bir oylik muddatdan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona er solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalarini er solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

**Soliq to'lash tartibi.** Er solig'ini to'lash, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

YAgona er solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan er solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1 iyuliga qadar — yillik soliq summasining 20 foizi;

hisobot yilining 1 sentyabriga qadar — yillik soliq summasining 30 foizi;

hisobot yilining 1 dekabriga qadar — soliqning qolgan summasi.

### **3.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i.**

#### **Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i to‘lovchilari:**

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar — O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lovchilardir.

Quyidagilar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lovchilar bo‘lmaydi:

notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydasi mustasno;

soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

**Soliq solish ob‘ekti. Soliq solinadigan baza.** Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish ob‘ekti va soliq solinadigan bazadir. Bunda olingan (olinishi lozim bo‘lgan) dividendlar soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob‘ektlari bo‘lgan soliq to‘lovchilar tomonidan soliq solinadigan bazani aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari.

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob‘ektlari bo‘lgan soliq to‘lovchilar soliq solinadigan bazani hisoblangan foyda solig‘i chegirib tashlangan holda yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foydani va ijtimoiy infratuzilma ob‘ektlarini ta‘minlash uchun haqiqatda sarflangan xarajatlarning mazkur xarajatlar summasidan hisoblab chiqilgan foyda solig‘i summasiga kamaytirilgan summasini qo‘shish orqali aniqlaydi.

Ushbu moddani qo‘llash maqsadida ijtimoiy infratuzilma ob‘ektlariga sog‘liqni saqlash ob‘ektlari, xalq ta‘limi ob‘ektlari va bolalar dam olish oromgohlari kiradi.

**Imtiyozlar.** Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqini belgilayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

**Soliq davri. Hisobot davri.** Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

**Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.** Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari bo'lgan soliq to'lovchilar byudjetga to'lanadigan soliq summasini quyidagi tartibda aniqlaydi:

agar ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini ta'minlash uchun xarajatlar summasi hisoblab chiqarilgan soliq summasiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lanmaydi;

agar ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini ta'minlash uchun xarajatlar summasi hisoblab chiqarilgan soliq summasidan kam bo'lsa, byudjetga to'lanadigan soliq hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan haqiqatda sarflangan xarajatlar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar, hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydi.

Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha hisobot davrining birinchi oyi 10-kuniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining joriy to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani

rivojlantirish solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 15-kunidan kechiktirmay to'lanadi.

Quyidagilar joriy to'lovlarni to'lamaydi:

hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda bo'lgan soliq to'lovchilar;

ilgarigi hisobot davrida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlash xarajatlari summasi soliq solinadigan baza summasiga teng yoki undan ortiq bo'lgan soliq to'lovchilar;

yagona soliq to'lovini to'lashga o'tmagan mikrofirmalar va kichik korxonalar.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash mazkur soliq bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

#### **4. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi.**

**Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llanilishi.** Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va yagona soliq to'lovini, yagona er solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash belgilangan faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yagona soliq to'lovchilar va yagona er solig'ini to'lovchilar ushbu

faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va qat'iy belgilangan soliq to'lashlari shart.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'rniga to'lanadi.

Soliq davri mobaynida, ushbu bo'limda nazarda tutilgan hollarda, soliq solish tartibi o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Bunda o'tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to'lash bo'yicha majburiyatlar soliq to'lovchilarda saqlanib qoladi.

**Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qo'llanilganda ayrim umumbelgilangan soliqlarni to'lashga doir majburiyatlar.** Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq to'lovchilar uchun, to'lov manbaida soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish majburiyatlari hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

to'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i;

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i;

aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aksiz solig'i;

er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;

bojxona to'lovlari;

yagona ijtimoiy to'lov;

davlat bojlari;

tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;

davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar (yagona soliq to'lovini to'lovchilar bundan mustasno);

avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.



## **YAgona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:**

- 1) mikrofirmalar va kichik korxonalar;
- 2) xodimlarning sonidan qat'i nazar:  
savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;

lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.

YAgona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etilmaydi:

aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi va er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;

yagona er solig'i va qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;

mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi. Bunda:

xodimlarning soni hisobot yili uchun xodimlarning o'rtacha yillik sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

xodimlarning o'rtacha yillik sonini aniqlashda o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (sho'ba) korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi;

yuridik shaxslarni mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiritishda yuridik shaxsning asosiy faoliyat (ixtisosligi) turiga to'g'ri keladigan xodimlar sonining mezoni qabul qilinadi.

Soliq solish maqsadida savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari jumlasiga savdo faoliyati, umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat o'tgan hisobot yili yakunlari bo'yicha asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar kiradi.

Quyidagilarga savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:

o'zi ishlab chiqargan mahsulot bo'lgan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan ularni mustaqil yuridik shaxs bo'lmagan firma do'konlari orqali realizatsiya qilish;

vositachi, ishonchli vakil tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish;

tayyorlov va ta'minot-sotish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish.

Umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni iste'mol qilishni tashkil etish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

**YAgona er solig'i.** YAgona er solig'ini to'lovchilar quyidagilardir:

qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;

qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

**Quyidagilar yagona er solig'ini to'lovchilar sifatida qaralmaydi:**

o'rmon va ovchilik xo'jaliklari;

yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

**YAgona er solig'ini to'lash tartibini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.** YAgona er solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun soliq to'lovchi har yili joriy soliq davrining 1 fevraliga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushini aniqlashda ushbu Kodeksning **132-moddasida** nazarda tutilgan boshqa daromadlar hisobga olinmaydi.

Agar o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha yagona er solig'i to'lovchi belgilangan shartlarga javob bermasa, soliq to'lovchi joriy soliq davrining boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi kerak.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiradigan soliq to'lovchi belgilangan shartlarga javob bermay qo'ygan soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibini tanlash to'g'risida yozma bildirish taqdim etadi. Soliq to'lovchining yozma bildirishni belgilangan muddatda taqdim etmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga roziligi deb hisoblanadi.

**Yagona soliq to'lovini ob'ekti.** Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan er uchastkasi soliq solish ob'ektidir.

**Soliq solinadigan baza.** Soliq solinadigan er uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir.

Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan er uchastkalari uchun soliq solinadigan baza er uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Er uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza er uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona er solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona er solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash:

yuridik shaxslar tomonidan — har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — ushbu Kodeks 375-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

**Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari**

Yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar:

1) bojxona to'lovlari;

2) er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;

3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq — suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;

4) aksiz solig'i — aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;

5) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

6) davlat boji;

7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) er uchastkasiga ega bo'lsalar jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik sub'ektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risidagi arizani va uning davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomasini olgan, tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradigan organ soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan

axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

**Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.** Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishlari shart.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari quyidagilardir:

chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari;

Tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o'tkazib bog'langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to'g'risidagi hisobotlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno, — yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har oyning yakunlari bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

**Qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.** Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kuniga qadar har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi ?
2. Rezidentlar kimlar hisoblanadi?
3. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad(foyda) solig'ida soliq solish ob'ekti nima hisoblanadi ?
4. Jami daromad tarkibiga nimalar kiradi ?
6. Soliq solinadigan daromadlarni (foydalarni) belgilashda jami daromaddan qanday chegirmalar amalga oshiriladi?
7. YUridik shaxslarning daromadiga (foydasiga) solinadigan soliq bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
8. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad(foyda) solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud ?
9. Norezidentlar hamda chet ellik yuridik shaxslarning daromadlariga (foydasiga) soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Norezidentlar kimlar hisoblanadi?
11. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini hisobga olish tartibi qanday?

12. Davlat byudjetini daromadlarini shakllantirishda qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan to‘ldirish g‘oyasi qachon vujudga kelgan?
13. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ilk bor qaerda va kim tomonidan qanday nom bilan joriy etilgan?
14. Bu soliq turi ilk bor qo‘shilgan qiymat solig‘i nomi bilan kim tomonidan qachon taklif qilingan?
15. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ilk bor qachon va qaysi mamlakat soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan?
16. O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘i qachon joriy etilgan?
18. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?
19. Qo‘shilgan qiymat solig‘i nimani ifodalaydi?
20. Qo‘shilgan qiymat solig‘i solish ob‘ektiga nimalar kiradi?
21. Soliq solinadigan aylanma qanday aniqlanadi?
22. Aksiz tushunchasi qanday ma‘noni anglatadi?
23. O‘zbekiston Respublikasida aksiz solig‘i qachon joriy etilgan?
24. Aksiz solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?
25. Aksiz solig‘i solish ob‘ektiga nimalar kiradi?
27. Aksiz solig‘i stavkalari va hisoblash tartibi qanday?
28. Aksiz solig‘i summasi byudjetga qanday muddatlarda to‘lanadi?
29. Aksiz solig‘ini respublika byudjetiga o‘tkazish tartibi qanday?
30. Bojxona yuk deklaratsiyasida aksiz solig‘ini aks ettirish tartibi qanday?
31. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar kimlar hisoblanadi?

## **5 Mavzu: Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar.**

### **Reja:**

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.
2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i.
4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

**Tayanch soʻzlar va iboralar:** soliq imtiyoz, soliq obʻekti, soliq elementi, xisobot davri.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. "Adolat" nashriyoti, 2010 yil.

2. Oʻzbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati toʻgʻrisida»gi Qonuni. -T.:// Xalq soʻzi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.

3. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yoʻlidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. // Xalq soʻzi, 2007 yil 13 fevral.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015yil 30 dekabrda "Oʻzbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari toʻgʻrisida"gi PQ-1675–son Qarori. Xalq soʻzi gazetasi, yanvar 2016 y.

5. Alimardonov M.I., Toʻxsanov Q.N. Soliq nazariyasi. – T.: Oʻzbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti, 2005.

6. Kochergov D.S., Ustinova E.E. Упрощенная система налогообложения. - M.: Omega, 2006. - 317 s.

7. Toshmuradova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish: Oʻquv qoʻllanma. -T.: TMI, 2005. –158 b.

8. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik (qayta ishlangan) - T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 bet.

9. Soliq info" ijtimoiy-iqtisodiy gazeta, 2013, 2014, 2015 y.y.

**1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi.**

Bugungi kunda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish jarayonlarini oʻrganadigan boʻlsak amaldagi soliq tizimida jismoniy shaxslarning daromad soligʻi ular toʻlaydigan soliqlar ichida eng salmoqli oʻrinni egallaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga koʻra soliqlar va boshqa yigʻimlarni oʻz vaqtida, toʻla xajmda toʻlash fuqarolarning asosiy majburiyatlaridan ekanligi qayd etilgan. Har bir fuqaro oʻz daromadlaridan qonunda belgilangan miqdor, tartib va muddatlarda belgilangan soliqlar va ularga tenglashtirilgan toʻlovlarni toʻlab borishlari kerakligi amaldagi Soliq kodeksi va soliq qonunchiligining boshqa meʼyoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi.



### ***Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lovchilari:***

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga muvofiq soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilardir.

**Soliq solish ob'ekti.** Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliq solish ob'ektidir:

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;

O'zbekiston Respublikasi nerezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

**Soliq solinadigan baza.** Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

Agar soliq to'lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko'ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan biron bir ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Jismoniy shaxsning chet el valyutasida ifodalangan daromadlari daromadlar amalda olingan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

**Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi.** *Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:*

***1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;***

***2) mulkiy daromadlar;***

***3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;***

***4) boshqa daromadlar.***

Yuridik shaxslar amalga oshiradigan quyidagi xarajatlar jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi:

1) xodimlarni qonun hujjatlarida belgilangan normalarga muvofiq sut hamda boshqa davolash-profilaktika oziq-ovqati, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlar;

2) kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar, shu jumladan a'zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a'zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi qo'mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to'lovlar mustasno;

3) xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish bilan bog'liq xizmat transportini saqlash xarajatlari;

4) diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o'tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo'lovchilar transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo'l kartochkalarini olish, shuningdek yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlar;

5) xodimga ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formal kiyim-bosh berish bo'yicha xarajatlar;

6) xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog'liq xarajatlarni to'lash yoki bu xarajatlarning o'rnini qoplash xarajatlari;

7) xizmat safarlaridagi quyidagi kompensatsiya to'lovlari:

tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u erdan qaytib kelish uchun, shu jumladan joy band qilish uchun haq to'lashni qo'shgan holda haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar. Yo'l hujjatlari bo'lmagan taqdirda, temir yo'l transportidagi (agar temir yo'l qatnovi bo'lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo'l haqi qiymati miqdorida, biroq aviachipta qiymatining 30 foizidan oshmaydigan miqdorda;

uy-joyni ijaraga olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar. YAshaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmagan taqdirda — qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida;

tasdiqlovchi hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to'lovlar;

qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo'lingan vaqt uchun to'lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa to'lovlar;

8) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to'lanadigan kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar):

doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan, shuningdek vaxta usulida ishlarni bajarishda xodimga kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar);

xizmat ishlari uchun shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar), bundan xizmat safarlari mustasno;

dala ta'minoti;

amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar);

9) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash bo'yicha quyidagi miqdordagi to'lovlar:

jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lguniga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovlar (voyaga etmagan shaxs mehnatda mayib bo'lib qolgan taqdirda, zararning o'rnini uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo'lmagan miqdorda qoplanadi);

maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo'shimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki baravari miqdoridagi to'lovlar;

jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo'shimcha xarajatlar tariqasida har oyda eng kam ish haqining ellik foizi miqdoridagi to'lovlar;

xodimning sog'lig'iga shikast etkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o'rtacha ish haqi miqdoridagi to'lovlar;

10) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to'lovlar:

marhumning o'rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to'g'ri keladigan ulushi miqdoridagi to'lovlar;

boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan shaxslarga bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o'rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to'lovlar;

11) talabalarning ta'lim olishi uchun, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurti bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha pulli-kontrakt asosida o'tkaziladigan to'lovlar;

12) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hisobvarag'iga muqobil xizmat shartnomasi bo'yicha o'tkaziladigan mablag'lar;

13) mol-mulkni sug'urtalash va (yoki) hayotni uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari. Mol-mulkni sug'urtalash va (yoki) hayotni uzoq muddatli sug'urtalash shartnomasi muddatidan ilgari bekor qilinganda va sug'urtalovchi sug'urta qilinuvchiga sug'urta mukofotining bir qismini yoki to'liq qaytarsa, qaytarilgan sug'urta mukofoti miqdori jismoniy shaxsning soliq solinadigan jami daromadi tarkibiga kiritiladi;

14) yosh oilalar a'zolarining uy-joy olish uchun yuridik shaxsdan — ish beruvchidan olgan mablag'lari. Uy-joy olingan (mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, ushbu bandda ko'rsatilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi;

15) xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

**Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar.** Mehnat shartnomalariga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish predmeti bo'lgan fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar (ushbu Kodeks 169-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan daromadlar bundan mustasno) deb e'tirof etiladi. ***Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar ham kiradi:***

rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar;

kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiya);

ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash.

### **Daromadlarning alohida turlariga solinadigan soliq stavkalari.**

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga belgilangan eng kam stavka bo'yicha soliq solinadi:

baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan koeffitsientlar bo'yicha qo'shimcha to'lovlar tariqasida olingan daromadlarga. Bunda cho'l va suvsiz joylarda, baland tog'li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun yuridik shaxslar xodimlarining ish haqiga koeffitsientlar hisoblashning eng yuqori summasi hisoblash paytidagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida belgilanadi;

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlariga.

Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan ayollarning daromadlaridan olish darajasi 20 foizdan oshmasligi lozim. Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**Jismoniy shaxslarning — O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan daromadlariga solinadigan soliq stavkalari.** Jismoniy shaxsning — O'zbekiston Respublikasi norezidentining O'zbekiston Respublikasidagi daromadlar manbaidan olingan, doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan daromadlariga manbada chegirmalarsiz quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

dividendlar va foizlarga — 10 foiz;

belgilanadigan xalqaro tashishlarda transport xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) — 6 foiz;

intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazganlik uchun pul mukofoti, ijara bo'yicha daromadlar, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan, fuqarolik-huquqiy tusga ega shartnomalar bo'yicha olingan boshqa daromadlarga — 20 foiz.

To'lov manbaida soliq solish to'lov O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning hududidan tashqarida sodir etilganligidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

**Soliq davri. Hisobot davri.** Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi daromad to'lash manбайдan jismoniy shaxslarning daromad soliqlarini ushlab qoluvchilar uchun hisobot davridir.

**Jismoniy shaxslarning daromadlariga to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlar.** Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni to'lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va to'lash majburiyati yuridik shaxslar, faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalarini zimmasiga yuklatiladi.

Jismoniy shaxslarning daromadlariga to'lov manbaida soliq solinadigan daromatlarga quyidagilar kiradi:

- 1 jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari;
- 2) jismoniy shaxslarning bir martalik ishlarni bajarishdan oladigan daromadlari;
- 3) jismoniy shaxslarning dividendlar, foizlar, pul mukofotlari tariqasida olgan daromadlari;
- 4) jismoniy shaxslarning bepul berilgan aksiyalar yoki yuridik shaxslar mol-mulkinging ulushi tariqasidagi daromadlari;
- 5) O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga to'lanadigan daromadlar;
- 6) jismoniy shaxslarning mol-mulkni yuridik shaxsga ijaraga berishdan oladigan daromadlari;
- 7) royalti;
- 8) jismoniy shaxslarning tanlovlar va musobaqalar yakunlari bo'yicha sovrinlar, yutuqlar tariqasida oladigan daromadlari;
- 9) yuridik shaxs — grant oluvchi tomonidan jismoniy shaxsga beriladigan grantlarning summalari;
- 10) jismoniy shaxslarga yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan daromadlar;

11) jismoniy shaxsga yuridik shaxs tomonidan moddiy naf tariqasida to'lanadigan daromadlar.

### **Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini soliq agentlari tomonidan to'lov manbaida ushlab qolish**

To'lov manbaida soliq solish soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq agentlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq agentlari soliq to'lovchining daromadlaridan hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini mazkur daromadlar haqiqatda to'lanayotganda ushlab qolishlari shart.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning hisoblangan summasini soliq to'lovchidan ushlab qolish soliq agenti soliq to'lovchiga to'layotgan har qanday pul mablag'lari hisobidan, mazkur pul mablag'lari haqiqatda soliq to'lovchiga yoki uning topshirig'iga binoan uchinchi shaxslarga to'lanayotganda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'g'ri ushlab qolinishi va o'z vaqtida byudjetga o'tkazilishi uchun javobgarlik daromad to'layotgan soliq agentining zimmasida bo'ladi. Mazkur soliq summasi ushlab qolinmagan taqdirda, soliq agenti ushlab qolinmagan summani hamda u bilan bog'liq penyani byudjetga to'lashi shart.

**Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish tartibi.** Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qo'llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi.

Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash shaklida oladigan daromadlariga ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq belgilangan tartibda ushlanadi. Bunda ish haqidan soliq, soliq solish maqsadlari uchun eng kam ish haqining miqdori yil boshidan e'tiboran, yuqorida aytib o'tilganidek, ortib boruvchi yakun bilan hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda

daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

O'z xodimlariga moddiy yordam ko'rsatgan va qimmatbaho sovg'alar bergan soliq agentlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini soliq davrining oxirida amalda bo'lgan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda qayta hisob-kitob qiladi.

Jismoniy shaxsning asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan moddiy yordam va qimmatbaho sovg'a olgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlar to'g'risida deklaratsiya topshirgan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davrining oxirida amalda bo'lgan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summolari to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o'qish) joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qolinadi. Ma'lumotnoma yoki identifikatsiya raqami keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi ilgarigi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan buyon ilgarigi va yangi ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan daromadlar olayotgan jismoniy shaxs buxgalteriyaga o'z daromadidan jismoniy



shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi bo'yicha ushlab qolish to'g'risida ariza bersa, daromadlar to'layotgan yuridik shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini ushbu bo'limda nazarda tutilgan imtiyozlarni qo'llamagan holda eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qoladilar.

Soliq agentlari ish haqi to'layotganda jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summolari va turlari haqida, shuningdek jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma'lumotnoma berishlari shart.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yakuniy summasi olingan daromadlar, qilingan xarajatlar va ushlab qolingani soliq summolari to'g'risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma'lumotlari bo'yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

#### **Hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi.** Soliq agentlari:

1) soliq davri tugaganidan so'ng o'ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to'g'risida, asosiy ish joyi bo'yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslar bundan mustasno, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma'lumotnoma taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi:

soliq to'lovchining — jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;

soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili;

o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha daromadlarning umumiy summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani umumiy summasi;

soliq agentining identifikatsiya raqami;

soliq agentining nomi, joylashgan eri (pochta manzili);

2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kuniga qadar, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to'langan daromadlar

summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summalariga to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etishi shart.

**Soliq to'lash tartibi.** To'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi byudjetga soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to'lanadi:

pul mablag'larini olish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda;

to'lov natija holida amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida, agar bunday to'lovga qonun hujjatlarida ruxsat berilgan bo'lsa.

Agar yuridik shaxsning bank hisobvarag'ida ish haqini to'lash va bir vaqtning o'zida xodimlarning ish haqidan ushlab qolingani soliqlarni byudjetga o'tkazish uchun mablag'lar etarli bo'lmasa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bank hisobvarag'idagi qoldiq mablag'larga mutanosib summada byudjetga o'tkaziladi.

**Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar.** Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

mulkiy daromad, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingani daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa;

ikkita yoki undan ko'p manbadan olingani daromadlar;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingani daromadlar.

Agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olingani daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka qo'llanilgan holda uning arizasiga ko'ra ushlab qolingani bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

**Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi.** Soliq to'lovchilar daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi

deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan chet ellik jismoniy shaxs o‘tgan soliq davri uchun daromadlar to‘g‘risida joriy yilning 1 aprelegacha deklaratsiya taqdim etadi.

CHet ellik jismoniy shaxs — O‘zbekiston Respublikasining rezidenti ushbu bobda belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo‘lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtda joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar chet ellik jismoniy shaxs — O‘zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1 fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo‘lsa, joriy yil uchun daromadlar bo‘yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Taqdim etish tartibi daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya bo‘yicha hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to‘lash deklaratsiya topshirilgan paytdan e‘tiboran o‘n besh kun ichida amalga oshiriladi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo‘yicha olingan daromad summasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i miqdorini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha organning tegishli xulosasini ko‘rsatadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs belgilangan tartibda daromadlar to‘g‘risidagi quyidagi deklaratsiyalarni taqdim etadi:

dastlabki deklaratsiyani — shunday daromadlar yuzaga kelgan kundan e‘tiboran bir oy o‘tgach, besh kunlik muddatda, agar bu daromadlarga jismoniy shaxslar daromadlariga to‘lov manbaida solinadigan soliq solinmagan bo‘lsa;

yakuniy deklaratsiyani — o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 15 yanvariga qadar.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

**Deklaratsiya bo'yicha soliq to'lash tartibi.** Jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to'laydilar.

Jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valyutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning beshinchi kunigacha to'laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to'langan summalar o'rtasidagi farq kelgusi yilning 15 martigacha soliq to'lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq to'langan sana quyidagilardir:

yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag'idan to'langani taqdirda — ularning bankdagi hisobvarag'idan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun;

jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag'lari kiritilgan taqdirda — bank kassasiga mablag'lar to'langan sana.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

## **2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.**

### **Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilar.**

Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilaridir.

Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan erini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir.

**Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish ob'ekti.** O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish ob'ektidir.

**Soliq solinadigan baza.** Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob'ektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob'ekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir ob'ekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

qo'llanilmaydi.

**Soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.** Soliq solish ob'ektlari jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilgan yoxud ular yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda to'lanadi.

**Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.** Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ soliq solish ob'ekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga har yili 1 fevralgacha ob'ektning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatini va uning mulkdorini ko'rsatgan holda ma'lumot taqdim etadi.

Imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadilar.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

### **3. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i.**

Er bilan bog'liq masalalar o'ta muhim, o'z o'rnida soliq siyosati ham imkoni boricha mukammal ko'rinishda olib borilishi lozim.

"Er — o'lkamizning eng asosiy boyligi. U ediradi, ichiradi, yashash uchun asosiy shart—sharoitlarni yaratib beradi. SHu sababli respublikaning kelajagi, O'zbekiston xalqining kelajagi ko'p jihatdan erdan foydalanish munosabatlari qanday tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi",<sup>13</sup> deya e'tirof etgan respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov. O'z o'rnida er kabi resurslarni soliqqa tortish, soliq siyosati masalalarda ham doimo qat'iy e'tibor berib kelmoqda: "Soliq tizimining eng muhim vazifasi — ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy—xom-ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol—mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir.

...YAngi soliq siyosati doirasida soliq tushumlari tarkibini tubdan o'zgartirish, resurslar, mol — mulk solig'ining rolini oshirish, jismoniy shaxslardan soliq undirishning progressiv tizimini joriy etish vazifasi qo'yildi".<sup>14</sup>

<sup>13</sup> КаримовИ.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. —Т.: Ўзбекистон, 1995. — бет.

<sup>14</sup> КаримовИ.А.Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. —Т.:Ўзбекистон, 1995.

YUqoridagilarni inobatga olib, amaliyotimizda davlat byudjeti daromadlarida er solig'ining nisbiy va miqdoriy salmog'i oshib kelishiga erishilmoqda.

### **Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ining to'lovchilari.**

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida er uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari er solig'ini to'lovchilardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijara berilgan er uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi er solig'iga tenglashtiriladi. Er uchastkalarini ijara olgan jismoniy shaxslarga er solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish huquqi va foydalanish huquqi o'tgan er uchastkalari uchun er solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo'rlardan undiriladi.

**Soliq solish ob'ekti.** Jismoniy shaxslar uchun quyidagi er uchastkalari soliq solish ob'ektidir:

1) dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan er uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan er uchastkalari;

3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan er uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan berilgan chek erlar;

5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan er uchastkalari;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan er uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan er uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan er uchastkalari soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

**Soliq solinadigan baza.** Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning er uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan bazadir.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan er uchastkalarining maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza ushbu er uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek erlarning maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza o'z xodimlariga er uchastkalari bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

**Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ining davri.** Kalendar yil soliq davridir.

**Soliqni hisoblab chiqarish tartibi.** Er solig'ini hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari er solig'ini to'lovchilar bo'lgan jismoniy shaxslarning hisobini muntazam yuritadi.

Er solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasi jismoniy shaxslarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Yil mobaynida er uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelganida (bekor qilinganda) davlat soliq xizmati organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida er solig'ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda soliq to'lovchiga er solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak.



**Soliq to‘lash tartibi.** Er solig‘i er uchastkasining mulkdori, erga egalik qiluvchi, erdan foydalanuvchi yoki ijarachining yashash joyidan qat‘i nazar, er uchastkasi joylashgan hududdagi tuman yoki shaharning mahalliy byudjetiga to‘lanadi.

Yil mobaynida ajratilgan er uchastkalari uchun er solig‘i jismoniy shaxslar tomonidan er uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e‘tiboran to‘lanadi.

Er uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, er solig‘ini to‘lash er uchastkasi kamaytirilgan oydan e‘tiboran to‘xtatiladi (kamaytiriladi).

Er solig‘i bo‘yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyoz huquqi vujudga kelgan oydan e‘tiboran to‘lanmaydi. Er solig‘i bo‘yicha imtiyozlarga bo‘lgan huquqlar bekor qilingan taqdirda, bu soliq mazkur huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e‘tiboran to‘lana boshlaydi.

Belgilangan tartibda berilgan er uchastkalari uchun er solig‘i er uchastkasidan foydalanish faktidan qat‘i nazar, jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadi.

Soliq davri uchun er solig‘i to‘lash jismoniy shaxslar tomonidan yiliga bir marta 15 oktyabrgacha amalga oshiriladi.

#### **4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.**

**Soliq to‘lovchilar.** Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gazni chakana realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to‘lovchilardir.

**Soliq solish ob‘ekti. Soliq solinadigan baza.** Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gazni chakana realizatsiya qilish soliq solish ob‘ektidir.

Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gazning natura holidagi realizatsiya qilingan hajmi soliq solinadigan bazadir.

**Soliq davri.** Soliq davri quyidagilardir:

mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar uchun — bir oy.

**Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliq to'lash tartibi.** Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi, sotib oluvchiga beriladigan chekda alohida qatorda ko'rsatiladi hamda jismoniy shaxslardan realizatsiya qilinayotgan benzin, dizel yonilg'isi va gaz uchun mablag'larni olish bilan bir vaqtda undiriladi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning joriy o'n kunlik to'lovlar hisobga olingan holdagi hisob-kitobi yonilg'i quyish shoxobchasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslarning transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lash jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz chakana realizatsiya qilingan oyning o'n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan kechiktirmay, yonilg'i quyish shoxobchasi joylashgan erda har o'n kunda amalga oshiriladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Kimlar jismoniy shaxs hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxslarning daromadlari tarkibini izohlang?
3. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi?
4. Soliq stavkalari kim tomonidan o'rnatiladi?
5. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning amaldagistavkalari qanday ?
6. Rezident va norezident jismoniy shaxslar farqini tushuntiring?

7. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqdan imtiyozlar necha turdan iborat va ularning tarkibi qanday?
8. CHet ellik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning qanday xususiyatlari mavjud?
9. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblash tartibi qanday?
10. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni to'lash tartibiqanday va qaysi muddatlarda amalga oshiriladi?
11. Jami yillik daromad haqidagi deklaratsiyani kimlar taqdim etadi?
12. Jami yillik daromad tarkibiga qanday daromadlar kiritiladi?  
Jami yillik daromad haqidagi deklaratsiya blanka shakli qanday?
13. Soliq to'lovchining yil davomida olinadigan daromadlari hisobi qaysi tartibda amalga oshiriladi?
14. Deklaratsiya bo'limlarini to'ldirish tartibi qanday?
15. Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i qanday?
16. Er solig'ini to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?

## **6-mavzu. Davlatning maksadli ijtimoiy jamgarmalariga olinadigan majburiy tulovlar. Davlat boji.**

### **Reja:**

1. YAgona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashkari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari.
2. Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar.
3. Davlat boji.

**Tayanch so'zlari va iboralar:** jamg'arma, soliq solinadigan baza, sug'urta badallari, davlat boji, boj to'lovi, kompensatsiya..

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. SHavkat Mirziyoev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz"- T: "O'zbekiston" 2016.
2. SHavkat Mirziyoev "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" 2016 yil 7 dekabr: T, "O'zbekiston" 2017.
3. SHavkat Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz". T., "O'zbekiston" 2017.

4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.”Adolat” nashriyoti, 2010 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. - T.:// Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.
6. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. // Xalq so‘zi, 2007 yil 13 fevral.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 30 dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1675–son Qarori. Xalq so‘zi gazetasi, yanvar 2016y.
8. Alimardonov M.I., To‘xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. – T.: O‘zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005.
9. Kochergov D.S., Ustinova E.E. Упроцeнная система налоговобложения. - M.: Omega, 2006. - 317 s.
10. Toshmuradova B. Soliq munosabatlari optimallashtirish: O‘quv qo‘llanma. -T.: TMI, 2005. –158 b.
11. YAhyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik (qayta ishlangan) - T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 bet.
12. Soliq info” ijtimoiy-iqtisodiy gazeta, 2013, 2014, 2015 y.y.

## **1. YAgona ijtimoiy to‘lov va fuqarolarning byudjetdan tashkari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari.**

**Soliq to‘lovchilar.** YAgona ijtimoiy to‘lovni to‘lovchilar quyidagilardir:

yuridik shaxslar — O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalar va filiallari orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Jismoniy shaxslar — O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallarini (bundan buyon matnda sug‘urta badallari deb yuritiladi) to‘lovchilardir.

Sugʻurta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularning toʻgʻri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

**Soliq solish obʻekti.** Ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy toʻlovning va sugʻurta badallarining soliq solish obʻektidir.

**Soliq solinadigan baza.** YAagona ijtimoiy toʻlovni va sugʻurta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza toʻlanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

**Imtiyozlar.** YAagona ijtimoiy toʻlov va sugʻurta badallari quyidagi toʻlovlarga nisbatan hisoblanmaydi:

- 1) kompensatsiya toʻlovlari;
- 2) xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli byudjet yoki xayriya jamgʻarmalarga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabilar uchun) oʻtkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar;
- 3) xodimning muhim sanasi, uzoq yillik xizmati, jamoat faoliyatida erishgan yutuqlari munosabati bilan unga beriladigan ragʻbatlantirish tarzidagi toʻlovlar;
- 5) yosh mutaxassislarga oliy oʻquv yurtini tamomlaganlaridan soʻng taʼtil vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan toʻlanadigan nafaqalar.

**Soliq davri. Hisobot davri.** Kalendar yil soliq davridir.

Hisobot davri quyidagilardir:

mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq toʻlovchilar uchun — bir oy.

**YAagona ijtimoiy toʻlovni va sugʻurta badallarini hisoblab chiqarish hamda toʻlash tartibi.** YAagona ijtimoiy toʻlov va sugʻurta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

YAagona ijtimoiy toʻlov yuridik shaxslarning mablagʻlari hisobidan toʻlanadi, sugʻurta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan oʻtkaziladi.

YAgona ijtimoiy to'lovning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Sug'urta badallarining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

To'lov quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

yagona ijtimoiy to'lov — har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

sug'urta badallari — ish haqiga pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda.

### **Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari**

YAkka tartibdagi tadbirkorlar sug'urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi.

YUridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriylik asosida yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

YOshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek I va II guruh nogironlari bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari uchun sug'urta badalining miqdori uning belgilangan miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak.

Sug'urta badallarini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har oyda keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari — hisobot yilining 1 oktyabrigacha. Bunda sug'urta badallarining miqdori to'lov kunidagi eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to'lovchining identifikatsiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi shart. Agar davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo'jaliklari a'zolari uchun — yil) uchun to'langan deb hisoblanadi.

### **Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar.**

**Soliq to'lovchilar.** Yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilardir.

Quyidagilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi:

notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslar.

**Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan baza.** Soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan baza quyidagilardir:

1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonolari uchun — mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonolari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonolari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonolari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomalari bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi pul mukofoti summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun — tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun — daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish ob'ektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish ob'ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob'ektlar uchun belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart.

**Soliq davri. Hisobot davri.** Kalendar yil soliq davridir.

Hisobot davri quyidagilardir:

mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun — bir oy.

**Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob- kitoblarini taqdim etish va ularni to'lash tartibi.** Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay,



yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

## **2. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar.**

### **Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarto'lovchilar:**

Yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchilardir.

Quyidagilar Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi:

notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

yagona soliq to'lovi to'lovchi yuridik shaxslar;

ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar, Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va qurish bo'yicha ishlarni bajarganlik uchun olingan daromadlar qismi bo'yicha.

**Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan baza.** Sof tushum Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasidir.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi quyidagilardir:

1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun — mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash,

loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo‘shilgan qiymat solig‘i chegirib tashlangan holdagi qiymati;

3) vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo‘yicha, vositachilik va topshiriq shartnomasi bo‘yicha hamda vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — ko‘rsatilgan xizmatlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun — tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug‘urta tashkilotlari uchun — agar mazkur moddaning uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, ushbu Kodeksning 148 va 150-moddalariga muvofiq aniqlanadigan daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo‘lgan yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo‘yicha foizli daromad summasi.

Ushbu Kodeksning 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar soliq solish ob‘ekti sifatida qaralmaydi.

Soliq to‘lovchilar turli xil soliq solish ob‘ektlariga ega bo‘lgan hollarda, ular soliq solish ob‘ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob‘ektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lashi shart.

**Soliq davri. Hisobot davri.** Kalendar yil soliq davridir.

Hisobot davri quyidagilardir:

mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar uchun — bir oy.

**Majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitobini taqdim etish va ularni to‘lash tartibi.** Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

**Respublika yo'l jamg'armasiga yig'implarning turlari.** Respublika yo'l jamg'armasi yig'implariga quyidagilar kiradi:

avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;

chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im.

**Soliq to'lovchilar.** Avtotransport vositalarini oluvchi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im to'lovchilardir.

CHet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im to'lovchilardir.

**Soliq solish ob'ekti.** Yig'implar uchun soliq solish ob'ekti quyidagilardir:

avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tish.

**Soliq solinadigan baza.** Soliq solinadigan baza quyidagilardir:

olingan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati;

O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

**Imtiyozlar.** Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig‘imni to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

1) ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo‘l bilan boshqarishga moslashtirilgan engil avtomobilni va (yoki) motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

2) ixtisoslashtirilgan savdo tarmog‘idan O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yangi avtomobil oluvchi fuqarolar, shuningdek yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalarni oluvchi fuqarolar;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash, ta‘mirlash, rekonstruksiya qilish va qurishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan yo‘l xo‘jalik boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar — mazkur ishlarni amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan avtotransport vositalari bo‘yicha;

4) faoliyatining asosiy turi yo‘lovchilar tashish bo‘lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo‘lgan avtotransport korxonalari — yo‘lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo‘yicha (engil avtomobillar va yo‘nalishli taksilardan tashqari);

5) yuridik shaxslar — qirq tonnadan ortiq yuk ko‘taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo‘yicha;

6) homiylik (beg‘araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

7) yuridik shaxslar — avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o‘tkazishda;

8) qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

9) avtotransport vositalarini ushbu moddaning **3—5-bandlarida** ko‘rsatilgan yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

**Yig'implarni to'lash tartibi.** Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda, ushbu Kodeks 324-moddasining **9-bandida** nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Yig'im taraflarning yozma kelishuviga ko'ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, yig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganida takroran yig'im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish yoki texnik ko'rikdan o'tkazish amalga oshirilmaydi.

CHet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

### **3. Davlat boji.**

**Umumiy qoidalar.** Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan majburiy to'lovdir.

O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari tomonidan konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun davlat boji konsullik yig'imi tariqasida undiriladi.

Davlat bojining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**Davlat bojini to'lovchilar.** Yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilishi va (yoki) hujjatlar berilishi xususida vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslarga murojaat qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar davlat bojini to'lovchilardir.

**Undirish ob'ektlari.** Davlat boji quyidagilardan undiriladi:

1) sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, organlarning va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlardan, alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, sudlarning qarorlari ustidan beriladigan apellyasiya, kassatsiya shikoyatlaridan va arizalaridan, nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi shikoyatlar va arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi arizalardan, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, shuningdek sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun;

2) da'vo arizalaridan, tashkilotlarni va fuqarolarni bankrot deb topish to'g'risidagi arizalardan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablarni bildirgan uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish to'g'risidagi arizalardan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining qarorlari, ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimi ustidan berilgan, da'voni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi, sud jarimalarini solish to'g'risidagi apellyasiya va kassatsiya shikoyatlaridan, hakamlik sudining qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining hakamlik sudi qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, shuningdek hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi va ijro varaqasini berishni rad etish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ajrimlari ustidan berilgan apellyasiya va kassatsiya shikoyatlaridan;

3) davlat notarial idoralari, O'zbekiston Respublikasining konsullari va shaharchalar, qishloqlar, ovullarning fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollari) tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun;

4) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun, shuningdek fuqarolarga fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilganligi to'g'risida takroriy

guvohnoma berganlik uchun hamda fuqarolik holati dalolatnomalari yozuviga o'zgartishlar, qo'shimchalar, tuzatishlar kiritilishi va uning qayta tiklanishi munosabati bilan guvohnoma berganlik uchun;

5) chet eldan O'zbekiston Respublikasiga kelish huquqini beruvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish to'g'risida hujjatlarni berganlik uchun; yashash guvohnomasini berganlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun; respublika hududiga kelish va respublika hududidan chet elga chiqish huquqini beradigan chet el pasportiga yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatga viza berganlik uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risida beriladigan arizalardan;

6) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjatlar berganlik uchun;

7) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet davlatlar fuqarolarini hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni turar joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik uchun;

8) yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun;

9) faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun;

10) ov qilish huquqiga ega ekanligi to'g'risida ruxsatnoma berganlik uchun.

### **Umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan ozod qilish.**

Umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) da'vogarlar — ish haqini undirib olish to'g'risidagi da'volar va mehnat huquqlari munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar yuzasidan;

2) da'vogarlar — mualliflik huquqlari va turdosh huquqlardan, shuningdek ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomiga, seleksiya yutug'iga bo'lgan huquqdan kelib chiqadigan da'volar yuzasidan;

3) da'vogarlar — alimentlar undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

4) da'vogarlar — mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek boquvchisi vafot etganligi tufayli etkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

5) da'vogarlar — noqonuniy hukm etish, jinoiy javobgarlikka tortish, ma'muriy jazo berish tufayli jismoniy shaxsga etkazilgan zararning o'rnini qoplash bilan bog'liq nizolar yuzasidan;

6) da'vogarlar — jinoyat tufayli etkazilgan moddiy zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

7) jinoyat tufayli etkazilgan moddiy zararning undirib olinishi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi nizolashilayotgan jinoyat ishlari bo'yicha apellyasiya va kassatsiya shikoyatlari bilan murojaat qilgan shaxslar;

8) nikohni bekor qilish to'g'risidagi mol-mulkni bo'lish bilan bog'liq bo'lmagan ishlar bo'yicha apellyasiya va kassatsiya shikoyatlari bilan murojaat qilgan shaxslar;

9) yuridik va jismoniy shaxslar — jinoyat ishlari va alimentlarni undirishga doir fuqarolik ishlari bilan bog'liq hujjatlarni ularga berganlik uchun;

10) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilinishini so'rab sudga ariza bilan murojaat etgan yuridik va jismoniy shaxslar;

11) yuridik va jismoniy shaxslar:

sudning ishni tugatish yoki uni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi ajrimini bekor qilish to'g'risidagi ariza bo'yicha;

sudning hal qiluv qarori ijrosini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi ariza bo'yicha;

da'voni ta'minlash yoki da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish to'g'risidagi ariza bo'yicha;

sudning yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarorini, ajrimini yoki qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza bo'yicha;

sud tomonidan belgilangan jarimani bekor qilish yoki kamaytirish to'g'risidagi, sudning hal qiluv qarori ijrosini o'zgartirish to'g'risidagi, o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risidagi ariza bo'yicha;

12) yuridik va jismoniy shaxslar — sud ijrochisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlar yuzasidan, sudning jarimani bekor qilish yoki kamaytirishni rad etish to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyatlar hamda sud ajrimi ustidan boshqa xususiy shikoyatlar yuzasidan;



13) tadbirkorlik sub'ektlari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlari hamda boshqa organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda;

14) iste'molchilar — o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq da'volar yuzasidan; tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari; iste'molchilarning jamoat birlashmalari — iste'molchilarning (iste'molchilar nomuayyan doirasining) manfaatlarini ko'zlab qo'zg'atilgan da'volar yuzasidan;

15) da'vog'arlar — o'rmon daraxtlarini o'zboshimchalik bilan kesish hamda o'rmondan foydalanish, o'rmonni qo'riqlash va muhofaza qilishning tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzish tufayli o'rmon fondiga etkazilgan zararni undirish to'g'risidagi ishlar yuzasidan;

16) davlat organlari — o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzish to'g'risidagi da'volar yuzasidan, shuningdek jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan, tarixiy, badiiy qimmatga yoki jamiyat uchun boshqa qimmatga ega bo'lgan mol-mulkni jismoniy shaxslar bu mol-mulkka xo'jasizlarcha munosabatda bo'lgan hollarda jismoniy shaxslardan davlat mulkiga olib qo'yish to'g'risidagi ishlar yuzasidan;

17) O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi — palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar bo'yicha, shuningdek davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab qilingan shikoyatlar yuzasidan;

18) nodavlat notijorat tashkilotlari — o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda;

19) nogironlarning jamoat birlashmalari, shuningdek ularning muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari — barcha da'volar yuzasidan;

20) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari — majburiy badallarni kiritish va kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha qarzni undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

21) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari, shuningdek fuqarolar — tuzilgan shartnomalar shartlari aholiga uy-joy-

kommunal xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli etkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

22) tumanlar, shaharlar (shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar) hokimliklari — kommunal xizmatlar ko'rsatuvchilar yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kommunal xizmatlar haqini to'lash va majburiy badallarni kiritish bo'yicha qarzni undirish to'g'risidagi taqdimnomasiga muvofiq kiritiladigan da'volar yuzasidan;

23) tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari — zarar etkazuvchidan quyidagi summalarni undirib olish to'g'risidagi regress da'volar bo'yicha:

jabrlanuvchiga yoki uning oila a'zolariga to'langan pensiyalar va nafaqalar summalarini;

benzinga, avtomototransport vositalarini ta'mirlashga, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ehtiyot qismlar olishga, nogironlarni avtomototransport vositalarini haydashga o'rgatishga ketadigan xarajatlarni qoplash summalarini, shuningdek noto'g'ri to'langan pensiyalar va nafaqalarning summalarini undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

24) O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda uning joylardagi organlari — ko'chish joyiga bormagan yoki ko'chib borgan joylarini o'zboshimchalik bilan tark etgan ko'chirib keltiriluvchilarga nisbatan ko'chish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning o'rnini qoplash to'g'risida taqdim etilgan da'volar yuzasidan;

25) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari — atrof muhitni ifloslantirganlik, tabiatdan o'zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularning muhofaza qilishning tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy ob'ektlarga va komplekslarga etkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

26) O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda uning joylardagi organlari — suv to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tufayli davlatga etkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun mablag'larni davlat daromadiga undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

27) sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organlari — majburiy sug'urta operatsiyalari bilan bog'liq ishlar yuzasidan;

28) qimmatli qogʻozlar bozorini tartibga solish boʻyicha vakolatli davlat organi — investorlarning, shuningdek davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir daʼvolar yuzasidan;

29) davlat soliq xizmati organlari, moliya hamda bojxona organlari, shuningdek monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash organlari — barcha ishlar va hujjatlar yuzasidan, shuningdek alohida yuritiladigan ishlar boʻyicha sudga arizalar berganlik uchun;

30) ichki ishlar organlari — alimentlar va boshqa toʻlovlarni toʻlashdan boʻyin tovlayotgan shaxslarni qidirish uchun qilingan xarajatlarni undirish toʻgʻrisidagi ishlar yuzasidan;

31) prokuratura organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini koʻzlab qilingan daʼvolar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

32) adliya organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini koʻzlab qilingan daʼvolar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

33) undiruvchi yoki sud ijrochisi — qarzdorni yoki uning mol-mulkini qidirish boʻyicha xarajatlarning oʻrnini qarzdor tomonidan qoplash toʻgʻrisidagi ishlar yuzasidan.

**Xoʻjalik sudlarida davlat bojini toʻlashdan ozod qilish.** Xoʻjalik sudlarida davlat bojini toʻlashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar — pul mablagʻlari boʻlmaganda, bu bank muassasasi tomonidan tasdiqlangan taqdirda, xoʻjalik sudining ajrimi boʻyicha;

2) qishloq xoʻjaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar — tayyorlov va xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlar shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi bilan bogʻliq daʼvolar boʻyicha;

3) tadbirkorlik subʼektlari — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlari hamda boshqa organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda;

4) arizachi va javobgar — qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda moliya-xoʻjalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va (yoki) oʻz ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmagan korxonalarni tugatishga doir ishlar boʻyicha;

5) da'vogarlar — o'rmon daraxtlarini o'zboshimchalik bilan kesish hamda o'rmondan foydalanish, o'rmonni qo'riqlash va muhofaza qilish tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzish tufayli o'rmon fondiga etkazilgan zararni undirish to'g'risidagi, o'rmon xo'jaligi daromadi summalarini (shu jumladan, o'rmon daraxtlarini o'sib turgan joyida sotish qoidalarini buzganlik uchun zarar va neustoykani, shuningdek o'zboshimchalik bilan o'rmon daraxtlarini kesganlik, pichan o'rganlik va mollarni o'tlatganlik uchun jarimalarni) undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha;

6) O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi — palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar yuzasidan, shuningdek davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab qilingan shikoyatlar bo'yicha;

7) nodavlat notijorat tashkilotlari — o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda;

8) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari — majburiy badallarni to'lash va kommunal xizmatlar to'lovi bo'yicha qarzlarni undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

9) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari — tuzilgan shartnomalar shartlari aholiga uy-joy-kommunal xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli etkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

10) tumanlar, shaharlar (shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar) hokimliklari — kommunal xizmatlar ko'rsatuvchilar yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kommunal xizmatlar haqini to'lash va majburiy badallarni to'lash bo'yicha qarzni undirish to'g'risidagi taqdimnomasiga muvofiq kiritiladigan da'volar yuzasidan;

11) nogironlarning jamoat birlashmalari, shuningdek ularning muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari — barcha da'volar bo'yicha;

12) tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari — zarar etkazuvchidan quyidagi summalarni undirish to'g'risidagi regress da'volar bo'yicha:

jabrlanuvchiga yoki uning oila a'zolariga to'langan pensiyalar va nafaqalar summalarini;

benzinga, avtomototransport vositalarini ta'mirlashga, ularga texnik xizmat ko'rsatishga va ehtiyot qismlar olish, nogironlarni avtomototransport vositalarini haydashga o'rgatishga ketadigan xarajatlarni qoplash summalarini;

13) da'vogarlar va javobgarlar — sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organlari — majburiy sug'urta operatsiyalari bilan bog'liq barcha ishlar bo'yicha;

14) «O'zagrosug'urta» davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi, uning direksiyasi va joylardagi bo'linmalari — qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan bank kreditlarini to'lamaslik xavfini hamda qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirish, shuningdek fyuchers kontraktlar bo'yicha ishlarni amalga oshirish uchun oldindan beriladigan mablag'larning qaytarilishini sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha to'langan sug'urta to'voni uchun qishloq xo'jaligi korxonalaridan qarzni undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

15) O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, uning joylardagi organlari — suv to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tufayli davlatga etkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun mablag'larni davlat daromadiga undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

16) tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari — qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini ko'zlab berilgan da'volar bo'yicha;

17) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari — atrof muhitni ifloslantirganlik, tabiatdan o'zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishning tartib va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy ob'ektlarga va komplekslarga etkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

18) O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi hamda uning joylardagi organlari — standartlarni, texnik shartlarni joriy etish va ularga rioya etilishi hamda mahsulotlar sifati ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar yoki shunday vakolatga ega bo'lgan boshqa organlar jo'natishni man etgan mahsulotlarni etkazib bergan yuridik shaxslardan byudjet daromadiga jarimalar undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

19) O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari — davlat mulkiga etkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun davlat daromadiga mablag'lar undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

20) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi — investorlarning, shuningdek davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir da'volar bo'yicha;

21) davlat soliq xizmati organlari, moliya hamda bojxona organlari, shuningdek monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash organlari — barcha ishlar va hujjatlar bo'yicha, shuningdek alohida yuritiladigan ishlar bo'yicha sudga arizalar berganlik uchun;

22) prokuratura organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

23) adliya organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

24) undiruvchi yoki sud ijrochisi — qonunda nazarda tutilgan taqdirda, qarzdorni yoki uning mol-mulkini qidirish bo'yicha xarajatlarning o'rnini qarzdor tomonidan qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan.

**Davlat boji boshqa organlar va tashkilotlar tomonidan undirishning o'ziga xos xususiyatlari.** Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun davlat boji dalolatnomalarni ro'yxatda qayd etish chog'ida, takroriy guvohnomalar berganlik uchun esa, ular berilayotganida to'lanadi.

SHaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) tomonidan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik hamda ular tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun davlat boji tasdiqlangan shakldagi kvitansiya berilgan holda naqd pulda to'lanadi.

CHet elga chiqish, O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish huquqini beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirganlik uchun, bu hujjatlarga o'zgartirishlar kiritganlik uchun, shuningdek yashash guvohnomasini, fuqaroligi bo'lmagan shaxs guvohnomasini berganlik yoki ularning muddatini uzaytirganlik yoxud chet ellik fuqarolarning pasportlariga yoki ularning o'rnini bosadigan hujjatlariga chiqib ketish yoki kirib kelish huquqini beradigan vizalar qo'yganlik uchun davlat boji tegishli hujjatlar olinguniga qadar, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risidagi arizalardan esa, bunday arizalar berilguniga qadar to'lanadi.

CHet eldan kirish va chet elga chiqish huquqini beruvchi hujjatlarni, yashash guvohnomasini, fuqaroligi bo'lmagan shaxs guvohnomasini berganlik yoki ularning muddatini uzaytirganlik, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to‘g‘risidagi arizalardan, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan chet elga xizmat safariga yuboriladigan fuqarolarning xorijga chiqish huquqini beruvchi hujjatlardan davlat boji belgilangan tartibda ushbu korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan to‘lanadi.

CHet elga xizmat safariga yuborilgan xodimlar bilan birgalikda ularning xotini va bolalari xizmat safarining butun muddatiga safarga borganida davlat boji xizmat safariga yuborilganlarning o‘zlaridan undirilgani kabi tartibda va miqdorlarda undiriladi. Oila a‘zolari chet elga xizmat safariga yuborilgan shaxsning oldiga mehmon bo‘lib oddiy safarga borganlarida davlat boji umumiy asoslarda undiriladi.

CHet ellik fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasidan chiqishga vizalar berganlik uchun davlat boji har bir shaxsga alohida viza yoki bir nechta shaxsga umumiy viza berilayotganligidan qat’i nazar, o‘n olti yoshga to‘lgan har bir shaxsdan undiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyga qayd etganlik, ov qilish huquqi uchun ruxsatnoma berganlik uchun davlat boji hujjat berilayotganda to‘lanadi.

**Davlat boji to‘lovlarini va tushumlarini hisobga olish.** Davlat boji naqd pulsiz o‘tkazilganligiga doir to‘lov topshiriqnomalari, bankning davlat bojini to‘lash uchun pul qabul qilib olinganligi to‘g‘risidagi kvitansiyasi davlat bojini undiradigan davlat organlarida qoladigan tegishli materiallarga qo‘shib qo‘yiladi.

Notarial harakatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish reestrda kiritilgan davlat boji summasi, bank hujjatining sanasi va raqami ko‘rsatiladi.

SHaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig‘inlarining raislari (oqsoqollari) to‘lovchiga davlat boji to‘langanligi to‘g‘risida kvitansiya beradi, to‘lovchilarga beriladigan tasdiqlangan hujjatlarga, ushbu hujjatlarning nusxalariga hamda shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig‘inlari daftarlariga esa, undirilgan davlat boji summasi to‘g‘risidagi kvitansiyaning raqami ko‘rsatilgan holda belgi qo‘yiladi.

SHaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) tomonidan fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilayotganda to‘langan davlat boji summasi to‘g‘risidagi yozuv dalolatnomalar daftaridagi maxsus shu uchun mo‘ljallangan joyga yoki dalolatnoma oxiriga kiritiladi. Bunda davlat boji to‘langanligi to‘g‘risidagi yozuv davlat bojini to‘lagan shaxs tomonidan albatta tasdiqlanishi kerak.

Davlat bojini to'lashdan tushgan summalar tushumlar ro'yxatiga yoziladi va kunning oxirida umumiy yakun bilan shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlarining kassa daftariga kiritiladi.

To'lovchilar davlat bojini to'lashdan ozod etilgan hollarda, tegishli hujjatlarga (reestrlarga, daftarlarga va boshqa shu kabilarga) tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari ilova qilingan holda belgi qo'yiladi.

Davlat boji tushumlarini hisobga olish davlat bojini undiradigan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan tegishli davlat organlari bilan kelishilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat boji tushumlari bo'yicha hisobot davlat bojini undiruvchi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'zlari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga yilning har choragida, hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan taqdim etiladi.

**Davlat bojini qaytarish tartibi.** Davlat boji quyidagi hollarda to'liq yoki qisman qaytarilishi kerak:

1) davlat boji qonun hujjatlarida talab qilinganidan ortiqcha miqdorda to'langanida;

2) sud arizani (shikoyatni) qabul qilishni rad etganida, shuningdek davlat notarial idoralari yoki shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) notarial harakatlarni amalga oshirishni rad etganda;

3) arizasi (shikoyat) harakatsiz qoldirilganligi munosabati bilan da'vogarga qaytarib berilganda;

4) agar ish sudga taalluqli bo'lmasa, ishni yuritish tugatilganda;

5) ariza ko'rmasdan qoldirilganda, agar u muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

6) ishda qatnashgan shaxs vafot etganida, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'yilmasa;

7) da'vogar nizoni sudga qadar hal etish (pretenziya bildirish) tartibiga rioya etmaganida, agar bu hol qonunda ushbu toifadagi nizolar uchun yoki taraflarning shartnomasida nazarda tutilgan hamda bunday hal etish imkoniyati boy berilgan bo'lsa;



8) voyaga etmagan bolalari bo‘lmagan er-xotinning nikohi o‘zaro rozilik asosida bekor qilinganligini qayd etish uchun davlat boji to‘langanda, agar er-xotinning yarashishi yoki ulardan birining sudga kelmaganligi tufayli nikohni bekor qilish amalga oshirilmagan bo‘lsa;

9) agar ishda qatnashayotgan yuridik shaxs tugatilgan bo‘lsa;

## II. AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN MATERIALLARI



### 1-mavzu

### *Soliqlar va soliqqa tortish fanining predmeti, mazmuni va o‘rganish usullari.*

**Mashg‘ulotning maqsadi:** talabalarni O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi bilan yaqindan tanishtirib, ularning iqtisodiy bilimlarini, fan bo‘yicha nazariy va amaliy bilim ko‘nikmalarini hosil qilish.

#### **Vazifalar:**

- 1.«Soliqlar va soliqqa tortish» fani alohida iqtisodiy fan sifatida o‘rganishdagi mavjud usullar.
2. Soliqlarning ob‘ektiv zarurligi, funksiyalari, va vazifalari.
- 3.Soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o‘zaro munosabatlari.
4. Soliqlarning mavjud va amaldagi tamoyillari.

#### **Talaba bilishi lozim:**

Soliqlar tushunchasi, soliqlarning ob‘ektiv zarurligi, funksiyalari va vazifalari, soliqlarni umumiy belgilari, soliq subekti, soliqlarning mavjud va amaldagi tamoyillari.

**Motivatsiya:** soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o‘zaro munosabatlarini ochib berish, soliqlarning mavjud va amaldagi tamoyillari to‘g‘risidagi bilimlarni mustaxkamlash.

Iqtisodiy va ijtimoiy fanlararo va fan ichidagi bog‘liqlik. Soliq va soliqqa tortish fani iqtisodiyot nazariyasi, kredit, iqtisod, buxgalteriya xisobi, falsafa, tarix fanlari bilan uzviy bog‘liq.

#### **Nazariy qism:**

**«Soliqlar va soliqqa tortish» fani alohida iqtisodiy fan sifatida o‘rganishdagi mavjud usullar.**

Davlat asta sekin rivojlanib borishi bilan, uning funksiyalari ham muvofiq ravishda kengayib boradi. Bu esa soliq'larga nisbatan qo‘yiladigan talabning kuchayishiga olib keladi. SHu sababli soliq tizimi tobora murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib boradi. Kishilik jamiyati rivojlanishi tarixi shuni ko‘rsatadiki, davlat ma‘muriy boshqaruv bilan shug‘ullangan hollarda uning ehtiyojlari ma‘lum darajada saqlanib qoladi, davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarish majburiyati paydo bo‘lsa, uning xarajatlari

va aholidan olinadigan tushumlari muxim o‘ringa ega bo‘ladi. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining predmeti – bu soliq to‘lovchilarning soliq va ularga tenglashtirilgan to‘lovlarning iqtisodiy mohiyati, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati, soliq tizimi va siyosati, soliq turlarlari bo‘yicha belgilangan imiyozlar tizimi, soliqlarni hisoblash mexanizmining amaldagi holatini o‘rganishdan iborat.

Har bir fanning shakllanishi fan predmeti shakllanishi bilan birgalikda, uning ilmiy bilish usullari qaror topishi bilan ham bog‘liq. Har qanday fanni o‘rganishdagi usullar umumiy tavsifga ega, lekin har bir fan o‘z predmetidan kelib chiqib, o‘zining ilmiy bilish usullariga ega. SHuning uchun fanni o‘rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo‘linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o‘rganishning birdan-bir to‘g‘ri ilmiy usuli dialektik usuldir. SHuning uchun ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan soliq va soliqqa tortish fanining ham nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko‘rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo‘ladi. Bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. SHuning uchun ushbu usul tadqiqotning induksiya va deduksiya usullarini o‘z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo‘lsa – induksiya hisoblanadi. Avval boshdanoq barcha xususiy hollarni o‘z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa – deduksiya hisoblanadi.

SHu bilan birga barcha iqtisodiy fanlar kabi «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining ham o‘ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy abstraksiya usulidir. Ilmiy abstraksiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida ob‘ektning faqat bir tomoniga, o‘rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e‘tibor qaratiladi va halal berishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta‘siri e‘tiborga olinmaydi.

“Soliqlar va soliqqa tortish” fani shuningdek, o‘z predmetini o‘rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil - o‘rganilayotgan butun ob‘ektning qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish bo‘lsa, sintez esa o‘rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliq turlarini hisoblash va byudjetga undirish tartiblarining amaliy masalalari mazkur yo‘l bilan o‘rganiladi.

Fanni o‘rganishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holda tahlilni qo‘shib olib borish muhim o‘rin tutadi. Soliqlarni hisoblash va byudjetga to‘lashning amaldagi masalalarini mikroiqtisodiy jihatdan o‘rganishda iqtisodiyotning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar nuqtai nazaridan, ular bilan davlat byudjeti o‘rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya‘ni soliq va soliq munosabatlariga doir masalalar makroiqtisodiy darajada o‘rganiladi.

SHuningdek, fanni o‘rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullardan ham foydalaniladi. Jumladan soliqlarni davrlar bo‘yicha taqqoslash, ulardan tushumlarni jadvallar orqali ifodalash, o‘zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta‘sirini grafik usulda tasvirlash

va shu kabilardir. Masalan, soliqlar o'zgarishini yalpi talab va yalpi taklifga ta'sirini mana shu usul bilan ifodalash mumkin.

### **Soliqlarning ob'ektiv zarurligi, funksiyalari va vazifalari.**

Soliqlarning ob'ektiv zarurligini ikki holat: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari bilan ifodalash mumkin.

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. Bularga respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo'jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Davlat kuchli ijtimoiy - siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, nafaqaxo'rlar, talabalar, ko'p bolali onalar va mahallalarda kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etadi. SHu bilan birga, O'zbekiston davlati jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o'q-dorilarga ham mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o'rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ham ob'ektiv zarur qilib qo'yadi.

Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Davlat uchun byudjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. Davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbaidir.

Soliqlar qadimgi davrlardan e'tiboran olingan, ammo u vaqtlarda soliqlar ozod va erkin bo'lmagan kishining belgisi bo'lib xizmat qilgan. Adam Smit (shotland faylasufi va iqtisodchisi, 1723-1790) o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab berdi, soliqlarning ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to'lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.

Kuyidagilarni ifodalash mumkin:

- a) soliqlarni belgilash huquqi faqat davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi - parlamentga beriladi;
- b) soliqni fuqaro emas, mulkdor to'laydi;
- v) soliq davlat byudjetiga daromad olish uchun belgilanadi;

g) soliq to'lash majburiy xususiyatga ega.

Soliqlar - byudjetga tushadigan pul va qonunda belgilangan majburiy munosabatlardir. Soliqlarning majburiyligi huquqiy va me'yoriy qonunlar bilan ta'minlanadi. Soliqlarni to'lamaslikka, soliq ob'ektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko'rsatishga huquqiy va jismoniy shaxslarning haqqi yo'q.

Soliq to'lash xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliq byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay:

-mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;

-ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investitsiyalarni ko'paytirishga;

-raqobatbardosh mahsulot hissasini ko'paytirishga;

-mikrofirma va kichik biznesni rivojlantirishga;

-xususiy korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmasini barpo qilishga;

-umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Soliqlar respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi. Imtiyozlar yordamida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi va hokazo.

Soliqlar - davlat byudjeti bilan chambarchas bog'langan. Chunki soliq byudjetning shakllanishida ishtirok etadi.<sup>15</sup>

Soliqlar moliyaviy resurslarni davlat ixtiyorida to'planib borishini ta'minlaydi, bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, mintaqaviy vazifalarni hal qilish, ishning samaradorligi va sifatini rag'batlantirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib daromadlarni tartibga solish uchun foydalaniladi.

### **Soliqlarning funksiyalari va vazifalari:**

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Har bir iqtisodiy kategoriyaning o'z funksiyasi mavjud. Soliq ham mustaqil kategoriya sifatida o'zi bajaradigan funksiyalarga ega bo'lib, bu funksiyalar soliq kategoriyasining amaldagi harakatini ifodalaydi. Funksiya deganda, odatda kategoriyaning hayotda ko'p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy xarakterini tushunish lozim.

Soliqlarning asosiy funksiyalari:

1. Soliqning fiskal funksiyasi.

2. Tartibga solish funksiyasi.

3. Rag'batlantirish funksiyasi

4. Soliqning nazorat funksiyasi.

5. Soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi.

<sup>15</sup> Вахобов А., Срожиддинова З. Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети. –Т.: ТМИ, 2002. 36 – бет.

Soliqlarning asosiy funksiyasi - **fiskal funksiya** hisoblanib (lotincha fiscus soʻzidan olingan boʻlib, xazina degan maʼnoni anglatadi), bu funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat koʻrsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlarni oʻndirib olish yoʻli bilan davlat byudjetining daromad qismini shakllantiriladi - bu oʻz navbatida soliqlarni fiskal funksiyasining eng muhim elementi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan fiskal funksiyaning ahamiyati oshib boradi. Soliq tizimi oʻzining fiskal funksiyasi va vazifalarini bajarishi jarayonida ishlab chiqarish oʻsishiga, jamgʻarish jarayoniga halal bermasligi, ijtimoiy adolatni buzmasligi hamda mamlakat iqtisodiyotining umumiy tuzilmasida buzilishlar va chetga chiqishlar sodir boʻlishiga yoʻl qoʻymasligi, bozor jarayoniga putur etkazmasligi kerak.

Soliqlarning ushbu funksiyasi orqali hosil boʻladigan pul resurslari davlat fondi (davlat byudjeti) orqali qayta taksimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, ustuvor tarmoqlarni investitsiyalashga yoʻnaltiriladi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funksiyasi ularning **iqtisodiyotdagi tartibga soluvchilik** roli hisoblanadi, yaʼni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan «soliq muhiti»ni yaratadi. Ushbu funksiya orqali soliq tizimiga taʼsir koʻrsatadi, yaʼni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish surʼatlarini ragʻbatlantiradi yoki jilovlab turadi, sarmoyaning bir tarmoqdan soliq muhiti eng maʼqul boʻlgan boshqa tarmoqqa qoʻyilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek aholining toʻlovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

**Ragʻbatlantirish funksiyasi** soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri boʻlib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom-ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamgʻarilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga ragʻbatlantiruvchi taʼsir koʻrsatadi, yaʼni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga ragʻbatlantiradi.

Soliqlarning **nazorat funksiyasi** soliq toʻlovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish obʼekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq koʻrsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq toʻlovchilar oʻzlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

**Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan taʼminlash funksiyasi** ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funksiya orqali xarajatlar hajmi va konkret soliqlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarishga sarflanganligi toʻgʻrisida axborot berib turilishi, soliqlarning byudjetga tushishiga toʻliq, oʻz vaqtida va oson kechishiga yordam beradi.

**Soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan oʻzaro munosabati.**

Soliqlarning umumiy belgilari:

1. Soliq to'lovchi pulning u yoki bu summasini davlatga to'lap ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olmaydi. Alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq miqdori bilan u iste'mol qiladigan ijtimoiy ne'matlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatga ko'ra soliq narxdan, (tovar yoki xizmatlarni ixtiyoriy iste'mol qilganligi uchun to'lanadigan haq sifatida) ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik yig'imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to'lovlar hisoblansada, biroq hamma vaqt hukumat tomonidan ko'rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko'rilishi bilan bog'liqdir.

Davlatga to'lanadigan soliqlar bilan uning evaziga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlar o'rtasida bevosita, har bir kishining ko'zi ilg'aydigan bog'liqlikning yo'qligi soliq to'lovchilar soliqqa tortishni yuk sifatida baholashlari uchun sabab bo'ladi.

Alohida olingan soliq to'lovchi odatda jamiyat va o'zining ko'rgan foydasi yoki manfaatini to'lagan soliqlari bilan solishtirib o'tirmaydi. Bu shunga olib keladiki, oqibatda fuqarolarning bir qismi soliqlar to'lashdan bo'yin tovlashga, o'z daromadlarini yashirishga urinadi. Davlat o'z fuqarolaridan yig'ib olgan soliqlarni samarali va oshkora tarzda ishlatsa hamda fuqarolarning aksariyat qismi davlatning ijtimoiy - iqtisodiy va boshqa dasturlarini o'z mablag'lari hisobidan pul bilan ta'minlashga rozi bo'lgandagina yuksak soliq axloqi tamoyillari yuzaga keladi.

2. Soliqlar majburiy to'lovlar hisoblanadi. Soliqlarning to'liq miqdorda va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik soliq to'lovchilar zimmasiga yuklangan bo'lsa-da, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to'laydilar, davlat soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarni qattiq jazolaydi.

3. Davlat foydasiga soliq to'lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo'yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko'zda tutilgan qismi undirib olinadi. Ko'pgina davlatlarning, shu jumladan, O'zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar haqlidirlar, deb mustahkamlab qo'yilgan. To'lovlarning qonuniy, ochiq-oydin xususiyatga ega bo'lishi soliqlarning bosh tavsifi hisoblanadi.

4. Soliqlarning yana bir belgisi ularning davlat yoki mahalliy byudjetga kelib tushishidir, ya'ni soliqlar byudjetdan tashqari fondlar yoki turli xil boshqa fondlarga kelib tushmaydi.

5. Soliqlarga xos bo'lgan umumiy belgilardan biri sifatida davlat hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mulkchilikni qayta taqsimlash jarayonining yuzaga kelishidir.

### **Soliqlarning mavjud va amaldagi tamoyillari.**

Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliqqa tortish samarali tizimning quyidagi tamoyillarini ta'riflab o'tish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida soliqqa tortish tamoyillari soliq qonunchiligi tamoyillari deb atalib, uning oltita tamoyili (5-modda) belgilab berilgan:

**1.Soliq solishning majburiyligi prinsipi;**

**2.Soliq solishning aniqligi prinsipi;**

**3.Soliq solishning adolatliligi prinsipi;**

**4.Soliq tizimining yagonaligi prinsipi;**

**5.Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi prinsipi;**

**6.Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi.**


Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillarini to'liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

#### VAZIFALLAR

##### **Aqliy hujum qoidalari:**

- Xech kandy uzaro tankid va baxolash bulmasligi kerak!
- Taklif kilinaetgan g'oyaga baxo berishdan saklan, agar u juda yukori va bajarilish extimoli bulmasa xam – xammasiga ruxsat beriladi.
- Barcha keltirilgan g'oyalar qimmatli va teng kuchli – ularni tankid kilmaslik kerak.
- Javob beraetganni tuxtatmaslik kerak!
- Kamchilik kursatishdan saklan!
- Maksud mikdor xisoblanadi!
- Kancha kup fikr bildirilsa shunchaga yaxshi: YAngi va qimmatli g'oyaning tugilishiga extimol shunchalik ko'p bo'ladi.
- Fikrlar takrorlansa e'tibor bermaslik kerak.
- Paydo bo'lgan g'oyani agar u sening nazaring bo'yicha qabul qilingan sxemaga javob bermasa ham tashlab yubormaslik kerak.

Venna-diagrammadan foydalanib soliq va ajratmalar o'rtasidagi umumiylik va alohida xususiyatlarini (mohiyati) jihatidan belgilang.



**soliq tushunchasini T-sxema bo'yicha aniqlash.**

SHakli va iqtisodiy mazmuni bo'yicha



1. Davlat xizmatlari uchun
2. Davlat uchun dastak.
3. Pul.
4. Majburiy to'lov.
5. Majburiy pul munosabatlari.
6. YAIMni taqsimlashdagi pul munosabatlari.
7. Davlat pul fondlariga tushadigan summa.
8. Faqat byudjetga tushadigan summa.
9. Majburiy ajratmalar.
10. qonun bilan belgilangan to'lov.
11. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 12 moddasida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beqaraz qususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlaridir.

**4- ilova.**

**Soliqlar mohiyatini ochish uchun T-sxemadan foydalanib javob bering.**

1. Ma'naviy kategoriyasi.
2. Iqtisodiy kategoriya.
3. Moliyaviy kategoriya.
4. Moliya-iqtisodiy kategoriya.
5. Davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi pul munosabatlari (mulkiy munosabatlari)ni ifodalovchi kategoriya.

**5-ilova.**

**Bilimlarni jonlantirish uchun savollar (blits–so'rov)**

1. Soliqlarning yigimlar va boshqa to'lovlardan farqli jihatlarini aytib bering?
2. Soliqlar iqtisodiy kategoria sifatida aqamiyati qanday?
3. Soliqlarning ob'ektiv zarurligi nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Soliqlarning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?
5. Soliqlarning fiskal funksiyasini tushuntirib bering?

**Nazorat savollari.**

- 1.«Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o‘qitishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
- 2.«Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o‘qitish nima uchun kerak?
- 3.Fanni o‘rganishdagi alohida usullar haqida tushuncha bering?
- 4.«Soliqlar va soliqqa tortish» fani qaysi iqtisodiy fanlar bilan aloqadorlikda o‘rganiladi?
- 5.Fanni o‘rganishdagi umumiy usullar haqida tushuncha bering?
- 6.«Soliqlar va soliqqa tortish» fani soliq munosabatlarining qaysi jihatlarini o‘rgatadi?
- 7.«Soliqlar va soliqqa tortish» fanining soliq xizmati xodimlarini tayyorlashdagi roli qanday?
- 8.«Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o‘rganishning qanday usullari mavjud?
- 9.Soliqlarning yig‘imlar va boshqa to‘lovlardan farqli jihatlarini aytib bering?
- 10.Soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida ahamiyati qanday?

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O‘zbekiston, 2007 y.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - T.: “Norma”, MJCh. 2008 y. -416 b.
- 3.Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. -T.: ”Fan va texnologiya”. 2007.
4. R.R. Xusainov , A.Q. Isxfqov , D.T. Urmanova X,Z, Djurayev . 2 qism Moliya va soliqlar 2 qism. Toshkeht “Voriz- Nashriyot” 2014
- 5.Aleksandrov I. Nalogi i nalogooblojenie.: Uchebnik. –M.: “Dashkov i K”. 2006..
- 6.Jo‘raev A. Soliq nazariyasi: O‘quv qo‘llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2004.

## 2-mavzu

### *O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning shakllanishining nazariy asoslari. Soliq siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari.*

**Mashg‘ulot maqsadi:** Tinglovchilarda soliq siyosatini shakllantirish, soliq tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati, soliq tizimini guruxlanishi hamda iqtisodiy mohiyatiga va budjetga tushishiga ko‘ra bo‘linishi bo‘yicha kunikmalar xosil qilish xamda shu soxadagi bilimlarini mustaxkalash va chukurlashtirish

#### **Vazifalar:**

- 1.Soliq siyosati tushunchasi va xukukiy nazariy asoslari.

2.Soliq tizimini guruxlanishi hamda iqtisodiy mohiyatiga va budjetga tushishiga ko'ra bo'linishi.

3.Soliq tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati

**Talaba bilishi lozim:***Soliq siyosati tushunchasi, soliq siyosatining xukukiy va nazariy asoslari,soliq subekti, soliq tamoyillari,soliqtizimi,soliq to'lovchilar, soliq xizmati.*

**Motivatsiya:Respublikamiz soliq tizimida qo'llanilayotgan soliq siyosatining ustivor yunalishlari to'g'risida kunikmalar xosil kilish. Olib borilayotgan soliq siyosati va uni yanada takomillashtirishning tub mohiyatini chukurrok anglab olish.**

**Fanlararo va fan ichidagi bog'liqlik:***“Soliq va soliqqa tortish fani”“Soliq nazariyasi”, «Iqtisodiyot nazariyasi», «Moliya» va «Pul kredit va banklar» kabi iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liq.*

## **Nazariy qism**

### **Soliq siyosati tushunchasi va uning huquqiy nazariy asoslari .**

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy siyosat ham o'z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Soliq siyosati iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va unga tenglashtirilgan to'lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir. Prezidentimiz I.A. Karimov soliq siyosati to'g'risida quyidagi fikirni bildirgan: «Soliq siyosatining vazifasi - bir tomondan, davlat byudjeti daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdan, ikkinchidan, korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat»<sup>16</sup>.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 31 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonuni, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1991 yil 15 fevraldagi O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmaganlarning daromad solig'i to'g'risida»gi, 1993 yil 7 maydagi «Mahalliy soliqlar va yig'implar to'g'risida»gi Qonunlari, 2007 yilda qabul qilingan va 2008 yilning 01 yanvaridan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi

<sup>16</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1998. 52-б

Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi me‘yoriy hujjatlardan iborat.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni, Prezident Farmonlari, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, va boshqa me‘yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Soliq konsepsiyasi - soliqlarning yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish goyalarining yaxlitligidir.

Soliq siyosati barqarorligini ta‘minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim. Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e‘tiborga olib soliq siyosati: soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasiga bo‘linadi.

Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa o‘z navbatida ilmiy asoslangan soliq konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib erkin, ochiq bozor iqtisodiyotiga, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat byudjeti va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida muayyan uyg‘unlikni ta‘minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir.

Soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta‘minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi say‘i-harakatlarni bildiradi, ya‘ni qisqa muddatli va kichik ko‘lamli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo‘nalishlar majmuasi - soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.

Soliq siyosati konsepsiyasi, soliq siyosati strategiyasiga va soliq siyosati taktikasibir-biriga bog‘liq holda, bir-birini to‘ldirib turadi hamda yaxlit holda soliq siyosatining mohiyatini tashkil qiladi.

Ijro hokimiyati bo‘lgan Vazirlar Mahkamasi va uning bo‘linmalari, Davlat Soliq Qo‘mitasi, Moliya Vazirligi, Adliya Vazirligi, Iqtisodiyot Vazirligi, mahalliy hokimiyatlar va boshqa tegishli organlar tomonidan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to‘lovlarning ishlash mexanizmini ta‘minlashga xizmat qiluvchi huquqiy-me‘yoriy hujjatlar orqali ularning ijrosi ta‘minlanadi.

Ijro hokimiyatining bir bo‘g‘ini hisoblangan Davlat soliq qo‘mitasining soliq siyosati ijrosini ta‘minlashdagi alohida o‘ringa ega. Bundan tashqari, har yilning oxirida kelgusi yil uchun amal qiladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliq stavkalarini tasdiqlash, o‘zgartirishlar kiritish Prezidentimiz qarori bilan amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan umumdavlat soliqlari va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishga qaratilgan mahalliy soliqlar va yig‘imlar amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 23-moddasiga asosan respublikada 10 ta soliq va 5 ta boshqa majburiy to‘lovlar joriy etilgan.

Soliqlar umubelgilangan tartibda va soddalashtirilgan tartibda to‘lanadi.

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) er solig'i;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:  
yagona ijtimoiy to'lov;  
fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;  
byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- 2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:  
Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;  
Respublika yo'l jamg'armasiga yig'implar;
- 3) davlat boji;
- 4) bojxona to'lovlari;
- 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida quyidagi soliqlar to'lanadi:

-yagona soliq to'lovi; -yagona er solig'i; -tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

**Soliq tizimini guruhlanishi xamda iqtisodiy mohiyatiga va byudjet yo'nilishiga ko'ra bo'linishi.**

Soliq tizimining asosi bo'lgan soliqlar o'ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko'ra guruhlanadi.

. Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari, yig'implari va boshqalar kiradi.
2. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to'lovchi sub'ektlar tasarrufida mavjud bo'lgan mol-mulkdan, erdan va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliqlardan iborat.
3. Daromaddan olinadigan soliqlar. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslarning daromad solig'i va boshqalar kiradi.

Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga, to'lovchi bilan davlatning o'zaro munosabatlariga bevosita yoki bilvosita bog'liqligiga ko'ra to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlar to'g'ridan-to'g'ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli). Tovarining bahosida to'lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar egri soliqlarga kiradi. Tovar va xizmatlarning egasi ularni sotishda soliq summalarini olib, ularni davlatga o'tkazadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan - to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi xam bitta shaxs hisoblanadi.

Egri soliqlar bahoga yoki tarifga ustama sifatida belgilanadigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlardir. Egri soliqlarga tortishda davlat tovar yoki xizmatlarning sotilishi paytida ushbu qiymatning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qilish bilan aslida yangi qiymatning taqsimlanishining ishtirokchisi bo'lib qoladi. Egri soliqlar to'g'ri soliqlardan farqli ravishda to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi.

Egri soliqlarning huquqiy to'lovchisi mahsulot ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar, haqiqiy to'lovchisi esa iste'molchilar hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan to'g'ri va egri soliqlar tarkibiga quyidagi soliqlar kiradi

To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar
Yuridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'i	Qo'shilgan qiymat solig'i
Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq	Aksiz solig'i
Er solig'i	Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyuldirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq
Mol-mulk solig'i	Bojxona to'lovlari.
Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.	
Infratuzilmani rivojlantirish solig'i.	

Respublikamizda soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantirishiga qarab asosan ikki guruhga bo'linadi-umumdavlat soliqlar va mahalliy soliqlar.

Umumdavlat soliqlariga quyidagilar kiradi.

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Umumdavlat soliqlari har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi.

Mahalliy soliqlar va yig'implarga quyidagilar kiradi:

mol-mulk solig'i;  
er solig'i;  
infratuzilmani rivojlantirish solig'i;  
jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;  
ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'implari;  
yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im.  
Umumdavlat soliqlari asosan respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, mahalliy soliqlar va yig'implar mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi.

### **Umumiy tartibda soliq to'lovchi yuridik shaxslar quyidagi soliqlarni to'laydi:**

Daromad (foyda) solig'i;  
Qo'shilgan qiymat solig'i;  
Aksiz solig'i;  
Mol-mulk solig'i;  
Er solig'i;  
Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;  
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;  
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.  
YAgona soliq tizimiga o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar quyidagi soliqlarni to'laydi:  
YAgona soliq to'lovi;  
Aksiz osti tovarlarini ishlab chiqargan holda aksiz solig'i.  
YUqorida qayd etilganlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchilar ikki katta guruhga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhiga bo'linadi va ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatidan kelib tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar katta ahamiyatga egaligini yuqoridagi ma'lumotlardan bevosita ko'rishimiz mumkin.

### **Soliq tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati .**

Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan, «avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani-fiskal, qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak»,<sup>17</sup> - degan fikr bildirilgan edi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishi bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan qator ilmiy asoslangan soliqlarni joriy etish va shu orqali mavjud soliq tizimini tubdan qayta tashkil etishdan iborat bo'ldi. Soliq siyosatining keyingi yo'nalishi esa joriy etilgan soliqlarning samarali amal qilishini ta'minlash maqsadida soliq munosabatlarini amalga oshiruvchi tegishli muassasalarni tashkil etishga qaratildi. Xususan, dastlab 1992 yilda Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq bosh boshqarmasi tashkil etilgan bo'lsa,

<sup>17</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1998. 358-б.

1994 yilga kelib bu boshqarma Davlat Soliq Qo‘mitasiga aylantirildi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi. DSK, DSBlar, DSIlar.....

Bundan ko‘rinadiki, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning birinchi bosqichida soliq siyosatida asosan tashkiliy jihatlariga e‘tibor qaratildi, ya’ni soliqlarni joriy etish va soliq siyosatini bevosita amalga oshiruvchi tegishli muassasalar shakllantirildi.

Mustaqillik yillarida soliq tizimi islohoti rivojlanishini yaqqol ko‘rsatish uchun shu davrni to‘rt bosqichga bo‘lib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi bosqich 1991-1994 yillar - O‘zbekistonning o‘z soliq tizimini tashkil etish va soliqlarning xaznaviy ahamiyatini oshirish bosqichidir.

Soliq islohotlarining ikkinchi bosqichi soliqlarni bozor iqtisodi talablariga moslashtirish va korxonalarining ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratish davridir. Bu davrga 1995 —1997 yillar to‘g‘ri keladi.

Soliq islohotining uchinchi bosqichi 1998 yildan 2007 yilning oxirigacha davom etdi. Bu bosqichni soliq tizimida soliqlarni ixchamlashtirish konsepsiyasining boshlanish davri deb atash mumkin.

To‘rtinchi bosqich 2008 yil 01 yanvardan yani O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini amalda kuchga kiritilishi bilan boshlandi va hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.

Bu bosqichda soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarga imkoni boricha soddalashgan, ixchamlashgan soliq tizimi joriy etilib, ularning soliq hisoblari, hisobotlarini, soliq to‘lash muddatlari ixchamlashtirilmokda va soliq yuki muntazam ravishda yildan yilga kamaytirilmokda.

## VAZIFALAR

### **Soliq siyosati va soliq konsepsiyasining farqini T-sxema asosida ishlab chiqing.**

1. Joriy yilga mo‘ljallangan soliq sohasidagi tadbirlar.
2. Uzoq yillarga mo‘ljallangan soliq sohasidagi tadbirlar.
3. Asosiy yo‘nalishlar (Konsepsiyalar) ko‘rsatiladi.
4. Aniq yo‘nalishlar ko‘rsatiladi.
5. Qonunlar, hujjatlar ko‘rsatiladi.
6. Mamlakat miqyosida uzoq yillarga qabul qilingan soliq siyosati to‘g‘risidagi Oliy Majlis qabul qilgan Qonun yoki qaror ko‘rsatiladi.

Soliq siyosati	Soliq siyosati konsepsiyasi
1.	1.
2.	2.
3.	3.
4.	4.

Tinglovchilar o‘z fikrlarini qo‘shishi va uni himoya qilishiga ruxsat beriladi. T-sxema guruhlar tomonidan muhokama qilinadi va guruh etakchilari himoya qiladi. Guruhlar bir-birlarining chiqishlarini baholaydilar.



## **Insert texnikasidan foydalanib ishlash qoidasi**

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

\* - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq( aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring:

Mavzu savollari	V	-	*	?
1.				
2.				
3.				

### **Nazorat savollari.**

1. Soliq siyosati haqida tushuncha bering?
- 2.Soliq siyosatining taktikasi hakida gapirib bering?
- 3.Soliq siyosatining konsepsiyasi to'g'risida ma'lumot bering?
- 4.Soliq siyosati strategiyasi deganda nimalarni tushunasi
- 5.O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
- 6.Soliqlarni iqtisodiy mohiyatiga ko'ra guruhlang?
- 7.Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?
- 8.Hozirgi kunda respublikamizda olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy yo'nalishi nimalardan iborat

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O‘zbekiston, 2007 y.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - T.: “Norma”, MJCh. 2008 y. -416 b.
- 3.Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. -T.: ”Fan va texnologiya”. 2007.
4. R.R. Xusainov , A.Q. Isxfqov , D.T. Urmanova X,Z, Djurayev . 2 qism Moliya ya soliqlar 2 qism. Toshkeht “Voriss- Nashriyot” 2014
- 5.Aleksandrov I. Nalogi i nalogooblojenie.: Uchebnik. –M.: “Dashkov i K”. 2006..
- 6.Jo‘raev A. Soliq nazariyasi: O‘quv qo‘llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2004.

### 3-mavzu

## ***O‘BEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ KODEKSI VA UNDAGI MA‘MURCHILIK MASALALARI***

***Mashg‘ulot maqsadi***Soliq majburiyatlarini yoritish. Soliq nazorati bilan tanishtirish. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik muammolari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish

#### ***Vazifalar.***

- 1.Soliq majburiyatlari.
- 2.Soliq nazorati
- 3.Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik.

#### **Talaba bilishi lozim.**

Soliq majburiyati tushunchasi, soliq majburiyatini bajarish tartibi, soliq xisoboti, soliq to‘lovchilar, soliq qarzi, soliq nazorati, davlat soliq xizmati, fiskal siyosati, soliqqa oid huquqbuzarliklar

***Motivatsiya:*** soliq solish ob’ektlari va soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi; moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi; soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq miqdorda to‘lashi shartlari to‘g‘risidagi bilimlarni rivojlantirishda faol qatnashish imkonini beradi.

**Fanlararo va fan ichidagi bog‘liqlik.** Solik va solikka tortish fani “Soliq nazariyasi”, «Iqtisodiyot nazariyasi», «Moliya» va «Pul kredit va banklar» kabi iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog‘liq..

Nazariy qism.

1. Soliq majburiyatlari.

**Soliq majburiyati.** Soliq to‘lovchining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e‘tirof etiladi.

**Soliq majburiyatini bajarish** Soliq majburiyatini bajarish uchun soliq to‘lovchi: Soliq Kodeksda belgilangan hollarda davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi; soliq solish ob‘ektlari va soliq solish bilan bog‘liq ob‘ektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi; moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi; soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq miqdorda to‘lashi shart.

**Soliq majburiyatini bajarish muddatlari.** Soliq majburiyati soliq Kodeksda belgilangan muddatlarda soliq to‘lovchi tomonidan bajarilishi kerak.

Soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatidan ilgari bajarishga haqli.

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, yil choragi, oy, o‘n kunlik va kun) o‘tishi bilan belgilanadi.

Muddatning o‘tishi kalendar sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo‘yilgan voqea yuz berganidan keyingi kundan boshlanadi. Soliq majburiyati bu majburiyatni bajarish muddatining so‘nggi kuni soat yigirma to‘rtga qadar bajarilishi kerak.

Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so‘nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to‘g‘ri kelib qolsa, shundan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi.

**Soliq majburiyatining tugatilishi.** Jismoniy shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

uning vafot etishi bilan;

uni vafot etgan deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirishi bilan.

Yuridik shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

u tugatilganidan keyin;

u qo‘shib olish (qo‘shib olingan yuridik shaxsga nisbatan), qo‘shib yuborish, bo‘lish va o‘zgartirish orqali qayta tashkil etilganidan keyin.

**Soliq majburiyati bo‘yicha da‘vo qilish muddati.** Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko‘rib chiqishi mumkin.

Soliq to‘lovchi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning ortiqcha to‘langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli.

**Soliq hisoboti tushunchasi.** Soliq hisoboti – bu soliq to‘lovchining soliq va boshqa majburiy to‘lovning har bir turi bo‘yicha yoki to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-

kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjat.

**Soliq hisobotini tuzish.** Soliq hisoboti qog'ozda va (yoki) elektron hujjatga doir talablarga rioya etilgan holda elektron hujjat tarzida tuziladi.

**Soliq hisobotini taqdim etish tartibi.** Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

*Soliq to'lovchilar soliq hisobotini o'z xohishlariga ko'ra quyidagicha taqdim etiladi: shaxsan olib borib berish tartibida;*

*pochta orqali buyurtma xat bilan;*

*telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida.*

**Soliq hisobotini saqlash muddati.** Soliq hisoboti davlat soliq xizmati organlarida va soliq to'lovchida soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati mobaynida saqlanadi (5 yil).

**Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati.**

*Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati deb-soliq to'lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati hisoblanadi.*

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati soliq to'lovchining hisobvarag'ida etarlicha pul mablag'lari bo'lgan taqdirda, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash uchun bankka to'lov topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e'tiboran, soliq yoki boshqa majburiy to'lov naqd pul mablag'lari bilan to'langanda esa pul summasi bankka yoki vakolatli organ kassasiga topshirilgan paytdan e'tiboran bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasini o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomasi soliq to'lovchi tomonidan chaqirib olingan yoki bank tomonidan soliq to'lovchiga qaytarilgan taqdirda, shuningdek agar soliq to'lovchi bankka to'lov topshiriqnomasini taqdim etgan paytda bu soliq to'lovchining hisobvarag'iga qo'yilgan, qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda bajarilishi lozim bo'lgan, bajarilmagan talablar mavjud bo'lsa hamda soliq to'lovchi barcha talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqda etarlicha pul mablag'lariga ega bo'lmasa, soliq yoki boshqa majburiy to'lov to'langan deb hisoblanmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash milliy valyutada, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida amalga oshiriladi.

Soliq majburiyatining soliq to'lovchi tomonidan bajarilmaganligi unga nisbatan soliq majburiyatining bajarilishini ta'minlash choralari qo'llash uchun asos bo'ladi.

Soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshirilgan hollarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati davlat soliq organining yozma talabnomasi olingan sanadan e'tiboran yuzaga keladi.

**Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek moliyaviy sanksiyalar byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi tartibda o'tkaziladi:**

**asosiy summa;**

**hisoblangan penya;**

**jarimalar.**

**Soliq qarzini majburiy undirish choralari.** Soliq qarzini majburiy undirish choralari quyidagilar kiradi:

soliq qarzini soliq to'lovchining bankdagi hisobvaraqlaridan so'zsiz undirish; undiruvni soliq to'lovchiga uning debitorlari o'tkazishi lozim bo'lgan summalarga qaratish;

undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish.

Soliq to'lovchi soliq qarzini barcha choralar ko'rilganidan keyin uzmagan taqdirda, davlat soliq xizmati organi uni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etadi.

Soliq qarzini majburiy undirish choralari jismoniy shaxslarga nisbatan faqat sud tartibida qo'llaniladi.

Soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq qarzi summalarini majburiy undirish choralari soliq to'lovchi tomonidan uning natijalari bo'yicha berilgan shikoyat davriga muvofiq to'xtatib turiladi.

**Soliq to'lovchining bankdagi hisobvaraqlaridan soliq qarzini so'zsiz undirish.**

**Undiruvni soliq to'lovchiga uning debitorlaridan o'tkazilishi lozim bo'lgan summalarga qaratish.**

Soliq to'lovchi debitor bilan o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasini taqdim etgan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari undiruvni soliq to'lovchiga *uning debitorlaridan o'tkazilishi lozim bo'lgan summaga qaratadi.*

**Undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish.** *Undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish davlat soliq xizmati organining da'vo arizasi asosida sud tartibida amalga oshiriladi.*

**Umidsiz soliq qarzini hisobdan chiqarish.** Umidsiz soliq qarzini hisobdan chiqarish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Soliq nazorati.**

**Soliq nazoratining shakllari.**

Soliq nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

soliq to'lovchilarni hisobga olish;

soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni hisobga olish; byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish;

kameral nazorat;

naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji;

soliq tekshiruvlari;

fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash;

aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek ayrim

korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish;

davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish;

boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish.

### **Soliq tekshiruvi tushunchasi va shakllari.**

Soliq tekshiruvi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirishdir.

Soliq tekshiruvlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- rejali soliq tekshiruvi;
- rejadan tashqari soliq tekshiruvi;
- muqobil tekshiruv.

### **Soliq tekshiruvlarining ishtirokchilari:**

1- Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari va soliq to'lovchi soliq tekshiruvlarining ishtirokchilaridir. Soliq tekshiruvlarida soliq to'lovchining vakili ishtirok etishi mumkin.

2- soliq tekshiruviga soliq tekshiruvi natijasidan manfaatdor bo'lmagan ekspert, tarjimon va xolislari jalb etilishi mumkin.

3- O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining a'zosi bo'lgan soliq to'lovchilarning soliq tekshiruvida uning vakillari ishtirok etishga haqli.


**Davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qarori.** Davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o'rinbosari soliq tekshiruvi materiallari ko'rib chiqilganidan keyin besh ish kunidan kechiktirmasdan qaror qabul qiladi.

### **Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari:**

1. Davlat soliq xizmati organida hisobga turishdan bo'yin tovlash;
2. Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash yoxud tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish);
3. Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish;
4. Buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzish;
5. Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish;
6. Hisobvara-q-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish;
7. Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilish tartibini buzish;
8. Er uchastkalaridan ularga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarsiz foydalanish.

### **VAZIFALAR**

### **KROSSVORD -1**



**Eniga:** 1. Maqsadsiz jamg'armalarning manbai. 2. Mol-mulk solig'iga tortiladigan ob'ektlardan biri. 3. Tovar (ish, xizmatlar) oldi-sotdi qilinadigan hudud. 4. Yuridik shaxs maqomi shartlaridan biri. 5. Soliq undirish uchun belgilanadigan me'yor. 6. Mamlakatimizda 183 kundan kam muddat yashagan shaxs. 7. Nazorat o'tkazish shakllaridan biri. 8. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra soliqlar tabaqalashtirilgan guruh. 9. Soliqlarni o'z vaqtida yig'ish uchun belgilanadigan chegara. 10. Soliq

summasi undiriladigan manba. 11. Mamlakatimiz hududiga kirib kelayotgan yoki chiqib ketayotgan tovarlarga nisbatan belgilanadigan to'lov turi.

**Bo'yiga:** 12. Belgilangan soliqlarni to'lovchilar va undiruvchilar tarkibi. 13. Soliqlarning to'g'ri hisoblanganligini tasdiqlan belgisi. 14. Stavkalari oshirib borilayotgan soliqlar turkumi. 15. Kichik biznes sub'ekti shakllaridan biri. 16. Tovar (ish, xizmatlar) sotilishida tuziladigan me'yoriy hujjat. 17. Soliq tushunchasini kengroq ifodalovchi so'zlar majmuasi. 18. Bank tashkilotlarining soliqqa tortiladigan ob'ekti.

#### **Nazorat savollari**

1. Soliq majburiyatlari.
2. Soliq nazorati
3. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik.
4. Soliqqa oid xuquqbuzarliklarning turlari

#### **5. Soliq tekshiruv tushunchasi va shakllari**

#### **6. Soliq tekshiruvlarining ishtirokchilari kimlar,**

7. Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami xaqida tushuncha bering

#### **8. Soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnoma**

#### **9. Ortiqcha to'langan soliqlar summalarini qaytarish qanday amalga oshiriladi.**

#### **10. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni engillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar mavjudligi haqida gapirib bering.**

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2007 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - T.: "Norma", MJCh. 2008 y. -416 b.
3. Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. -T.: "Fan va texnologiya". 2007.
4. R.R. Xusainov , A.Q. Isxfqov , D.T. Urmanova X,Z, Djurayev . 2 qism Moliya va soliqlar 2 qism. Toshkeht "Voriz- Nashriyot" 2014
5. Aleksandrov I. Nalogi i nalogooblojenie.: Uchebnik. -M.: "Dashkov i K". 2006..
6. Jo'raev A. Soliq nazariyasi: O'quv qo'llanma. -T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2004.



## 4-mavzu

### *Yuridik shaxslardan olinadigan soliklar.*

**Mashg'ulot maqsadi** YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i haqida talabalarga chuqurroq bilim berish. YUridik shaxslardan olinadigan resurs soliklar: er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar, suv solig'i, er solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi haqida talabalarni olgan bilimlarini mustaxkamlash..

#### **Vazifalar.**

- 1 YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, ko'shilgan qiymat solig'i. Mol -mulk solig'i.
2. YUridik shaxslardan olinadigan resurs soliklar: er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar, suvsolig'i, er solig'i
3. YUridik shaxslardan olinadigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.
4. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi Soliq majburiyatlari.

#### **Talaba bilishi lozim.**

Foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, aksiz to'lanadigan soliqlar, byudjet daromadlari, davlat byudjeti, deklaratsiya dalolatnomalar, import maxsulotlari, molk-mulk solig'i, korxonalar mol-mulki, norezidentlar, rezidentlar, soliq imtiyozlari

#### **Motivatsiya.**

YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati va soliq tizimidagi tutgan o'rnini tushuntirish. YUridik shaxslardan olinadigan resurs soliklar, er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar suv solig'i, er solig'i tug'risida ma'lumotlar berish. YUridik shaxslardan olinadigan obodonlashtirish va ijtimoiy

infratuzilmani rivojlantirish solig‘i to‘g‘risida tasavvur hosil qilish.

**Fanlararo va fan ichidagi bog‘liqlik.** Solik va solikka tortish fani “Soliq nazariyasi”, «Iqtisodiyot nazariyasi», «Moliya» va «Pul kredit va banklar» kabi iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog‘liq.

**Nazariy qism.**

**Foyda solig‘i**

Foyda solig‘i to‘lovchi yuridik shaxslar quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo‘lish manbai O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘lovchilar bo‘lmaydi: notijorat tashkilotlar ;

Hisobot davri quyidagilardir:

qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘laydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar uchun — bir oy.

QKSning amaldagi stavkasi:

20%

QKSdan hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi:

QKSng hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobda turgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa — yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi;

**Aksiz solig‘i**

Aksiz solig‘ini to‘lovchilar:

Aksizlanadigan tovarlar ishlab chiqaradigan, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, yuridik va jismoniy shaxslar aksiz solig‘i to‘lovchilari hisoblanadi.

Aksiz solig‘i to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni (aksiz to‘lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;

oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, odiy shirkat shartnomasining odiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

Aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan aksiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

Aksiz solig'idan hisob-kitobni taqdim etish tartibi:

Aksiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

aksiz solig'i to'lovchilar bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay; mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Aksiz solig'ining to'lash tartibi:

joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay — joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun; joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay — joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun; kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay — hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi;

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i

YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lovchilar:

Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilardir.

YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining davri. Hisobot davri va soliq stavkasi:

Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

Soliq stavkasi-3,5%.

YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisob-kitoblarini taqdim etish:

Joriy to'lovlar summasi tegishli yil uchun yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida belgilanadi. Soliq to'lovchi ma'lumotnomani joriy yilning 20 yanvarigacha taqdim etadi.

YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmasdan to'lanishi kerak.

Er qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

qo'shimcha foyda solig'i;

bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Er qa'ridan foydalanganlik uchun hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi.

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi: yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay; jismoniy shaxslar tomonidan — yilda bir marta, keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar quyidagi shaxslardir: yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;

faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;

tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar; yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari. Hisobot davri quyidagilardir:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan solig'ining umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar (mikrofimalar va kichik korxonalaridan tashqari) uchun — bir oy;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan solig'ining umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofimalar va kichik korxonalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun — yil choragi;

qishloq xo'jaligi korxonalari va yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun — kalendar yil.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashni tartibi:

1) har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

2) yilning har choragida, yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda.

Er solig'i

Er solig'ining to'lovchilari:

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida er uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari er solig'ini to'lovchilaridir.

Er solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi

Er solig'i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va er solig'ining hisob-kitobi er uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etiladi.

Er solig'ini to'lash tartibi:

Yilning xar choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Yagona er solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan er solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1 iyuliga qadar — yillik soliq summasining 20 foizi;  
hisobot yilining 1 sentyabriga qadar — yillik soliq summasining 30 foizi;  
hisobot yilining 1 dekabriga qadar — soliqning qolgan summasi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i  
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i to‘lovchilari:  
Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar — O‘zbekiston  
Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish  
solig‘ini to‘lovchilardir.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliq hisob-kitoblarini  
taqdim etish:

ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oynning  
25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim  
etiladigan muddatda.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqni to‘lash tartibi:  
to‘lash soliq bo‘yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga  
oshiriladi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llanilishi:

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun  
qo‘llaniladi va yagona soliq to‘lovini, yagona er solig‘ini hamda tadbirkorlik  
faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish  
hamda to‘lashning maxsus qoidalari qo‘llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar  
bo‘yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasidagi 2012 yilga mikrofirma va kichik korxonalar uchun  
yagona soliq to‘lovini stavkalari:

Iqtisodiyotning barcha korxonalari -6%;

Sanoat ishlab chiqarish sohasining korxonalari -5%;

Kompyuter dasturlarni ishlab chiqib joriy etilishi jami realizatsiya (ish, xizmatlar)  
hajmining 80 % dan ortiq bo‘lgan korxonalar-5%;

YUridik shahslar tomonidan bojhona xujjatlarini rasmiylashtirish (bojhona  
brokerlari) xizmatlari -6%;

Lombardlar-30%.

Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar quyidagilardir:

1) mikrofirmalar va kichik korxonalar;

2) xodimlarning sonidan qat’i nazar:

savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;

lotereyalar tashkil qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik  
shaxslar.

Yagona soliq to‘lovini hisob- kitoblarini taqdim etish tartibi:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot  
davridan keyingi oynning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik  
moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan korxonalar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

YAgona soliq to'lovini to'lash tartibi:

YAgona soliq to'lovini to'lash hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi

## VAZIFALAR

### Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglament

1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani yozish – 20 min.
2. Ishning natijalarini taqdimot etish – 5 min.
3. Jamoa bo'lib muhokama qilish va guruhni baholash – 5 min.

### B.B.B. usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar

	<b>Tushuncha</b>	<b>Bilaman “+”, Bilmayman “-”.</b>	<b>Bildim “+”, Bila olmadim “-”.</b>
1	YUridik shaxslardan olinadigan resurs soliqlari		
2	Er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar		
3	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solq		
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar va soliq solish ob'ekti		
5	Er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar bo'yicha imtiyozlar, soliq stavkalari		
6	YUridik shaxslardan olinadigan resurs soliqlari bo'yicha soliq solinadigan baza		
7	Imzoli bonus		
8	Tijoratbop topilma bonusu		

9	Qo‘shimcha foyda soliqi		
10	Uglevodorodlar		
11	Foydali qazilmalar		
12	Foydali komponentlar		
13	Mineral xom ashyo		
14	Texnogen mineral qosilalar		
15	Suv resurslarining er usti manbalari		
16	Suv resurslarining er osti manbalari		

### **Guruh bilan ishlash qoidalari**

Guruhning har bir a‘zosi:

- o‘z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim.
- berilgan topshiriqlar bo‘yicha faol, qamkorlikda va mas’uliyat bilan ishlashlari lozim.
- o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda so‘rashlari mumkin.
- yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim.
- guruhni baqolash jarayonida ishtirok etishlari lozim.
- “Biz bir kemadamiz, birga cho‘kamiz yoki birga o‘tilamiz” qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

### **Guruhlarga topshiriqlar.**

#### **1-guruh.**

#### ***1-topshiriq. Test.***

Foyda solig‘i to‘lovchi yuridik shaxslar quyidagilardir:

a) O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo‘lish manbai O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari.

b) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo‘lish manbai O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari.

v) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari

g) O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo‘lish manbai O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari.

d) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari.

*2-topshiriq.* YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘lovchilari tarkibi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.

Javob berishda grafik organayzerdan foydalaning: “Mantiqiy-tarkibiy sxema”.

***3-topshiriq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring.***

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2009 yil 27 yanvarda bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisidagi «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» nomli ma’ruza to‘g‘risida.

***4-topshiriq. Qisqacha xulosa qiling.***

YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblash va davlat byudjetga o‘tkazish tartibi qanday?

**Insertni jadvalini belgilang**

V	Q	-	?



V – bilaman. Q - men uchun yangi. - - bilmayman. ? – men yana ishlashim kerak.

### **Insert uchun ma'lumotlar**

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilari.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan baza.

Soliq to'lovchilar tomonidan soliq solinadigan bazani aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblash va soliqni to'lash tartibi.

Soliq to'lovchilar hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydi.

Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha hisobot davrining birinchi oyi 10-kuniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining joriy to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 15-kunidan kechiktirmay to'lanadi.

### **Nazorat savollari.**

1 YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari.

- 2.YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining soliq to‘lovchilari va soliq ob‘ekti.
- 3.YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblash va byudjetga to‘lash tartibi.
- 4.YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bazasini shakllantirish tartibi.
- 5.YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalari va ularni tabaqalanishi.
- 6.YUridik shaxslardan olinadigan foydasolig‘i bo‘yicha beriladigan imtiyozlar va ularni belgilash mezonlari.
- 7.S ug‘urta kompaniyalari (tashkilotlari)ni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari.
- 8.Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimini mohiyati va uni kichik biznesni rag‘batlantirishdagi roli va ahamiyati.
- 9.YA gona soliq to‘lovini to‘lovchilari va ularni aniqlash mezonlari.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O‘zbekiston, 2007 y.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - T.: “Norma”, MJCh. 2008 y. -416 b.
- 3.Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. -T.: ”Fan va texnologiya”. 2007.
4. R.R. Xusainov , A.Q. Isxfqov , D.T. Urmanova X,Z, Djurayev . 2 qism Moliya va soliqlar 2 qism. Toshkeht “Voris- Nashriyot” 2014
- 5.Aleksandrov I. Nalogi i nalogooblojenie.: Uchebnik. –M.: “Dashkov i K”. 2006..
- 6.Jo‘raev A. Soliq nazariyasi: O‘quv qo‘llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2004.

## 5-mavzu

## *Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar.*

**Mashg‘ulot maqsadi:** talabalarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining iqtisodiy mohiyati, byudjet daromadlaridagi ulushi, to‘lovchilar tarkibi, soliq ob‘ekti, soliq bazasi, daromad solig‘i stavkalari, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, er solig‘i,t transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va

gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to‘lash tartibi haqida tushuncha berish va bilimlarni shakllantirish.

### **Vazifalar.**

- 1.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
- 2.Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.
- 3.Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i.
- 4.Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

### **Talaba bilishi lozim.**

Jismoniy shaxs, jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, soliq to‘lovchilar, soliq solinadigan baza , mulkiy daromadlar, soliq stavkasi, er solig‘i, soliq imtiyozlari.

### **Motivatsiya.**

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lovchilari, soliqqa tortish ob‘ekti, soliq solinadigan bazasi, jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi, mol mulkiga solinadigan soliklar,er solig‘i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliklar tug‘risidagi bilimlarini kengaytirish va mustaxkamlash imkonini beradi va har qanday soxada ham o‘ziga ishonch his etishi uchun zamin yaratadi.

**Fanlararo va fan ichidagi bog‘liqlik.** *Solix va solikka tortish fani* “Soliq nazariyasi”, «Iqtisodiyot nazariyasi», «Moliya» va «Pul kredit va banklar» kabi iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog‘liq.

### **Nazari qism.**

#### **Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.**

Bugungi kunda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish jarayonlarini o‘rganadigan bo‘lsak amaldagi soliq tizimida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i ular to‘laydigan soliqlar ichida eng salmoqli o‘rinni egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga ko‘ra soliqlar va boshqa yig‘imlarni o‘z vaqtida, to‘la xajmda to‘lash fuqarolarning asosiy majburiyatlaridan ekanligi qayd etilgan. Har bir fuqaro o‘z daromadlaridan qonunda belgilangan miqdor, tartib va muddatlarda belgilangan soliqlar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlarni to‘lab borishlari kerakligi amaldagi Soliq kodeksi va soliq qonunchiligining boshqa me‘yoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi.

*Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining to‘lovchilari:*

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga muvofiq soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilardir.

**Soliq solish ob‘ekti.** *Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliq solish ob‘ektidir:*

*O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;*

*O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.*

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

**Soliq solinadigan baza.** *Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.*

*Agar soliq to'lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko'ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan biron bir ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.*

Jismoniy shaxsning chet el valyutasida ifodalangan daromadlari daromadlar amalda olingan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

**Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi.** *Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:*

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

**Soliq davri. Hisobot davri.** Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi daromad to'lash manбайдan jismoniy shaxslarning daromad soliqlarini ushlab qoluvchilar uchun hisobot davridir.

**Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar.** Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

mulkiy daromad, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa;

ikkita yoki undan ko'p manбайдan olingan daromadlar;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar. Agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka qo'llanilgan holda uning arizasiga ko'ra ushlab qolingan bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

**Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.** Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organi tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq davri uchun to'lash bir yilda bir marta 15 oktyabrgacha amalga oshiriladi.

**Soliq solish ob'ekti.** Jismoniy shaxslar uchun quyidagi er uchastkalari soliq solish ob'ektidir:


**Soliq solinadigan baza.** Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning er uchastkalarining maydoniga doir ma’lumotlari soliq solinadigan bazadir.

• **Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘ining davri.** Kalendar yil soliq davridir.


**Soliqni hisoblab chiqarish tartibi.** Er solig‘ini hisoblab chiqarish davlat soliq Jismoniy shaxslarning transport vositalariga benzin, dizel yonilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to‘lash jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz chakana realizatsiya qilingan oyning o‘n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan kechiktirmay, yonilg‘i quyish shoxobchasi joylashgan erda har o‘n kunda amalga oshiriladi.

#### **VAZIFALAR.**

#### **Klaster**



**Rezident hamda norezidentlar jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘i prognozlarini Venn diagrammasida solishtiring**



### TEZKOR SAVOLLAR

1. To'g'ri soliqlar deb qanday soliqlarga aytiladi?
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lovchilari kimlar?
3. Rezident va norezident jismoniy shaxslarga ta'rif bering?
4. Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibini ayting?
5. Daromad solig'ining qanday stavka turlari mavjud?

### Nazorat savollari

1. Kimlar jismoniy shaxs hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi?
3. Rezident va norezident jismoniy shaxslar farqini tushuntiring?  
Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqdan imtiyozlar necha turdan iborat va ularning tarkibi qanday?
4. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati va qanday me'yoriy-huquqiy asoslarga ega?
5. Mol-mulk solig'i to'lovchi jismoniy shaxslarga kimlar kiradi?  
Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining soliq solish ob'ekti necha?
6. Er solig'ini to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?
7. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha er uchastkalariga ega jismoniy shaxslar uchun er solig'i qanday tartibda undiriladi?
8. Er solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga er solig'idan qanday me'yorlar doirasida imtiyoz beriladi?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. SHavkat Mirziyoev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz”- T: “O‘zbekiston” 2016.
2. SHavkat Mirziyoev “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta’minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” 2016 yil 7 dekabr: T, “O‘zbekiston” 2017.
3. SHavkat Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz”. T., “O‘zbekiston” 2017 .
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O‘zbekiston, 2007 y.
5. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - T.: “Norma”, MJCh. 2008 y. -416 b.
6. Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. -T.: ”Fan va texnologiya”. 2007.
7. R.R. Xusainov , A.Q. Isxfqov , D.T. Urmanova X,Z, Djurayev . 2 qism Moliya va soliqlar 2 qism. Toshkeht “Vorish- Nashriyot” 2014
8. Aleksandrov I. Nalogi i nalogooblojenie.: Uchebnik. –M.: “Dashkov i K”. 2006..
9. Jo‘raev A. Soliq nazariyasi: O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2004

### **6-mavzu**

### *Davlatning maqsadli ijtimoiy jamg‘armalariga olinadigan majburiy tulovlar. Davlat boji.*

#### **Mashg‘ulotning maqsadi.**

Yagona ijtimoiy tulov va fuqorolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari. Respublikka yul jamg‘armasiga yig‘imlar. Byudjetdan tashqari ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarining rekonstruksiya. Kapital ta’mirlash va jixozlash jamg‘armasiga majburiy tulovlar. Davlat boji to‘g‘risida talabalarga bilim berish va uni kengaytirish.

#### **Vazifalar**

1. Yagona ijtimoiy tulov va fuqorolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari
2. Respublikka yul jamg‘armasiga yig‘imlar.
3. Byudjetdan tashqari ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarining rekonstruksiya. Kapital ta’mirlash va jixozlash jamg‘armasiga majburiy tulovlar.
4. Davlat boji.

#### **Talaba bilishi lozim.**

Yagona ijtimoiy to'lov, fuqoralarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari, majburiy ajratmalar, davlat boji, soliq solinadigan baza.

**Motivatsiya.** Yagona ijtimoiy tulov va fuqoralarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari, Respublikka yul jamg'armasiga yig'implar, byudjetdan tashqari ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarining rekonstruksiya, kapital ta'mirlash va jixozlash jamg'armasiga majburiy tulovlar xamda davlat boji to'g'risidagi bilimlarini shakillantirish ishlab chiqarish va iqtisodiyot sohasida mexnat qiluvchilarning barchasiga o'z bilimlarini kengaytirishi va mustahkamlash imkonini beradi.

**Fanlararo va fan ichidagi bog'liqlik.** Soliq nazariyasi, Iqtisodiyot nazariyasi, Moliya, va Pul kredit va banklar kabi iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liq.

Nazariy qism

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqoralarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari.

**Soliq to'lovchilar.** Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar quyidagilardir:

yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonolari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqoralarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini (bundan buyon matnda sug'urta badallari deb yuritiladi) to'lovchilardir.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

**Soliq solish ob'ekti.** Ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish ob'ektidir.

**Soliq solinadigan baza.** Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

**Soliq davri. Hisobot davri.** Kalendar yil soliq davridir.

Hisobot davri quyidagilardir:

mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun — 1920var192.

**Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi.** Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.



Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o'tkaziladi.

**Soliq to'lovchilar.** Yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilardir.

Quyidagilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi:

notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslar.

**Soliq davri. Hisobot davri.** Kalendar yil soliq davridir.

Hisobot davri quyidagilardir:

mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun — 193ovar193.

**Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob- kitoblarini taqdim etish va ularni to'lash tartibi.**

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

**Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar.**

**Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarto'lovchilar:**

Yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchilardir.

**Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan baza.** Sof tushum Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasidir.

**Majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitobini taqdim etish va ularni to'lash tartibi.** Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan: mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan — har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

**Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlarning turlari.** Respublika yo‘l jamg‘armasi yig‘imlariga quyidagilar kiradi:

avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im;

chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali 1940var194e tarzida o‘tganligi uchun yig‘im.

**Soliq to‘lovchilar.** Avtotransport vositalarini oluvchi va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im to‘lovchilardir.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali 1940var194e tarzida o‘tganligi uchun yig‘im to‘lovchilardir.

**Soliq solish ob‘ekti.** Yig‘imlar uchun soliq solish ob‘ekti quyidagilardir:

avtotransport vositalarini olish va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali 1940var194e tarzida o‘tish.

**Soliq solinadigan baza.** Soliq solinadigan baza quyidagilardir:

olingan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelinig ot kuchidagi quvvati;

O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali 1940var194e tarzida o‘tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

**Davlat boji.**

**Umumiy qoidalar.** Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan majburiy to‘lovdir.

O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari tomonidan konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun davlat boji konsullik yig‘imi tariqasida undiriladi.

Davlat bojining stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**Davlat bojini to'lovchilar.** Yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilishi va (yoki) hujjatlar berilishi xususida vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslarga murojaat qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar davlat bojini to'lovchilardir.

**Davlat bojini to'lash va hisobga o'tkazish tartibi.** Davlat boji, agar ushbu bo'limda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat boji undiriladigan harakatlar amalga oshirilguniga qadar naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda to'lanadi.

**Sudlarda davlat bojini undirishning o'ziga xos xususiyatlari.** Sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha arizalardan, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sudlarga beriladigan shikoyatlardan, sudlarning hal qiluv qarorlari ustidan apellyasiya, kassatsiya va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, shuningdek sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun davlat boji undiriladi:

**Notarial harakatlar bajarilganligi uchun davlat boji undirishning o'ziga xos VAZIFALAR.**

**“FSDU” (fikir, sabab, dalil, umumiylik)**

**texnologiyasi asosida amaliy mashg'ulot**

**o'tkazish**

Mazkur texnologiya munozarali masalalarni hal etish hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishga yordam beradi. Bu texnologiyaga asosan talabalar o'z fikrini ochiq va erkin bayon etishga, uni himoyalashga hamda bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Bu texnologiyani 2 xil tarzda qo'llash mumkin:

- a) Yakka tartibda;
- b) Jamoa bo'lib.

Bu texnologiyaga asosan, talabalarga tarqatilgan qog'ozlarga o'z fikrini aniq ifoda etib dalillar bilan tasdiqlab hamda inkor etuvchi fikrlarni bayon etishlari bilan izohlanadi: Bu quyidagicha ko'rinishga ega:

**Мавзу:** Солиқлар ва солиқларга тенглаштирилган тўловларга умумий тавсифнома

Талаба (жамоа) Ромазонов Ч. гуруҳ СТ-80.

Ф\* *Харакатда бўлган солиқ тизимида солиқлар икки гуруҳга ажратилади.*

Yuqoridagi usul yakka tartibda o'tkazish; ushbu texnologiyani ikkinchi ko'rinishda o'tkazish guruh teng ishtirokchilardan iborat bo'lgan kichik guruhlarga bo'linadi.

Har bir guruhda o'qituvchi avvaldan tayyorlab kelgan katta formatdagi "FDSU" texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi.

Davraga o'qituvchi mavzuga oid yoki fanga oid muammoni tashlaydi. Har bir guruh ushbu muammoga umumlashtirilgan fikrni bayon etib, uni himoya etadi. Masalan, "Soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan to'lovlarga umumiy tavsifnoma" mavzusi yuzasidan quyidagi fikrni berishi mumkin: "Soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan to'lovlar byudjet klassifikatsiyasi bo'yicha to'rtta guruhga ajratiladi". Talabalardan iborat guruhchalar ushbu fikrni ma'qullab isbotlashlari yoki inkor etishlari mumkin.

Amaliy mashg'ulot olib borilayotgan har bir guruhda ushbu pedagogik mahoratning barcha tamoyillarini o'zida mujassam etgan interfaol usulni qo'llash va mazmunli o'tkazish uchun 15-20 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu usulda mavzuning mohiyatini qamrab oladigan savollarning to'g'ri va aniq tanlanishi samarali mashg'ulot olib borishga asos bo'lib hisoblanadi.

## **II. Iterfaol usullardan biri hisoblangan "Zanjirsimon" uslubda amaliy mashg'ulot o'tkazish**

"Zanjirsimon" uslubiyatda amaliy mashg'ulotlarni olib borish talabalarni teran fikrlashga hamda hozirjavoblikka o'rgatadi.

Ushbu texnologiyani 2 xil tarzda o'tkazish mumkin:

A) yozma;

B) ogʻzaki.

Ushbu texnologiyaning ogʻzaki shakliga asosan guruh 3 teng guruhchalarga boʻlinadi. Har bir guruhga guruhboshi tayinlanib, guruhga oʻtilgan yoki tanlangan mavzuga doir savol bilan oʻz guruhidagi keyingi ishtirokchiga murojaat qiladi. Keyingi ishtirokchi savolga javob berib, navbatdagi ishtirokchiga savol beradi. SHu asnoda 10 daqiqa savol-javob davom etadi. Jarayonni amaliy mashgʻulot oʻqituvchisi nazorat qiladi. Qaysi guruh belgilangan vaqt oraliqida koʻproq savolga toʻgʻri va aniq javob bersa, gʻolib deb topiladi. Guruhchalarda faol ishtirokchilar ajratib olinadi va ularga mavzu yuzasidan ajratilgan reyting ballari rasmiylashtirilib boriladi.

Mazkur texnologiyaning yozma shakliga asosan amaliy mashgʻulot oʻtkazishda ham guruh 3 ta guruhchalarga boʻlinadi, har bir guruhchaga bir vaqtning oʻzida mavzuga oid savol yozilgan qogʻoz beriladi. Savolni olgan birinchi talaba savolga javob hamda keyingi mavzuga oid savolni yozib navbatdagi talabaga uzatadi. Qolgan 2 guruh ham shu tarzda davom ettiradilar. Eng koʻp toʻgʻri savol-javob yozgan guruh aniqlanadi.

Amaliy mashgʻulot mavzusi boʻyicha muhokama qilinayotgan savollarga tez va toʻgʻri javoblarni eng koʻp topgan guruhning aʼzolari yuqori ball miqdoridan kelib chiqqan holda baholanadi, qolgan guruh aʼzolariga ham yuqori ballga nisbatan reyting ballari rasmiylashtirilib boriladi.

Amaliy mashgʻulot mavzusi “Soddalashtirilgan soliq tizimi”:

<b>I guruh</b>	<b>II guruh</b>	<b>III guruh</b>
<b>I.</b> Talaba, savol: YAgona soliq toʻlovining mohiyatini tushuntiring ?	<b>I.</b> Talaba, savol: Soddalashtirilgan soliq tizimida qaysi subʼektlar soliq toʻlaydilar?	<b>I.</b> Talaba, savol: YAgona soliq toʻloviga oʻtish uchun nima mezon boʻlib hisoblanadi?
<b>II.</b> Talaba, javob: YAgona soliq toʻlovi bu – _____	<b>II.</b> Talaba, javob: _____	<b>II.</b> Talaba, javob: _____

Savol: _____ _____	Savol: _____ _____	Savol: _____ _____
<b>III. Talaba, javob: _____</b> _____	<b>III. Talaba, javob: _____</b> _____	<b>III. Talaba, javob: _____</b> _____
Savol: _____ _____	Savol: _____ _____	Savol: _____ _____
		va h.k.

### Nazorat savollari

1. YAgona ijtimoiy tulov va fuqorolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarining moxiyati nimadan iborat?
- 2..Respublikka yul jamg'armasiga yig'imlar haqida ma'lumot bering?
3. Byudjetdan tashqari ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarining rekonstruksiya haqida tushuncha bering?

#### **4.Davlat bojini to'lash va hisobga o'tkazish tartibi qanday.**

5.Davlat bojining stavkalari kim tomonidan belgilanadi

6 Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarto'lovchilar kimlar

#### **7.Davlat bojini qaytarish tartibi haqida aytib bering**

8.Sug'urta badallarini to'lash qanday amalga oshiriladi.

#### **9.Davlat bojini to'lashdan kimlar ozod qilinadi.**

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston, 2007 y.
- 2.O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: “Norma”, MJCh. 2008 y. -416 b.
- 3.Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: ”Fan va texnologiya”. 2007.
4. R.R. Xusainov , A.Q. Isxfqov , D.T. Urmanova X,Z, Djurayev . 2 qism Moliya ya soliqlar 2 qism. Toshkeht “Vorish- Nashriyot” 2014
- 5.Aleksandrov I. Nalogi i nalogooblojenie.: Uchebnik. –M.: “Dashkov i K”. 2006..
- 6.Jo'raev A. Soliq nazariyasi: O'quv qo'llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2004.

### III.MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

---

#### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Tinglovchilarning mustaqil ishi o'rganilayotgan mavzu yuzasidan ma'lumotlarni axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalangan holda yig'ish, olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish, tahlil qilish va amaliyotda qo'llay olishdan iborat bo'lib, uning shakllari turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular quyida keltiriritilgan.

Tinglovchilarning mustaqil ishiga shuningdek, bitiruv malakaviy ishlarini bajarilishi borasida olib boradigan faoliyati ham kiradi. Mustaqil ishni bajarish natijalari baholanadi. Uyg'a vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar tinglovchilarning mashg'ulotlarda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Fan buyicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

#### ***Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:***

Talaba "Soliq va soliqqa tortish" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi va joriy nazorat sifatida baxolanadi:

1) mavzular buyicha konspekt (referat, takdimot) tayyorlash.

Nazariy materialni puxta uzlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o'quv materialiga diqqatni kuprok jalb etishga yordam beradi. Talaba konspekti turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ishlarini osonlashtiradi, vakti tejaydi;

2) o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Talabalar ma'ruza va amaliy (seminar) mashgulotlar davomida olgan bilimlarini o'zlashtirishlari, turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rishlari uchun tavsiya etilgan

elektron manbalar, innovatsion dars loyixasi namunalari, uz-uzini nazorat uchun test topshiriklari v.b;

3) fan bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash. Mustaqil o'rganish uchun berilgan mavzular buyicha talabalar tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha o'quv, ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda rus va xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanish ragbatlantiriladi;

4) internet tarmog'idan foydalanish. Fan mavzularini o'zlashtirishda mavzu buyicha internet manbalarini topish, ular bilan ishlash nazorat turlarining barchasida qo'shimcha reyting ballari bilan ragbatlantiriladi;

5) mavzuga oid masalalar, keys-stadilar va o'quv loyihalarini ishlab chiqish va ishtirok etish;

6) amaliyot turlariga asosan material yig'ish, amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish, hisobotlar tayyorlash;

7) ilmiy seminar va anjumanlarga tezis va makolalar tayyorlash va ishtirok etish;

8) masofaviy (distansion) ta'lim asosida mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalar tayyorlash va xk. Uyga berilgan vazifalarni bajarish, yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yullarini aniqlash, Internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola (tezis) va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Mustaqil ishni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chikiladi. Unda talabalarga asosiy ma'ruza mavzulari buyicha amaliy topshirish, keys-stadilar echish uslubi va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi.

• ***Shuningdek talabaning mustaqil ishi bo'lib:***

- Grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;
- Krossvordlar tuzish va echish;
- Prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash xamda mustakil ish jarayonida keng kullash va xk.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari:**

***1. Soliqlarning iktisodiy moxiyati zarurligi va funksiyalari.(6soat)***

***2 Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i uning to'lovchilari va to'lash muddatlari.(6soat)***

***3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer, mol-mulk solig'lari, mohiyati.(6soat)***



*4. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan resurs soliqlar.(6soat)*

*5. Jismoniy shaxslar daromadlaridan to'lanadigan daromad solig'i.(6soat)*

*6. Davlat byudjetiga to'lanadigan kat'tiy belgilangan solik, mohiyati va to'lovchilari.(6soat)*

#### IV. GLOSSARIY



**Yuridik shaxslar** -O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq to'lovchilar ikki guruhga bo'linadi: yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida xilma-xil mulk shaklidagi birlashmalar, korxonalar va tashkilotlar qisqacha yuridik shaxs deb ataladi.

O'z mulkiga ega bo'lgan va o'z majburiyatlarini shu mulklar bilan bajaradigan, soliq idoralarida ro'yxatdan o'tgan, bankda hisob raqamiga, mustaqil buxgalteriya balansiga ega bo'lgan korxonalar, tashkilot, birlashma va ularning mustaqil shaxobchalariga yuridik shaxslar deb ataladi.

Yuridik shaxs maqomidan tashqari soliq to'lovchi bo'lish uchun yana, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad (foyda) olgan bo'lishi, tovar (ish, xizmat) sotishdan oborotga va boshqa mulklarga ega bo'lishlari shart.

Yuridik shaxslarning byudjetga to'laydigan soliqlari to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlar daromad (foyda) solig'i va resurs soliqlaridan, egri soliqlar esa qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona bojidan iboratdir.

**Jismoniy shaxs (fuqaro) tushunchasi** - uqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi.

**Yuridik shaxslarning daromadidan (foydasidan) soliq** - u yuridik shaxslarning hamma faoliyatidan olgan daromadlarini (foydasini) bir qismini byudjetga

majburiy to'lovidir. Bu erda soliq to'lovchilar soliqqa tortish maqsadida re2020var2020eca norezidentlarga bo'linadi.

**Rezidentlar** - —'zbekiston hududida tashkil etilgan va ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar yoki bosh korxonasi O'zbekistonda joylashgan bo'lib, O'zbekistondan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar bo'lib, O'zbekiston hududida hamda chet elda olgan daromadlaridan soliq to'lovchilar hisoblanadi.

**Norezidentlar**-O'zbekiston hududida tashkil etilmagan yoki bosh korxonasi O'zbekistonda joylashmagan yuridik shaxslardir. Norezidentlar faqat O'zbekiston hududida olgan daromadlaridan soliq to'laydilar.

**CHet el yuridik shaxslari**- rezidentlar va norezidentlarga bo'linadi. Rezidentlar O'zbekistondagi yuridik shaxslar kabi soliqqa tortiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi norezident yuridik shaxslar:

- doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatuvchi;
- doimiy muassasa bo'lmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga bo'linadi.

Birinchi guruhdagilarning O'zbekistonda olgan daromadlari ularning soliq idoralariga taqdim etadigan deklaratsiyalari orqali soliq idoralari tomonidan hisoblab chiqilib soliqqa tortiladi.

Ikkinchi guruh norezidentlarning O'zbekiston hududidagi korxonalar va tashkilotlardan olgan daromadlari manbaida jami daromaddan hech qanday chegirmasiz soliqqa tortiladi (ushlanib qolinadi).

«**Doimiy muassasa**» **tushunchasi** - —oliqqa tortish maqsadida O'zbekiston hududida daromad olish uchun faoliyat ko'rsatayotgan har qanday joy hamda har qanday tashkilot yoki vakolatli funksiyani bajarayotgan yuridik shaxsdir. Bu tushuncha o'z ichiga: boshqaruv o'ri, bo'lim, ofis, idora, fabrika, ustaxona, shaxta, neft yoki gaz quvuri, tosh qazish yoki har qanday foydali qazilmalar qazib oluvchi joylarni oladi.

**Royalti** - —u in2020var2020ectualulklardan kelgan daromadlardir. Intellektual mulklarga yangilik yaratilganligi to'g'risidagi patent, litsenziya, to2020ovarelgisi va boshqalar kiradi.

**Investitsiya** - —orxonaning o'zi amalga oshirgan quyidagi:

- yangi qurilish shaklidagi kapital qurilishga, ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiyalash, kengaytirish va texnikaviy qayta qurollantirishga sarflangan mablag'lar;

**Qo‘shilgan qiymat solig‘i** - –u korxonalar, tashkilot va birlashmalarda yangi yaratilgan (qo‘shilgan) qiymatning bir qismini byudjetga majburan olishdir.

**QQSdan imtiyozlar** - –u korxonaning iste‘molchilarga tovar ortganda, ish bajarganda, xizmat sotganda QQSni hisoblamaslik hamda byudjetga soliq to‘lamaslikni ifodalaydi.

**QQS to‘lovchilari** - –u O‘zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tovarlar importi bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

**Aksiz solig‘i** - –u ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan yoki eksport va import qilingan ba‘zi tovarlar qiymatining bir qismini majburiy byudjetga to‘lovdir.

**Aksiz solig‘i ob‘ekti** - –u O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chikarilgan tovarlar, eksport va import qilingan ba‘zi tovarlar oboroti hisoblanadi.

**Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i** - –u korxonalar mulklarining dastlabki qiymati, o‘rnatilmagan mulklar qiymatidan hisoblanib, ularning daromadidan byudjetga to‘lanadigan majburiy to‘lovlardir.

**Mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar** - –u o‘z mulkiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq to‘lashning ixchamlashtirilgan tizimiga o‘tgan yuridik shaxslar (savdodan tashqari) va imtiyoz olgan yuridik shaxslar bu soliqni to‘lamaydilar.

**O‘rtacha qiymat** - –u asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, lizing shartnomasi bo‘yicha sotib olingan vositalarning hamda ishga tushirilmagan mulklar qiymatining yil boshi va oxiridagi summalarini yarmi, boshqa oylar boshidagi balans qiymatining to‘liq summolari yig‘indisini 12ga bo‘lish bilan aniqlanadigan qiymatdir. Bu qiymat choraklik va yil bo‘yicha aniqlanadi.

**Qishloq xo‘jalik tovar ishlab chikaruvchilarning yagona er solig‘i** - –agona er solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib, qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlar), fermer xo‘jaliklari, agrofimlar, boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chikaruvchilar hisoblanadi. Bu korxonalar o‘z hohishlari bo‘yicha byudjetga yoki yagona er solig‘i to‘lovchilar yoki qishloq xo‘jalik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to‘lovchilari bo‘lishi mumkin.

**Yuridik shaxslarning (noqishloq xo‘jalik) er solig‘i** - –‘zining mulkida, egaligida va foydalanishida er uchastkalari bo‘lgan yuridik shaxslar er solig‘i to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi.

**Soliq to'lovchilarning identifikatsion raqami (STIR)** - –oliq to'lovchining soliq idoralaridan ro'yxatdan o'tganligini ko'rsatuvchi dalildir. Bu raqam soliq to'lovchining tegishli hisobot va hisoblarini, boshqa hujjatlarini tez topishda yordam beruvchi sonidir.

**Soliq qonunchiligi buzilganda qo'llaniladigan jazolar (sanksiyalar)** - –u intizomsiz soliq to'lovchilarga nisbatan soliq qonunchiligi buzilganda beriladigan jazolardir. Ular uch xil bo'ladi: ma'muriy, moliyaviy va jinoiy.

**YAlpi ichki mahsulot (YAIM)**- bu ma'lum bir davrda (yil) mamlakat ichida bozor bahosida yaratilgan hamma tovarlar va xizmatlarning qiymatidir.

**Byudjet jarayoni** - –avlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.

**Byudjet dotatsiyasi** - –'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar etishmagan taqdirda quyi byudjetning harajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

**Byudjetdan mablag' ajratish** - –onun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag'lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag'lari.

**Byudjet profitsiti** - –uayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet harajatlaridan ortiq bo'lgan summasi.

**Byudjet ssudasi** - –uqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

**Byudjet subvensiyasi** - –onun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

**Byudjet so'rovi** - –yudjet tasnifi bo'yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag' ajratish to'g'risidagi so'rov.

**Byudjet tashkiloti** - –immasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat byudjetidan mablag' ajratish

nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti.

**Byudjet taqchilligi** - –uayyan davrda byudjet harajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi.

**Byudjet transferti** - –yudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag‘lari.

**Davlat byudjeti** - –avlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Davlat ichki qarzlari** - –avlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.

**Davlat maqsadli jamg‘armalari** - –avlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg‘armalar bo‘lib, ularning har biri uchun mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag‘lardan foydalanilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**Davlat tashqi qarzi** - –avlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.

**Davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish** - –ktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlari) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishi.

**Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish** - –ktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlari) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi.

**Davlat qarzi** - –avlat tomonidan ichki mablag‘ni va xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.

**Mahalliy byudjet** - –avlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar

manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Moliya yili** - –irinchi yanvardan o'ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oluvchi davr.

**Respublika byudjeti** - –avlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

## V. ILOVALAR

---

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi  
Toshkent farmatsevtika instituti**

**“Tasdiqlandi”**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

T.A.Nabiev \_\_\_\_\_

2018 yil “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_

---

### **SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH FANINING**

### **FANINING ISHCHI O`QUV DASTURI**

---

**Ta'lim sohasi:** 510000 – Sog'liqni saqlash

**Ta'lim yo'nalishi:** 5510500-Farmatsiya

Umumiy o'quv soati - 90

Shu jumladan:

Ma'ruza - 18 ( 4-semestr-18 soat)

Amaliy (seminar) mashg'ulot -18 ( 4-semestr-18 soat)

Mustaqil ish -36 ( 4-semestr-36 soat)

## Toshkent - 2018

Ishchi dastur Toshkent farmatsevtika instituti Markaziy Uslubiy Kengashining 201\_\_yil “\_\_” \_\_dagi \_\_-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

### Tuzuvchilar:

K.K.Ismailov Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari nomzodi,  
dotsent

G.F.Xoshimova Ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

### Taqrizchilar:

M.S.Nigmatov - Mirobod tumani DSI bo'lim boshlig'i i.f.n.

X.M.Mamedov - Toshfarmi ijtimoiy fanlar kafedrasini professor

Toshfarmi Farmatsiya

fakulteti dekani:

2018 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ A.A.Nurmuhammedov

Ijtimoiy fanlar

kafedrasini mudiri:

2018 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ K.K.Ismailov



---

## KIRISH

---

### 1. O'quv fani o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

“**Soliq va soliqqa tortish**” fani talablarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, pedagogik hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakillantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- Fanning asosiy maqsadi soliq turlari, soliqlarga tenglashtirilgan to'lovlar va ularning o'ziga xos jihatlari bo'yicha talabalarda ko'nikmalar hosil qilish. Mazkur fanni o'rganish jarayonida turli pedagogik texnologiyalardan faol usul, prezentatsiya, ishbilarmon o'yinlar, aqliy hujum va boshqa usullardan foydalanish. Shu bilan bir qatorda tahlil va sintez, statistik jadvallar orqali fanning asosiy mohiyatini ifoda etib berish to'plash va ulardan foydalanish **malakalariga ega bo'lishi kerak**

-“ Soliq va soliqqa tortish”ning tizimlari, tamoyillari, mexanizmlari, kategoriyalari **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**

- “Soliq va soliqqa tortish” nazariyasi va metodologiyasi aloqalar tizimlar, kategoriyalar, mexanizmlar, qonuniyatlar, asosiy holatlar;

- Insonlarning ish qobiliyatini oshirish va funksional holati optimallashtirishni **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

- Turli xil hayotiy vaziyatlarda shaxsni o'rganishda pedagogikaning har xil usullarini qo'llash;

- Talaba pedagogik hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash pedagogik muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;**

### 2. Soliq va soliqqa tortish fanining boshqa fanlar bilan integratsiyasi:

Soliq va soliqqa tortish fanini mukammal o'zlashtirish uchun talabalar quyidagi fanlardan yetarli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari kerak:

- iqtisodiyot nazariyasi;
- statistika va buxgalteriya hisobi;
- ishlab chiqarish menejmenti;
- huquqshunoslik;
- farmatsevtika ishini tashkil qilish.

### 3. Ma'ruza mashg'ulotlari

1-Jadval

№	Маърузалар мавзулари	Дарс соатлари ҳажми
<b>4- семестр</b>		
1.	«Soliqlar va soliqqa tortish» fanining predmeti mazmuni va o'rganish usullari	2
2.	O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning shakillanishining nazariy asoslari. Soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari	4
3.	O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi va undagi ma'murchilik masalalari.	4
4.	Yuridik shaxslardan olinadigan soliklar	4
5.	Jismoniy shaxslardan olinadigan soliklar	2
6.	Davlatning maqsadli ijtimoiy jamg'armalariga olinadigan majburiy tulovlar. Davlat boji.	2
<b>Jami</b>		<b>18</b>

**Jami: 18 soat**

Ma'ruza mashg'ulotlari mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan aulitoriyada akadem. guruhlar oqimi uchun o'tiladi.

### 4. Amaliy mashg'ulotlari

#### **Darsni olib borish rejasi (xronoharita):**

1. O'qituvchining mavzu bo'yicha kirish so'zi - 10 daqiqa;
  2. Talabalarning bilimini og'zaki va ёзма,тест usulda mavzuga tegishli savollar bilan tekshirish - 40 daqiqa;
  3. Mavzuni tushuntirish: o'qituvchi talabalarning bergan javoblariga qarab, yo'l qo'yilgan xatoliklarni tuzatib, javoblarni umumlashtiradi - 10daqiqa;
  4. Конспект дафтарларни текшириш– 10 daqiqa;
  5. Bajarilgan ishni qabul qilish va баҳолаш- 10daqiqa.
- Jami: 80 daqiqa.

2- Jadval

№	Amaliy mashg'ulotlarining mavzulari	Dars soatlari hajmi
<b>4-semestr</b>		
<b>1</b>	«Soliqlar va soliqqa tortish» fanining predmeti mazmuni va o'rganish usullari	2

2	O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning shakillanishining nazariy asoslari. Soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari	2
3	O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi va undagi ma'murchilik masalalari.	4
4	Yuridik shaxslardan olinadigan soliklar	4
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan soliklar	4
6	Davlatning maqsadli ijtimoiy jamg'armalariga olinadigan majburiy tulovlar. Davlat boji.	2
<b>Jami</b>		<b>18</b>

**Jami: 18 soat**

Amaliy mashg'ulotlar faol va interfaol usullar, ko'rgazmali tarqatma materiallar, laboratoriya jihozlari, qurilmalari va axborot multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada xar bir akadem guruhga aloxida o'tiladi.

#### 4. Mustaqil ta'lim

3-Jadval

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
<b>4-semestrda</b>		
1	Soliqlarning iktisodiy mohiyati zarurligi va funksiyalari.	6
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i uning to'lovchilari va to'lash muddatlari.	6
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer, mol-mulk solig'lari, mohiyati.	6
4	Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan resurs soliqlar.	6
5	Jismoniy shaxslar daromadlaridan to'lanadigan daromad solig'i.	6
6	Davlat byudjetiga to'lanadigan kat'tiy belgilangan solik, mohiyati va to'lovchilari.	6
<b>Jami</b>		<b>36</b>

**Jami: 36 soat**

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan internet ma'lumotlarni to'plash, bibliografik annotatsiya va taqdimotlarni tayyorlash, test savollarini va vaziyatli masalalarni tuzish tavsiya etiladi.

## 5. Fan bo'yicha talabalar bilimni baxolash va nazorat qilish mezonlari

<b>Baxolash usullari</b>	Ekspress testlar, yozma ishlar, og'zaki surov		
<b>Baholash mezonlari</b>	<b>86-100 ball "a'lo"</b>		
	<ul style="list-style-type: none"> <li>• xulosa va qaror qabul qilish;</li> <li>• ijodiy fikrlay olish;</li> <li>• mustaqil mushohada yurita olish;</li> <li>• olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;</li> <li>• mohiyatini tushunish;</li> <li>• bilish, aytib berish;</li> <li>• tasavvurga ega bo'lish.</li> </ul>		
	<b>71-85 ball "yaxshi"</b>		
	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mustaqil mushohada yurita olish;</li> <li>• olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;</li> <li>• mohiyatini tushunish;</li> <li>• bilish, aytib berish;</li> <li>• tasavvurga ega bo'lish.</li> </ul>		
	<b>55-70 "qoniqarli"</b>		
	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mohiyatini tushunish;</li> <li>• bilish, aytib berish;</li> <li>• tasavvurga ega bo'lish.</li> </ul>		
	<b>0-54 "qoniqarsiz"</b>		
	<ul style="list-style-type: none"> <li>• aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;</li> <li>• bilmaslik.</li> </ul>		
	<b>Reyting baxolash turlari</b>	<b>Maks. ball</b>	<b>O'tkazish vaqti</b>
	<b>Joriy nazorat:</b> Amaliy mashg'ulotlarda faolligi, muntazam ravishda konspekt yuritishi, savollarga to'g'ri javob berganligi, amaliy topshiriqlarni bajarganligi uchun	<b>45</b>	Semestr boshlangandan ikkinchi mashg'ulotdan oxirgi mashg'ulotga qadar har bir mashg'ulotda 100 ballik tizimda joriy baholanadi, so'ngra ushbu ballar yig'indisidan o'rtacha ball chiqarilib, 0,45 koeffitsientga ko'paytiriladi.
	<b>Mustaqil ta'lim</b>	<b>5</b>	
	<b>Oraliq nazorat:</b> Og'zaki so'rov ko'rinishida qabul qilinadi. Ma'ruzachi o'qituvchi va seminar (amaliy) mashg'uloti o'qituvchisi tomonidan birgalikda o'tkaziladi. Oraliq nazorat savollari 2 hafta avval e'lonlar doskasiga joylashtiriladi. Oraliq nazorat 20 ballni tashkil etib, undan: (86-100 %) 17,2-20,0 <b>A'lo "5"</b> (71-85 %) 14,2-17,2 <b>Yaxshi "4"</b>	<b>20</b>	10 hafta

	(55- 70 %) 11-14,2 <b>Qoniqarli "3"</b> (0-54 %) 11 baldan kam <b>Qoniqarsiz "2"</b>		
	<b>Yakuniy nazorat (yozma, og'zaki, test)</b>	<b>30</b>	17-18 hafta
	<b>JAMI</b>	<b>100</b>	

## 6. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Raxbariy adabiyotlar va qonunlar:

1. Shavkat Mirziyoev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz." Toshkent "O'zbekiston" 2016 yil. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi
2. Shavkat Mirziyoev "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" 2016 yil 7 dekabr Toshkent, "O'zbekiston" 2017 yil. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qiliganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza, 2016 yil 7 dekabr.
3. Shavkat Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz" Toshkent "O'zbekiston" 2017 y. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari to'plami.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2007 y.
5. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - T.: "Norma", MJCh. 2008 y. -416 b.
6. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. //Xalq so'zi, 29 avgust 1997 y.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3619-sonli Farmoni (2005 yil 14 iyun).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-532-sonli Qarori (2006 yil 18 dekabr).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-744-sonli Qarori (2007 yil 12 dekabr).
10. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ustivorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi nutqidan. "O'zbekistonda sog'liqni saqlash" gazetasida. 2008 yil 12-18 fevral. №6 (574).
11. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. -T.: "O'zbekiston", 2005 y. -525 b.
12. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch - qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. -T.: "O'zbekiston", 2004 y.

### Asosiy adabiyotlar

1. Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. -T.: "Fan va texnologiya". 2007.

2. R.R. Xusainov , A.Q. Isxfqov , D.T. Urmanova X,Z, Djurayev . 2 qism Moliya ya soliqlar 2 qism. Toshkeht “Voriz- Nashriyot” 2014
- 3..Aleksandrov I. Nalogi i nalogooblojenie.: Uchebnik. –M.: “Dashkov i K”. 2006..
- 4..Jo‘raev A. Soliq nazariyasi: O‘quv qo‘llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2004.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

- 1Jo‘raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. –T.: “Fan” nashriyoti. 2004.-387 b.
- 2Baymuratov T., Radjabov U. Soliq menejmenti. O‘quv kullanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2005. -110 b.
- 3.Vaxobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: IQTISOD-MOLIYA. 2005. - 282 b.
- 4.Jo‘raev A. Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2005. -120 b.
- 5.Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005. -544 b.
- 6.Isroilov B. Soliqlar hisobi va tahlili: muammolar va ularning yechimlari. -T.:”Uzbekiston”. 2006. -270 b.
- 7.Latipov A. yerdan foydalanish va soliqqa tortish. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005.-245 b.
- 8.Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Akademiya. 2002. 253 b.
- 9.Toshmurodova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish. -T. “IQTISOD-MOLIYA”. 2005. 156 b.

### **Elektron ta'lim resurslari**

<http://www.nalog.uz//>

<http://www.mf.uz//>

<http://www.cer.uz//>

<http://www.tfi.uz/>

## Tarqatma materiallar



**1-Keys** Iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun foyda solig'i stavkalari va summasining hisob-kitobi. Agar 1- misolda keltirilgan korxonaga iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonaga bo'lsa quyidagilar asosida imtiyozni hisobga olgan daromad (foyda) solig'ini hisoblang. Va hisob – kitobini tuzing. Mahsulot sotishning umumiy hajmida eksport hajmi – 90 000 ming so'm. Sotishning umumiy hajmida iste'mol tovarlarini sotish hajmi -120 000 ming so'm

Echish

Iste'mol tovarlarini sotishdan olingan foyda summasi foyda solig'i hisob-kitobiga ma'lumotnoma asosida to'ldiriladi.

O'zi ishlab chiqargan tovarlarning erkin almashtiriladigan valyutadagi eksportining ulushi:

sotishning umumiy hajmida 15 dan 30 foizga qadarni tashkil etgan eksportchi korxonalar uchun foyda solig'ining belgilangan stavkasi 30% ga pasaytiriladi;

sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan ziyodni tashkil etsa, foyda solig'ining belgilangan stavkasi 2 baravar kamayadi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan korxonalar uchun iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishdan olingan foyda bo'yicha foyda solig'ining belgilangan stavkasi 20 foizga pasaytiriladi.

**2-Keys.** Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni soliqqa tortish Quyidagi berilganlarga asosan dividend solig'ini hisoblang va hisob – kitobini tuzing. Yil yakunlari bo'yicha aksiyadorlik jamiyati 2,6 mln so'm miqdorida sof foyda oldi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq foydani taqsimlash quyidagicha amalga oshiriladi:

- muassis – yuridik shaxslarga 1.2 mln. So'm miqdorida dividendlar to'lashga;
- korxonaga muassis – xodimlariga 845,3 ming so'm miqdorida dividendlar to'lashga;
- 554,7 ming so'm miqdorida rezerv (zaxira) fondini shakllantirishga.

Echish:

Qimmatli qog'ozlar (davlat qimmatli qog'ozlaridan tashqari) bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarga dividend va foizlar sifatida to'lanadigan daromadlarga to'lov manbaida 10 foizlik stavka bo'yicha soliq solinadi.

A. Aksiyadorlardan ushlab qolinadigan dividendlar bo'yicha daromad solig'i  
 $(529500 + 320500) * 15 \text{ foiz} = 127500 \text{ so'm}$

2. Dividend solig'i hisob – kitobi quyidagicha tuziladi:

Dividendlar va foizlarning hisob-kitobi

200 \_\_\_ yil \_\_\_\_\_ uchun



№	Ko'rsatkichlar	To'lovchining ma'lumotlari bo'yicha	Soliq inspeksiyasi ma'lumotlari bo'yicha
1	Hisoblab yozilgan dividendlar va foizlar	850000	
2	Soliq stavkasi	10%	
3	Byudjetga to'langan soliq summasi, jami	127500	

**3- Keys.** Korxonada nominal qiymati 800 so'mlik 100ta depozit sertifikatini muomala muddati (uch oy) o'tgandan so'ng uning qiymatini to'lashi uchun bankka taqdim etgan, bunda bu sertifikatga yiliga 36 foiz hisobidan foizlar hisoblangan.

Aksiyadorlik jamiyatining aksiyalar bo'yicha hisoblab chiqarilgan dividendlari 40 000 so'mni tashkil etdi.

Yuqoridagilar asosida:

a) bank tomonidan hisoblanadigan va byudjetga o'tkaziladigan daromad.(foyda) solig'ini hisoblang.

b) aksiyadorlik jamiyati tomonidan hisoblanadigan va byudjetga o'tkaziladigan foyda solig'ini hisoblang.

Echish:

1. Bank daromadi hisoblanadi

$$800 * 100 * 36\% : 100\% : 4 = 7\,200 \text{ so'm}$$

A. a) bank tomonidan byudjetga o'tkaziladigan foyda solig'i hisoblanadi

$$7\,200 * 9\% : 100\% = 648 \text{ m. So'm}$$

b) aksiyadorlik jamiyati tomonidan byudjetga o'tkaziladigan foyda solig'i hisoblanadi

$$40\,000 * 9\% : 100\% = 36\,000 \text{ m. So'm}$$

**4- Keys.**Quyidagi berilganlar asosida qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi shaklini to'ldiring :

Yil boshidan beri kelib tushgan xom ashyo qiymati – 6 000 000 so'mni tashkil qilgan, undagi olingan hisobvara-q-fakturalar bo'yicha QQS so'mmasi 1 200 000 so'mni tashkil qildi. QQSga tortiladigan, yuklab jo'natilgan xizmatlar qiymati, jami 20 000 000 so'mni tashkil qildi;

o'tgan davr uchun hisoblab yozilgan soliq so'mmasi 2 200 000 so'mni tashkil qilgan.

Echish:

A. Yuklab jo'natilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS

$$20\,000 \times 20\% : 100\% = 4\,000,0 \text{ ( ming so'm )}$$

A. Soliqqa tortiladigan aylanma

$$20\,000,0 - 4\,000,0 = 16\,000,0 \text{ ( ming so'm )}$$

A. Hisob-kitob bo'yicha hisoblab chiqilgan qo'shilgan qiymat solig'i so'mmasi

$$A \quad 16\,000,0 \times 20\% : 100\% = 3\,200,0 \text{ ( ming so'm )}$$

4. To'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i so'mmasi

$$3\,200,0 - 2\,600,0 = 600,0 \text{ ( ming so'm )}$$

200\_\_yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ uchun

**5- Keys.** Ishlab chiqarish korxonasi hisobot davri davomida Er usti va er osti manbalaridan foydalanilgan: 2564 kub.metr er usti suv manbaalaridan va 976 kub.metr er osti suv manbaalaridan. Yuqoridagilardan foydalanib suv reserslaridan foydalanganlik uchun solikni hisoblang va hisob – kitobini tuzing.

Echish:

Er usti suv manbaalari bo'yicha soliq

$$2564 \times 490,4 = 12\,573,9 \text{ so'm}$$

Er osti suv manbaalari bo'yicha soliq

$$976 \times 630,8 = 6\,156,7 \text{ so'm}$$

$$\text{jami: } 12\,573,9 + 6\,156,9 = 18\,730,8 \text{ so'm}$$

**6- Keys.** Korxonada xodimiga iyun oyi uchun 80 000 so'm ish xaki xisoblagan. Yanvar – iyun oylari uchun jami daromad miqdori 480 000 so'mni ( $80\,000 + 80\,000 + 80\,000 + 80\,000 + 80\,000 + 80\,000$ ) tashkil kiladi. Yanvar- may oylari uchun ushlab kolinigan solik so'mmasi 84 640 so'mni tashkil kildi. Yukoridagilarga asoslanib iyun oyi uchun daromad soligini xisoblang.

Echish:

Buning uchun quyidagi jadvaldan foydalaniladi:

2011 yanvar oyi uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad soligi

#### XISOB-KITOB

Solik solinadigan daromad miqdori	Solik miqdori
$(5 \times 49735) = 248675 \text{ so'mgacha}$	daromad miqdorining 10 foizi

248676 so‘mdan (10 x 49735) = 497350 so‘mgacha	24867,5 + 248675 so‘mdan ortik mikdorning 16 foizi
497351 so‘m va undan yukori	64655,5 + 497350 so‘mdan ortik mikdorning 22 foizi

Xodimni ish xaqidan yanvar oyida daromad soligi quyidagi tartibda ushlab qolinadi:

1. Yanvar oyida uchun soliq miqdori aniklanadi (580000 so‘m daromaddan):

$64655,5 + (580000 - 497350) \cdot 22\% = 18183$  so‘m (yanvar oyi uchun solik miqdori).  $64655,5 + 18183 = 82838,5$  so‘m.

**A. SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH FANIDAN TEST SAVOLLARI**

**A. Soliq va soliqqa tortish fanini o‘rganish usullari**

(A). Induksiya va deduksiya. Ilmiy abstraksiya va grafik

V. grafik

S. sintez

D. statistik

**A. Induksiya nima?**

(A) Yakka faktdan umumiy xulosa tomon o‘rganish

V. Umumiy xulosadan yagona bir fikrga kelish

S. O'rganiladigan ob'ektni qism-qismlarga bulib o'rganish

D. Kordinata o'qlarida soliq voqe'liklarini tasvirlash

A. **Soliq nima ?**

A. Majburiy pul tushumlari

(V). Jismoniy va yuridik shaxslar daromadini bir qismini majburiy tarzda qaytarib bermaslik sharti bilan davlat byudjetiga o'tkazib beriladigan badal

S. Jismoniy va yuridik shaxslarning daromadini davlat byudjetiga utkazilishi

D. Davlat byudjetiga o'tkazadigan to'lovlar.

**4. Stavka tushunchasi nimani anglatadi ?**

(A) Soliq undirish me'eri

V. Pul miqdori

S. Soliqning katta kichikligi

D. Soliq elementi

**5. Yuridik shaxs - .....**

A. Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar

(B) Mustaqil balans va xisob –kitob varag'iga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar

S. Iqtisodiydagi sub'ektlar

D. Soliq tizimida soliq munosabatlarida ishtirok etuvchi shaxs

**6. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i stavkalarini aniqlang.**

A. 15%

(V) 9%

S. 45%

D. 40%

**7. Regressiv stavka mohiyati nimadan iborat ?**

A. Pasaytirilgan stavka

V. Daromad oshishi bilan oshib boruvchi stavka

(S). Daromad oshishi bilan pasayuvchi stavka

D. Qat'iy stavka

**8. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i ob'ekti .....**

A. Korxonaning sof foydasi

(V) Yuridik shaxsning soliq solinadigan foydasi

S. Hisobot davridagi foyda

D. Imtiyozlarni chegirib tashlangandan so'ng qolgan foyda

**9. Yuridik shaxslardan undirilgan foyda solig'i to'lovchilari bu ... -**

(A) O'zbekiston Respublikasi Rezidentlari va faoliyatini doimiy muassasa orkali amalga oshiradigan nerezidentlar.

V. Rezidentlar

S. Yuridik va jismoniy shaxslar

D. foydaga ega bo'lgan shaxslar

**10. Yuridik shaxsning jami daromadi tarkibiga kirmaydigan qatorni ko'rsating.**

A. Foiz va dividendlar

V. Muddati o'tib ketgan qarzdorlik

S. Royalti

(D) Zaklat tariqasidagi daromadlar

**11. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining nechanchi bo'limida yuridik shaxslar olinadigan foyda solig'I keltirilgan?**

(A). V bo'lim

B. VI bo'lim

C. X bo'lim

D. XI bo'lim

**12. Quyida keltirilganlarning qay biriga yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'I imtiyozlari amal qiladi.**

A. Sud chikimlari

(V) Jazoni ijro etish muassasalari

S. Divident va foizlar

E. Notijorat tashkilotlar

**13. Soliq davri nima?**

A. Hisobot davri

V. Yilning choragi

(S) Kalendar yili

D. Bo'nak davri

**14. Yagona soliq to'loviga o'tish mezonini nima?**

A. Mikro firma va kichik korxonalar

V. Korxonaning egallagan maydoni

S. Hisobotni rasmiylashtirish tartibi

(D) Ishchilar soni.

**15. Yagona soliq to'lovining asosiy stavkalarini ko'rsating.**

A. 15 %

V. 13 %

S. 9 %

(D). 6%

**16. «Unifikatsiya» so'zining ma'nosini aniqlang.**

A. Ixchamlashtirish

V. Bixillashtirish

S. Qièslash

D. Stavkalarni belgilash

**17. Yagona soliq to'lovini to'lovchilari kim?**

A. Korxonalar va tashkilotlar

V. Soddalashtirilgan soliq tizimida faoliyat yuritaètgán shaxslar

(S). Mikro firma va kichik korxonalar

D. Tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi jismoniy shaxslar

**18. Yagona soliq to'lovini to'lovchi shaxslar ixtiyoriy ravishda qaysi soliqni to'lashlari mumkin?**

A. Aksiz solig'i

V. Mol-mulk solig'i

(S) Qo'shilgan qiymat solig'i

D. tadbirkorlar

**19. Qushilgan qiymat solig'ini hisoblash formulasi qaysi javobda to'g'ri kursatilgan?**

A.  $QQS = STV * N / 100$

V.  $QQS = STV * N / 100 + N$

S.  $QQS = STV + N / 100$

(D).  $QQS = STV + 100 / 120$

**20. Yalpi tushumga tuzatish kiritish qay holatda ruxsat etiladi.**

A. Haridorning xoxishiga ko'ra

(V) Bitim shartlari o'zgarganda

S. Valyuta kurslarida salbiy farqda

D. Valyuta kursi o'zgaranda

**21. Qo'shilgan qiymat solig'ida amal qiladigan imtiyoz qaysi qatorda keltirilgan .**

(A) Pochta markalari va konvertlarini realizatsiya qilish

V. Xom ashe etkazib berish

S. Tekin olingan mol-mulk

D. Import kilinadigan tovarlarga

**22. «Aksiz» so'zi nima ma'noni anglatadi?**

A. Zararli maxsulotlar

V. Ta'qiqlangan

S. Ruxsat etilmagan

(D) Chopib tashlash

**23. Aksiz solig'ida soliq stavkalarining qay turi amal qiladi?**

A. Foizli ,nisbiy, advalor

V. Foizli ,qat'iy ,advalor

(S) Advalor, qat'iy, aralash

D. Advalor, aralash, progressiv

**24. Soliq so'mmasi «dekada» da davlat byudjetiga o'tkazib beriluvchi soliq turlarini aniqlang.**

A. Bojxona boji, aksiz solig'i

V. Qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i

(S). Transport vositalari uchun benzin, dizel, gaz e'qilg'isini ishlatganligi uchun soliq, aksiz solig'i

D. yagona soliq

**25. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni xar oyda to'lovchi yuridik maxslar qaysi qatorda keltirilgan.**

A. Soliq so'mmasi minimal ish xaqining 50 barobaridan oshmaydigan shaxslar

(V) Soliq soʻmmasi minimal ish xaqini 50 barobaridan koʻpini tashkil etuvchi shaxslar

S. Suv resurslaridan foydalanib tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi shaxslar

D. Yuridik va jismoniy shaxslar

26. Jismoniy shaxslar undiriladigan daromad soligʻida soliqqa tortiladigan baza qaysi qatorda keltirilgan.

A. Jismoniy shaxsning ish xaqi soʻmmasi

V. Jismoniy shaxsning mualliflik xaqi

(S) Jismoniy shaxsning jami daromadi

D. Ish xaqi, foiz va dividendlar

**27. Jismoniy shaxslar daromad soligʻi kim tomonidan davlat byudjetiga oʻtkazib beriladi.**

(A) Soliq agenti

V. Soliq inspektori

S. Soliq toʻlovchi

D. deklaratsiya topshirish orkali

**28. Jismoniy shaxsning boshqa daromadlari tarkibini aniqlang.**

A. Ish xaqi, foiz, 224ovar224ec

V. Stipendiya, tadbirkorlikdan olingan daromad

S. Aliment, mukofot soʻmmalari

(D.) Aliment, stipendiya, donorlik uchun hak

**29. Bonus toʻlovlarining turini koʻrsating.**

(A) Imzoli, tijoratbop

V. Katʼiy belgilangan, imzoli

S. Tijoratbop, litsenziyali

D. Bir oylik, bir martalik

**30. Qoʻshimcha foyda soligʻiga tortiladigan foydali qazilma turini aniqlang.**

A. Oltin

V. Kumush

S. Rux

(D) Klinker

**31. Er qaʼridan foydalanganlik uchun soliq toʻlovchilar amal qiladigan soliq toʻlovlarini koʻrsating.**

A. Yuqori ustama soliq, bonus toʻlovlari

(V) Qoʻshimcha foyda soligʻi, bonuslar

S. Ijtimoiy infratoʻzilmani rivojlantirish soligʻi

D. Ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yigʻimi

**32. Ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yigʻimi zargarlik buyumlarini sotish huquqi uchun qancha miqdorda toʻlanadi.**

(A) Minimal ish xaqining 5 barobari

V. Minimal ish xaqining 8 barobari

S. Tushgan tushumning 10 foizi

D. Tushgan tushumning 0,1 foizi

**33. Yangi taxrirdagi soliq kodeksi qachon kuchga kirgan?**



- A. 2007 yil 1 yanvardan
- (V). 2008 yil 1 yanvardan
- S. 2009 yil 1 yanvardan
- D. 2010 yil 1 yanvardan

**34. Transport vositalari uchue benzin, dizel va gaz èkilgisini ishlataètganligi uchun soliqda benzina urnatilgan stavka?**

- A. 1 litr uchun 200 so‘m
- V. 1 litr uchun 220 so‘m
- (S). 1 litr uchun 240 so‘m
- D. 1 litr uchun 260 so‘m

**35. Yuridik shaxslarning sof foydasi qaysi soliq 225ovar225e ob’ekti hisoblanadi?**

- A. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘I
- V. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘I
- (S) Obodonlashtirish va ijtimoiy infrato‘zilmani rivojlantirish solig‘I
- D. Savdo umumovkatlanish korxonalarini uchun yagona soliq

**36. «Deklaratsiya» so‘zi nima ma’noni anglatadi?**

- (A) Baèn etmok
- V. Yozma murojaat
- S. Ariza
- D. Bildirishnoma

**37. Fanni o‘rganishning «Tahlil va sintez» usulining mazmuni nimadan iborat?**

- A. Ob’ektlarni takkoshlash va umumiy xklosaga kelish
- (V) O‘rganilaètgan ob’ektni qismlarga bulib o‘rganish va qismlardan jamlash
- S. O‘rganilagn ob’ektlarni umumlashtirib yagona xulosaga kelish
- D. yagona xulosaga kelish

**38. Yuridik shaxslar foyda solig‘ida soliqqa tortiladigan bazaga qayta ko‘shiladigan xarajatni aniqlang.**

- A. Mehnatga haq to‘lash Harajatlari
- (V) Uyali aloka buyicha Harajatlar
- S. Amortizatsiya Harajatlari
- D. Moddiy Harajatlari

**39. Tijorat banklari uchun foyda solig‘ini stavkasi necha foiz kilib belgilangan?**

- A. 10%
- V. 12%
- (S). 15%
- D. 17%

**40. 2013 yil uchun soliq stavkalari qaysi me’èriy xujjatda keltirilgan?**

- A. O‘zbekiston soliq kodeksi.
- (V) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1887-sonli qarori.
- S. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1675-sonli qarori.
- D. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1545-sonli farmoni.

**41. Dividentlar necha foizli stavkada soliqqa tortiladi.**

- (A) 9%

V. 10%

S. 12%

D. 13%

**42. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘i iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra.....**

A. Shaxsiy soliq

V. Real soliq

(S) To‘g‘ri soliq

D. Umumdavlat solig‘i

**43. Xaqiqiy to‘lovchisi iste‘molchi, huquqiy to‘lovchisi yuridik shaxs bo‘lgan soliq turi...?**

A. To‘g‘ri soliq

(V) Egri soliq

S. Oborot solig‘i

D. Real solig‘i

**44. Aholining joylashuviga ko‘ra tabaqalashgan stavkalar kimga qo‘llaniladi.**

A. Zargarlik buyumlari bilan savdo qiluvchilarga

V. Latoreya uyinlarini tashkil etuvchi shaxslarga

S. Ulgurji savdo korxonalariga

(D). Dorixonalarga

**45. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘ida imtièznning qaysi turlari mavjud?**

(A) To‘lik va qisman

V. To‘lik va vaqtincha

S. To‘lik va chegirish

D. Qisman va vaqtincha

**46. Qo‘shilgan qiymat solig‘i kim tomonidan o‘ylab topilgan?**

A. A.Smit

V. A.Laffer

(S). M.Lore

D. J.M.Keyns

**47. Yagona soliq to‘lovida hisobot davri -**

A. Har oy

V. Kalendar yili

S. Dekada

(D) Yilning choragi

**48. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘ining stavkasi iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra - ..... Stavka**

(A) Murakkab progressiv

V. Proporsional

S. Regressiv

D. Tabaqalashgan

**49. Bojxona to‘lovlari keltirilgan qatorni aniqlang.**

A. Bojxona boji, 226ovar226ectua boj

V. Mavsoʻmiy boj, aksiz soligʻI bojxona boji.

(S). QQS, aksiz soligʻI, rasmiylashtirish buyicha toʻlovlar

D. Bojxona boji, QQS, aksiz soligʻI

**50. Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi quyidagilardan iborat.**

A. Ish xaqi koʻrinishidagi daromadlar, mehnatga haq toʻlash shaklidagi daromadlar, mulkiy daromadlar

(V) Mulkiy daromadlar, mehnatga haq toʻlash shaklidagi daromadlar, moddiy naf koʻrinishidagi daromadlar, boshqa daromadlar

S. Foiz va dividendlar, mulkiy daromadlar, boshqa daromadlar

D. Dividentorlar

**51. Aksiz markasi bilan tamgʻalanadigan aksiz osti tovarlari**

A. Pivo, sigaretalar

V. Oʻsimlik ègʻI, spirtli maxsulotlar

S. «General Motors» avtomobillari

(D). Spirtli ichimliklar, tamaki maxsulotlari

**52. Boʻnak toʻlovlari toʻlanishi nazarda tutilmagan soliq turlari**

(A) QQS, jismoniy shaxslar mol-mulk soligʻI

V. Aksiz soligʻI, mol-mulk soligʻI

S. QQS, foyda soligʻI

D. Foyda soligʻI, yagona soliq toʻlovi

**53. Boqimanda kim?**

A. Soliqni ortigʻI bilan toʻlagan shaxs

V. Ortiqcha toʻlangan soliq summasini qaytarib olgan shaxs

(S) Soliq summasini oʻz vaqtida toʻlamagan shaxs

D. Imtièzga ega boʻlgan shaxs

**54. Qoʻshimcha foyda soligʻI obʻekti boʻlgan foydali qazilma turi**

(A) Sement

V. Gips

S. Ohaktosh

D. Granit

**55. Suv soliqqa tortish maqsadida qanday guruxga boʻlinadi.**

A. Chuchuk suv va darè suvlari

(V) Er osti va er usti suvlari

S. Artezian kuduk va skvajina suvlari

D. Skvajina suvlari

**56. Tijoratbop bonus stavkasini aniqlang.**

A. 0,1 %

V. 0,5 %

S. 1 %

D. 5 %

**57. Jismoniy shaxslar mol-mulki baholanmagan boʻlsa, soliqni hisoblash tartibi.**

A. Boshlangʻich qiymat asosida

V. Bozor qiymati asosida

S. Soliq hisoblanmaydi

(D). Prezident qarorida belgilangan shartli qiymat asosida

**58. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ida qisman imtiëz turini ko'rsating.**

A. Muddatli harbiy xizmatga ketganlarning ota-onalari

V. Yolg'iz pensionerlar mol-mulki

S. Mikrofirma va kichik korxonalar mol-mulki

(D) Soliq solinmaydigan maydon o'lchamida pensionerlar mol-mulki

**59. jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini to'lov muddati**

A. 15 iyungacha

V. 15 dekabrgacha

(S) 15 oktyabrgacha

D. 15 maygacha

**60. Soliqqa tortish ob'ektiga ko'ra, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilma solig'I qaysi guruxga mansub**

A. Oborotdan undiriladigan soliq

(V) Daromaddan undiriladigan soliq

S. Mulkiy soliq

D. Resurs solig'i

**61. Yagona soliq to'lovi ob'ekti**

(A) Yalpi tushum

V. Yalpi daromad

S. Yalpi foyda

D. Sof foyda

**62. Yagona er solig'I stavkasini ko'rsating**

A. 5,5 foiz

V. 6 foiz

S. 3 minimal ish xaqi

D. 5 minimal ish xaqi

**63. Regressiv stavka qo'llaniladigan soliq to'lovchilarni aniqlang.**

A. Notariuslar

V. Dorixonalar

S. Eksport korxonalar

(D). Qo'shma korxonalar

**64. Qat'iy belgilangan soliq soliq to'lovchilarning qay biriga belgilangan.**

(A). Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga

V. Kasanachilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarga

S. Yuridik shaxslarga

D. To'g'rijavob yo'k

**65. Ikki barobar stavkada soliqqa tortish ob'ekti bu - ....**

A. Qurilish ob'ektlari

(V). O'z vaqtida o'rnatilmagan asbob uskunalari

S. Transport vositalari

D. Nomoddiy aktivlar

**66. Qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga olgan 228ovar bahosida QQS summasini aniqlash formulasi**

A.  $QQS = TQQS * N / (100 + N)$

V.  $QQS = TQQS * N / 100$

S.  $QQS = TQQS * N / 120$

(D).  $QQS = TQQS * 20 / 120$

**67. Real soliq turini ko'rsating**

A. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'I

V. Yagona soliq to'lovi

(S) Mol-mulk solig'I

D. Qat'iy soliq

**68. Aksiz markalari qanday huquqni beradi?**

(A) Aksiz tovarini sotish, saqlash, tashish

V. Aksiz tovarini sotish, iste'mol qilish

S. Aksiz tovarini sifatini aniqlash

D. Aksiz tovarini sotish, sovg'a qilish

**69. Bonus tarifi qaysi javobda keltirilgan.**

A. Er qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan doimiy to'lov

V. Er qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan har oylik to'lov

S. Er qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan choraklik to'lov

(D) Er qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lov

**70. qaysi toifadagi fukarolar jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya topshiradilar?**

A. Har bir mehnat qiluvchi fuqaro

(V) Ikki va undan ortiq daromad manbaiga ega bo'lgan fuqaro

S. Yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar

D. O'rindoshlik asosida mehnat qiluvchilar

**71. Qo'shilgan qiymat solig'ining vatani?**

A. Fransiya

(V). Germaniya

S. AKSH

D. Belgiya

**72. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ida soliqqa tortiladigan bazani qaysi summaga kamaytirish mumkin.**

A. To'langan jarima

V. To'langan dividendlar

S. Ish xaqi

D. Amortizatsiya summasi

**73. Er solig'I soliqlarning qay bir turiga kiradi?**

A. Shaxsiy soliq

V. Egri soliq

S. Oborot solig'i

(D) Resurs solig'i

**74. Aksiz solig'I O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga qachon joriy etilgan?**

A. 1990 yil

V. 1991 yil

(S) 1992 yil

D. 1993 yil

**75. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ida soliqqa tortiladigan baza kim tomonidan aniqlanadi?**

A. To'lovchi tomonidan

V. Tuman inspeksiyasi tomonidan

(S). TIB tomonidan

D. Mahalla idorasi tomonidan

**76. Yagona ijtimoiy to'lovning soliq solish ob'ektini ko'rsating**

(A) Yalpi ish haqi fondi

V. Yalpi daromad

S. Yalpi tushum

D. Sof foyda

**77. 2005 yilda 2013 yilgacha bo'lgan davrda asosiy soliq stavkasi o'zgarmagan soliq turini aniqlang.**

A. Jismoniy shaxslar daromad solig'I

V. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'I

(S). Qo'shilgan qiymat solig'I

D. Aksiz solig'i

**78. Jamgarib boriladigan pensiya jamgarmasiga ajratma miqdorini aniqlang.**

(A). 1%

V. 2%

S. 3%

D. 1,5 %

**79. Bo'nak to'lovlari belgilanmagan soliq turini ko'rsating.**

A. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'I

V. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq

S. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq

D. QQS

**80. Soliq agenti tushunchasi qaysi guruxga mansub**

A. Soliqqa tortish tamoyili

V. Soliq funksiyasi

(S). Soliq elementi

D. Soliq voqe'ligi

**81. Xayriya maqsadida o'tkazilgan mablag'lar soliqqa tortiladimi?**

(A). Tortilmaydi

V. Tortiladi

S. Foyda solig'I bazasining 1% miqdoridan oshgan qismi tortiladi.

D. Foyda solig'I bazasining 5% miqdoridan oshgan qismi tortiladi.

**82. Yuridik shaxslar foyda solig'I stavkasi kim tomonidan tasdiklanadi.**

A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi

V. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi

(S) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

D. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi

**83. Yuridik shaxslarning maxsulotlarning eksport xajmi umumiy ishlab chikarish xajmida 30% va undan yuqorini tashkil etsa, foyda solig'ini qanday stavkada to'lanadi.**

A. 4,5 %

V. 7%

(S) Belgilangan stavkani 50% kamaytirilgan miqdorda

D. Belgilangan stavkani 15% kamaytirilgan miqdorda

**84. Quyidagi yuridik shaxslardan qaysi biri va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'laydi.**

(A). Ulgurji va chakana savdo korxonalar

V. Umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchi korxonalar

S. Soddalashtirilgan soliq tizimi korxonalar

D. Norezidentlar

**85. Rezident nima?**

(A) O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab, 183 kun va undan ko'p bo'lgan muddatda faoliyat yuritaётgan shaxs

V. Ajnabiy fukarolar

S. Fukaroligi bulmagan shaxs

D. O'zbekiston Respublikasi fukarosi bulmasada, 183 kundan ortiq muddatda faoliyat yuritaётgan shaxs

**86. Tugallanmagan kurilish ob'ektlari qaysi soliq 231ovar231e ob'ekti.**

(A). Yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq

V. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga soliq

S. Er solig'i

D. Soliq ob'ekti bulib hisoblanmaydi.

**87. Qaysi holatda notijorat tashkiloti yuridik shaxs sifatida foyda solig'I to'lovchisi hisoblanadi.**

(A) Asosiy faoliyatdan tashkari qo'shimcha tijorat faoliyati bilan shug'ullansa

V. Qo'shimcha foyda olsa

S. O'zini-o'zi boshqarish tizimida faoliyat yuritsa

D. dividend olsa

**88. Yagona ijtimoiy to'lov summasi qanday taqsimlanadi**

A. 24,8; 0,1; 0,1

V. 23; 1; 1

S. 25% - taqsimlanmaydi

D. 20%, 2,5%, 2,5%

**89. To'lov shakllarini ko'rsating**

A. Kommunal to'lov

(V) Pensiya fondiga ajratma

S. Yo'l xaqi

D. Ish xaqi

**90. Qo'shilgan qiymat solig'ining 2013 yildagi amaldagi stavkalari**

A. 20% ; 10%

V. 20% ; 0,1 %

S. 15% ; 18 %

(D) 20% ; 0 %

**91. Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'I bazasiga kiritiladimi?**

A. Kiritilmaydi

(V) Kiritiladi

S. Ayrim xollarda kiritiladi

D. Amortizatsiya fondiga yunaltiriladi.

**92. Tovarlarini chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilishga QQSning qaysi stavkasi amal qiladi.**

(A) Nol darajali stavka

V. Pasaytirilgan stavka

S. Tabakalashtirilgan stavka

D. 20%

**93. Deduksiya usulining mazmun – mohiyati nimadan iborat**

(A) Umumiy xulosadan yakka bir fakt tomon o'rganish

V. Dialektikaning yunalishi

S. Soliq voqe'liklarini o'rganish

D. Induksiyaga teskari tushuncha

**94. Davlat boji ta'rifi qaysi javobda to'g'ri talqin etilgan.**

(A). Biron bir mansabdor shaxsning huquqiy xujjatini tasdiklash va amalga kiritish uchun to'lanadigan to'lov

V. Biror bir shaxsning davlat oldidagi majburiyati

S. Biror bir mansabdor shaxsga davlat organlari xizmat ko'rsatganligi uchun haq so'mmasi

D. Fukarolik pasportini olish paytida to'lanadigan so'mma

**95. Er solig'ini amalga oshirish maksadida Toshkent shaxri nechta zonaga bo'linadi.**

A. 11 zona

V. 12 zona

(S) 14 zona

D. 15 zona

**96. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'rtacha stavkasini belgilang.**

A. 11%

V. 14%

(S) 16%

D. 18%

**97. Bojxona bojini ko'llashdan maqsad?**

A. Chegarani nazorat qilish

(V) Ichki bozorni ximoyalash

S. Raqobatdorlikni oshirish

D. ishlab chiqarishni rag'batlantirish

**98. QQS da asosiy me'èriy xujjat**



A. Balans  
V. QQS hisoboti  
S. Yillik hisobot

(D) Hisob varaq-faktura

**99. Aksiz osti tovari bo'lmagan qatorni ko'rsating.**

(A) Shakar, o'simlik èg'I, spirtli ichimlik

V. Pivo, etil 233ovar233, sigaretlar

S.Zargarlik buyumlari, kumushdan ishlangan oshxona jihozlari

D. Neft mahsulotlari, gaz, texnik moy

**100. Advalor stavka qaysi soliqqa xos.**

A. Qo'shilgan qiymat solig'I

(V). Aksiz

S. Mol-mulk

D. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

**101. Umumovqatlanish korxonasi uquv muassasasida joylashgan bo'lsa, soliq stavkasi miqdori.**

(A) 8%

V. 5%

S. 6%

D. 13%

**102. Polietilen granulalari qaysi soliq 233ovar233e ob'ekti hisoblanadi.**

A. Bonus to'lovlari

V.Resurs to'lovlari

(S) Qo'shimcha foyda solig'I

D. Er solig'i

**103. Imzoli bonus to'lash muddatini belgilang**

(A) Litsenziya olingan kundan e'tiboran 30 kun

V. Litsenziya olingan kundan e'tiboran 90 kun

S. Litsenziya olingan kundan e'tiboran 120 kun

D. Litsenziya olingan kundan e'tiboran 14 kun

**104. Jismoniy shaxslarga mol-mulk solig'ini to'lash xaqida xabarnoma qachon topshiriladi.**

(A). 1 maygacha

V. 15 aprelgacha

S. 15 oktyabrgacha

D. 1 yanvargacha

**105. Yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq ob'ekti bo'lib quyidagilardan qaysi birini kiritishimiz mumkin**

A. Er uchastkasi

V. Sport inshootlari

(S) Nomoddiy aktivlar

D. Dala xovlilar

**106. Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk soliq ob'ekti hisoblanadimi ?.**

A. Xa, 233ovar233 hisobot davridan hisoblanadi.

(V) Xa, mulk huquqi vujudga kelgan oydan hisoblanadi

S. Yo'k, hisoblanmaydi

D. Merosxo'rlardan soliq undirilmaydi.

**107. Er solig'ini ob'ekti bo'lib hisoblanmaydi-...**

A. Korxonaning er uchastkasi

Vqurib bitkazilgan bino joylashgan er uchastkasi

S. Pensionerlar egaligida bo'lgan er uchastkasi

(D) Maydon, kuchalar

**108. Er solig'ini to'lash xaqidagi ma'lumot jismoniy shaxslarga qaysi soliq turi bilan birgalikda to'lov xabarnomasida èritiladi.**

A. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

V. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq

(S) Mol-mulk solig'I

D. Yagona er solig'I

**109. Yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqda soliq solinadigan bazani toping**

(A). Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldik qiymati. O'z vaqtida tugallanmagan qurilish ob'ektlari va me'èriy muddatlarda o'rnatilmagan asbob uskunalarining o'rtacha yillik qiymati

V. Yuridik shaxslar mol-mulkining qiymati

S. Yalpi tushum

D. daromadlar summasi

**110. Avtotransport vositalarini olganlik uchun yig'im qaysi guruxga mansub**

A. Bojxona boji

(V) Respublika yo'l jamgarmasiga yig'im

S. Transport vositalari egalaridan olinadigan soliq

D. Ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imi

**111. Nol darajali stavka quyidagilarning qay biriga amal qiladi.**

(A.)Aholiga kursatilgan komunal xizmatlarga

V. Yo'l chiptalariga

S. Sug'urta xizmatlariga

D. Kredit tashkilotlariga

**112. Yagona soliq to'lovini to'lovchisi QQSni to'lovchisi bo'la oladimi?**

A.Yo'k bo'la olmaydi

(V). Import operatsiyalarini amalga oshirsa, eksport bilan shug'ullansa

S. Qo'shimcha foyda olsa

D.Bo'la oladi

**113. "Soliq" tushunchasiga ta'rif bering.**

A. soliq deganda davlat byudjetiga undiriluvchi majburiy to'lov tushuniladi

B. yuridik shaxslar tomonidan byudjetga undiriladigan to'lovlar tushuniladi

C. jismoniy shaxslar tomonidan byudjetga to'lanadigan majburiy to'lovlar tushuniladi soliqlar deganda

D). muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi

**114. Soliqlarning qanday o'ziga xos belgilari mavjud?**

A. majburiylik, foizlilik, muddato'liqlik

B). majburiylik, davlat byudjetiga tushishi, qat'iylilik, ekvivalentsizlik

C. majburiylik, qaytarilmasligi, muddato'liqlik

D. davlat byudjetiga, tushishi, foizlilik

**115. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?**

A. fiskal, tartibga solish, nazorat, foiz olish

B.) fiskal, tartibga solish, rag'batlantirish, nazorat, axborot bilan ta'minlash

C. foiz olish, tartibga solish, rag'batlantiruvchi, axborot bilan ta'minlash

D. rag'batlantiruvchi, nazorat, axborot bilan ta'minlash, byudjetga tushish, foiz olish

**116. Qaysi javobda soliq elementlari keltirilgan?**

A. soliq turlari

B. soliq agenti, soliq to'lovchi va soliq solish ob'ekti

C.) soliq solish ob'ekti, soliq solinadigan baza, stavka, xisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq isbotini taqdim etish tartibi, to'lash tartibi

D. soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliqni xisoblash va to'lash tartibi

**117. Soliq stavkalarining turlarini aniqlang.**

A. to'g'ri, egri, resurs

B. o'Sib boruvchi, kamayib boruvchi, qat'iy

C). proporsional, progressiv, regressiv, qat'iy, egri

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI**

**“Tasdiqlayman”**

Toshkent farmatsevtika instituti

o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori

\_\_\_\_\_ **T.A.Nabiev**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

# Ijtimoiy fanlar kafedrasida o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash

## MEZONI

Toshkent - 2018

Ushbu Mezon Toshkent farmatsevtika institutida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi **NIZOM asosida** 2018 yil « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ **ishlab chiqildi va** ijtimoiy fanlar kafedrasining 2018 yil « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ - sonli yig‘ilishida muhokama qilindi va tasdiqlandi.



## **I. Umumiy qoidalar**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda) qonunlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda) muvofiq Toshkent farmatsevtika

institutida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimini tartibga soladi.

Ijtimoiy fanlar kafedrasida talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarining fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

e) talabalarining fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

j) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

3. Fanlar bo'yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

## **II. Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi**

4. Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta'lim muassasasining (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi.



5. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

6. Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat — talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat — semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat — semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «YOzma ish» shaklida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi yoki institut kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40% fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

6<sup>1</sup>. Nazorat turlarini o'tkazishda xolislikni ta'minlash maqsadida talabalar to'g'risidagi ma'lumotlar ularning nazorat ishlariga oliy ta'lim muassasasi tomonidan identifikatsiya kodi berish orqali shifrlanadi.

7. Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

8. Institut rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi yoki o'quv-uslubiy bo'lim rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni

o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

### **III. Baholash tartibi va mezonlari**

10. Talabalarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabani har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

11. Har bir fan bo'yicha talabani semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

joriy nazoratga — 45 ball;

talaba mustaqil ishi — 5 ball;

oraliq nazoratga — 20 ball;

yakuniy nazoratga — 30 ball.

Semestr boshlangandan talaba ikkinchi mashg'ulotdan oxirgi mashg'ulotga qadar har bir mashg'ulotda 100 ballik tizimda joriy baholanadi, so'ngra ushbu ballar yig'indisidan o'rtacha ball chiqarilib, 0,45 koeffitsientga ko'paytiriladi.

13. Talabani reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimiga alohida qayd qilinadigan pedagogik amaliyot, "O'zbekiston tarixi" fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi bo'yicha o'zlashtirish darajasi — 100 ballik tizimda baholanadi.

14. Talabani fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o'rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

a) 86 — 100 ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish;

ijodiy fikrlay olish;

mustaqil mushohada yurita olish;  
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;  
mohiyatini tushunish;  
bilish, aytib berish;  
tasavvurga ega bo'lish.

b) 71 — 85 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yurita olish;  
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;  
mohiyatini tushunish;  
bilish, aytib berish;  
tasavvurga ega bo'lish.

v) 55 — 70 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mohiyatini tushunish;  
bilish, aytib berish;  
tasavvurga ega bo'lish.

g) quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi 0 — 54 ball bilan baholanishi mumkin:

aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;  
bilmaslik.

15. Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

16. Talabanning fan bo'yicha bir semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = \frac{V \times O^I}{100}, \text{ bu erda:}$$

V — semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

O<sup>1</sup> — fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

17. Fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 foizi saralash ball etib belgilanadi va bunda joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 va undan yuqori foizidagi ballni to'plagan talabalar ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

18. Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

#### IV. Nazorat turlarini o'tkazish muddati

19. **Oraliq va yakuniy nazorat** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq **dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi**. YAkuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

21. **Joriy va oraliq nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi**.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga o'quv ishlari bo'yicha prorektorning farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi.

22. Semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat turlarining har biri bo'yicha **saralash balli(55 ball)dan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi**.

Akademik qarzdor talabalarga: kuzgi semestr yakunlari bo'yicha semestr tugagan kundan boshlab bir oy muddatda; bahorgi semestr natijalari bo'yicha esa, talabalarning yozgi ta'tili hamda professor-o'qituvchilarning mehnat ta'tilidan so'ng 26 sentyabrgacha qayta topshiriladi. SHu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

23. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan

murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

24. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

#### **V. Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi**

25. Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimining «O'quv rejasida ajratilgan soat» ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, «Fandan olingan baho» ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

26. Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga etkaziladi.

27. YAkuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarning fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

Talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimi joriy etilgan holatda talabalarning fan bo'yicha reytingi reyting qaydnomasi va ushbu tizimga qayd etiladi.

28. Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballari yig'indisi orqali aniqlanadi.

29. Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi.

30. Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisi olinadi.

Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi hisobga olinadi.

31. Talabalarning nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv-uslubiy bo'limda kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

32. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

#### **VI. Yakuniy qoidalar**

33. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

**Kafedra mudiri, dotsent**

**K.K.Ismailov**



### 10. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

#### Raxbariy adabiyotlar va qonunlar:

1. SHavkat Mirziyoev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz”- T: “O‘zbekiston” 2016.
2. SHavkat Mirziyoev “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta’minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” 2016 yil 7 dekabr: T, “O‘zbekiston” 2017.
3. SHavkat Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz”. T., “O‘zbekiston” 2017 .
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O‘zbekiston, 2007 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - T.: “Norma”, MJCh. 2008 y. -416 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni. //Xalq so‘zi, 29 avgust 1997 y.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3619-sonli Farmoni (2005 yil 14 iyun).
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-532-sonli Qarori (2006 yil 18 dekabr).
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat

byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-744-sonli Qarori (2007 yil 12 dekabr).

9.Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi nutqidan. "O'zbekistonda sog'liqni saqlash" gazetası. 2008 yil 12-18 fevral. №6 (574).

10.Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. –T.: "O'zbekiston", 2005 y. -525 b.

11.Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch - qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. –T.: "O'zbekiston", 2004 y.

### **Asosiy adabiyotlar**

1.Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. -T.: "Fan va texnologiya". 2007.

2. R.R. Xusainov , A.Q. Isxfqov , D.T. Urmanova X,Z, Djurayev . 2 qism Moliya ya soliqlar 2 qism. Toshkeht "Vorıs- Nashriyot" 2014

3..Aleksandrov I. Nalogi i nalogooblojenie.: Uchebnik. –M.: "Dashkov i K". 2006..

4..Jo'raev A. Soliq nazariyasi: O'quv qo'llanma. -T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2004.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. –T.: "Fan" nashriyoti. 2004.-387 b.

2Baymuratov T., Radjabov U. Soliq menejmenti. O'quv kullanma. -T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2005. -110 b.



- 3.Vaxobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: IQTISOD-MOLIYA. 2005. -282 b.
- 4.Jo‘raev A. Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2005. -120 b.
- 5.Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005. -544 b.
- 6.Isroilov B. Soliqlar hisobi va tahlili: muammolar va ularning yechimlari. -T.:”Uzbekiston”. 2006. -270 b.
- 7.Latipov A. yerdan foydalanish va soliqqa tortish. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005.-245 b.
- 8.Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Akademiya. 2002. 253 b.
- 9.Toshmurodova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish. -T. “IQTISOD-MOLIYA”. 2005. 156 b.

### **Elektron ta'lim resurslari**

<http://www.nalog.uz//>

<http://www.mf.uz//>

<http://www.cer.uz//>

<http://www.tfi.uz/>

